**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ABDURAHIM SULTONOV**

# MAQOM XONANDALIGI ANSAMBLI

An’anaviy xonandalik yo’nalishi talabalari uchun o’quv qo’llanma

Guliston– 2021 y

Ushbu o’quv qo’llanma Oliy va o’rta maxsus o’quv muassasalari San’atshunoslik fakulteti, “Musiqiy ta’lim” kafedrasi “An’anaviy xonandalik” yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, sohaga oid tegishli fan dasturi asosida yaratilgan.O’quv qo’llanmada o’zbek milliy maqomi tarixi, uning asoschilari, maqom va mumtoz ashulalar matnlari havola qilinadi.

**Taqrizchilar:**

**Matluba Dadaboeva**

O’zbekiston va Tojikiston Respublikalari xalq artisti,Yunus Rajabiy nomli O’zbek Milliy Musiqa san’ati instituti professori.

**Ravshanbek Mahmudov**

Guliston davlat universiteti Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va xuquq ta’limi kafedrasi professori.Falsafa fanlari nomzodi.

**Muharrir:**

**Vahob Rahmonov**

Guliston davlat universiteti o’zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, Xalqaro “BOBUR” nomli mukofot sohibi.

«Maqom xonandaligi ansambli» fanidan tayyorlangan ushbu o’quv qo’llanma Guliston davlat universiteti Kengashi tomonidan 2021 yil 30 oktyabrda nashrga tavsiya etildi. 3-sonli bayonnoma.

© A. Sultonov, Guliston, GulDU.

## Kirish

Oliy va o’rta maxsus o’quv muassasalari San’atshunoslik fakulteti, “Musiqiy ta’lim” kafedrasi “An’anaviy xonandalik” yo’nalishi talabalariga “Maqom ansambli” fanida o’zbek maqomlarining asosan Nasr (Ashula) bo’limidagi 1 va 2 gurux sho’balariga kiritilgan Saraxborlar, ashula va taronalari o’rganiladi.Ushbu o’quv qo’llanmani tayyorlashdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat. Milliy boyligimiz bo’lmish maqomlarimizning Saraxbor va taronalari, hamda o’zbek milliy mumtoz ashulalari buyuk shoirlarimizning g’azal va muhammaslari bilan aytiladi.Bu ashulalarning matnlarining aytilishida keyingi vaqtlarda xonandalarimiz tomonidan ko’plab xatoliklarga yo’l qo’yilayapti. Aksari xonandalar mumtoz shoirlarimizning g’azal va muxammaslarining ma’nosini to’liq tahlil qilmay, yaxshi tushunmay ijro etishayapti.Shu sababdan talaba yoshlarga ushbu mumtoz she’riyatimiz namunalarining aniq matnlari va ulardagi ayrim so’zlarning lug’aviy ma’nolari bayon etilmoqda.

Maqomlar va mumtoz ashulalarning ijro uslublari, ijro yo’llari, ashulalar so’zlarining to’g’ri aytilishi va matn mazmunini tushunib ijro qilish, “An’anaviy xonandalik” yo’nalishida tahsil olayotgan bo’lajak xonandalarning ijrochilik mahoratini o’stirish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashlariga zarur bo’lgan tushunchalar berish bugungi kunda dolzarb masala bo’lib turibdi.Shu sababdan maqomlar Saraxborlari, taronalari va mumtoz ashulalarni ijro etish harakatida bo’lgan talaba yoshlar mumtoz she’riyatimizning asl namunalari bo’yicha kerakli bilimga va tasavvurga ega bo’lishlari, o’rganayotgan ashulalarining matnlari ma’no va mazmunidan batafsil xabardor bo’lishlari kerak.Mumtoz qo’shiq yoki ashula aytishdan oldin ijro etiladigan asarning so’zi, shakli va asarning ma’nosini tushunib olish, asar matnidagi unli va undosh harflarni to’g’ri talaffuz qilish ma’lum ahamiyat kasb etadi.

2017-yil 17-noyabrda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning [1]**“Milliy maqom san’atini rivojlantirish va yoshlarni yuksak insoniy tuyg’ular ruhida tarbiyalash, ularning estetik didi va tafakkurini**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 17 noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

**shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan foydalanish"** to'g'risidagi qarori e'lon qilingandan keyin respublikamizda milliy va mumtoz musiqa san'atining, milliy musiqiy ta'limning yanada rivojlanishining ta'minlanishiga katta imkoniyatlar paydo bo'ldi. "Maqom" san'atiga mamlakat rahbari darajasidagi bu qadar alohida e'tibor, bunday munosabatdan yurtimizda ijod qilayotgan barcha milliy mumtoz ijrochilik san'ati sohiblari, ustoz san'atkorlar, hofizlaru-sozandalar, bastakoru navozandalarning ham xursandchiligi behad oshdi. Bolaligimdan milliy ijrochiligimizga bo'lgan cheksiz muhabbatim meni san'at sohasi mutaxassisi bo'lishimga asosiy sabab bo'ldi. Shu bois milliy mumtoz san'atimizning gavxari, duri-marvaridi va albatta gultoji bo'lgan "MAQOM" haqida o'z fikrlarimni qog'ozga tushurgim keldi. Bu fikr va mulohazalar, aniq ma'lumotlarning barchasi milliy musiqamiz, xususan "Shashmaqom" to'g'risida yozilgan kitoblardan, risolalardan, ustozlarimizdan olgan saboqlarimizdan, ularning bu mumtoz musiqa janri bo'yicha yozgan asarlarini o'rganib olgan bilimlarimiz mahsulidir. Biz shularni jamladik, xolos.

## Maqom san'atiga beqiyos e'tibor.

2018-yil sentyabr oyida, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida 1-Xalqaro Maqom Festivali o'tkazildi.Ushbu nufuzli musiqa anjumanining ochilish marosimida Muhtaram Prezidentimizning so'zlagan ma'ruzasidan keltirmoqchimiz.

Aziz do'stlar! Muxtaram mehmonlar!

Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'zbekiston zamini qadimiy tsivilizatsiya, madaniyat va san'at beshiklaridan biri bo'lib kelayotgani, o'ylaymanki, sizlarga yaxshi ma'lum.[2]Samarqand viloyatining Mo'minobod qishlog'idan topilgan 3 ming yillik nay cholg'usi, Termiz yaqinidagi Ayritom arxeologik yodgorligida aks etgan sozandalar tasviri va boshqa ko'plab misollar milliy musiqa san'atimiz, hech shubhasiz, boy va qadimiy tarixga ega ekanidan dalolat beradi.Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy bobomizning aynan "navo", ya'ni, musiqiy ohang, degan so'zni o'zlariga taxallus qilib, butun dunyoda shuhrat topganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo'lgan "Shashmaqom", ya'ni, olti maqomni, ta'bir joiz bo'lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to'ldirib, boyitib kelmoqda. Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdona YuNESKO

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-йил сентябр ойида, Шаҳрисабз шаҳрида ўтказилган Халқаро 1 – Мақом Фестивалининг очилиш маросимида сўзлаган маърузаси.

tomonidan jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani chuqur ma'no va ahamiyatga ega, deb o'ylayman. Azaldan san'atni, musiqani butun qalbi bilan sevadigan, ijod ahlini munosib qadrlaydigan el-yurtimiz bugungi anjumanni katta quvonch va hayajon bilan kutib olmoqda.Bugun biz ana shunday ulkan ma'naviy boylikning shakllanishi va taraqqiyotida, bu umrboqiy san'atning bizgacha etib kelishida beqiyos xizmat ko'rsatgan ulug' shoir va mutafakkirlar, bastakor va sozandalar, buyuk hofizlarning xotirasini hurmat-ehtirom bilan yod etamiz.

Aziz do'stlar!

Bugungi zamonda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirish, yoshlarni yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atining o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak.Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur. Maqom san'atining madaniy hayotimizdagi ana shunday beqiyos ta'sirini inobatga olib, mamlakatimizda bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda".

Talaba yoshlarda milliy va mumtoz ashulalarga qiziqish uyg'otish, milliy musiqani tinglash orqali, ifoda etilayotgan fikrni tushunib etish qobiliyati, shuningdek, asarlarni tanlab olishda talabalarning didini shakllantirish masalalari; R.Tursunov, B.Lutfullaev, Q.Mamirov, X.Nurmatov, R.Qodirovlar tomonidan tadqiq etilgan. Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimizning ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumot va risolalarini tadqiq qilish uchun shu sohada faoliyat olib borayotgan musiqashunos olimlar, mumtoz musiqa san'atimizning bilimdonlari, bastakorlar va ustoz hofiz-xonandalar o'zlarning bilim va tajribalarini yosh avlodga etkazish uchun shug'ulanishadi, albatta.

Yunus Rajabiy va Fahriddin Sodiqov ijodiy ish ustida.

“O’tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san’atini o’rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.[3] Ayniqsa, o’zbek “Shashmaqom”i nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-ashulalarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo’ldi. Bugungi kunda yurtimizda Respublika teleradio eshittirish qo’mitasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi Maqomchilar ansambli, viloyatlar markazlarida maqom jamoalari, O’zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo’nalishda maxsus kafedra faoliyat ko’rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim”.

Ushbu qarorda yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga taa’luqli muammo va kamchiliklar ham bayon qilingan. “Ayni vaqtda milliy o’zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg’ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayapti. Mazkur yo’nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o’quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televidenie, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog’i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ’ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda”.Xususan bu kamchiliklarni bartaraf qilish bo’yicha qarorning yakuniy qismida aniq va maqsadli ko’rsatmalar ham berilgan.

[3] . O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

Qarordagi “milliy o’zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish” jumlasi bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo’lib, hamon kun tartibidan tushmay kelayapti.Dunyodagi aksar mamlakatlar eng avvalo o’zlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, “osori atiqa”larini e’zozlaydilar va bobolaridan meros bo’lib kelayotgan madaniy boyliklarini ham yosh avlodning onggiga ham singdiradilar.Bizda bu masalada hali ishlar jadal suratlarda ketmayapti, maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida yosh avlodning milliy ruhda tarbiyalanishida, ya’ni musiqa madaniyati dars soatlarini ko’paytirish va dars o’qitish sifatini oshirish, o’quv maskanlarini milliy musiqa san’atidan yaxshi xabardor bo’lgan, bilimli musiqa fani mutaxassislari bilan ta’minlash ishlari sezilarli darajada amalga oshirilayapti deb bo’lmaydi.

O’sha jumlaning davomidan “xalqimiz, avvalo, yosh avlodni yuksak insoniy tuyg’ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayapti” deyilmoqda.Kattalar ham, yoshlar ham milliy musiqa san’atiga, xalqimizning bebaho, durdona musiqiy asarlariga chin dil bilan intilishmasa, yashash tilsimini ham to’g’ri tashkil eta olmaydi, go’zallikni ham his qila olishmaydi. Madaniyatli bo’lish uchun inson o’z xalqining milliy-musiqiy merosini, madaniyati, qadriyatlarini e’zozlashi, sevishi kerak bo’ladi.

Musiqiy merosimiz va ijrochilik san’ati avloddan – avlodga og’zaki ravishda o’tib kelgan.[4] Ular Buxoro “Shashmaqom”lari, Xorazm maqomlari va Farg’ona – Toshkent maqom yo’llaridir.O’tgan asrning o’ttizinchi yillarida musiqa merosimizni o’rganish va fonogrammaga yozish, shuningdek notaga tushurish bo’yicha talay ishlar amalga oshirildi. Bunday muhim masala bilan yirik musiqashunos olimlar, kompozitorlar V. Uspenskiy, I. Akbarov, V. Belyaev, E. Romanovskaya, A. Kozlovskiy, Yu. Rajabiy, F. Karomatov kabi ustozlar bevosita shug’ullandilar. Milliy musiqiy meros namunalaridan foydalanish masalalari pedagog, san’atshunos olimlar - T.G’ofurbekov, A.Jumaev, O.Ibragimov, F.Karomatov, G.Azimova, A.Nazarov, A.Odilov, M.Toirov, M.Toshmuxamedov, F.Abdurahimovalar olib borgan tadqiqot ishlarida batafsil yoritilgan.

3. “O’zbek xalq musiqasi” - Toshkent sh - 1959 - yil. Yu. Rajabiy.

## Maqom ansambllari haqida.

«MAQOM» ANSAMBLI — maqomlarni ijro etishga ixtisoslashgan xonanda va sozandalar guruhi.[5] Ularning ijro dasturlaridan asosan maqomlar, shuningdek, o'zbek bastakorlarining kuy va ashulalari, xalq musiqasi namunalari o'rin oladi. 20-asrning boshlariga qadar «Maqom ansambllari» Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa yirik shaharlarda, xususan saroy sharoitida faoliyat ko'rsatgan. Keyinchalik «Maqom ansambllari» yangicha shart-sharoitlarda mumtoz milliy musiqa ijodiyotini keng targ'ib qilish maqsadida qayta tuzilgan. O'tmishda «Maqom ansambllari» tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg'u va ashula qismlari ijro etilgan. Bunda, jumladan, Shashmaqom Talqin, Nasr, Savt kabi sho''balarini aytishga ixtisoslashgan hofizlar talqinxon, nasrchi, savtxon deb yuritilgan. Ularga tanbur, doira yoki ixcham cholg'u ansambli jo'rlik qilgan.

Jumladan, 19-asrning oxirida Buxoroga mos «Maqom ansambllari» tarkibida, odatda, 2 ta tanbur, dutor, qo'biz (yoki sato), doira va 2—3 nafar jo'rovoz hofizlar bo'lgan[6]. 1920-yillarda tashkil topgan Sharq musiqa maktablarida, Samarqand musiqa va xoreografiya institutida maqom ijrochiligidan saboq berishda Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Matyoqub Xarratov kabi yirik maqomchi ustozlar xizmat qilganlar.

---

[5] .Maqom ansambllari haqida. - Ravshan Yunusov.
[6] .Maqom ansambllari haqida. - Ravshan Yunusov.

O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «Maqom» ansambli.

O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi «Maqom» ansambli O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi «Maqom» ansambli 1959- yilda akademik Yunus Rajabiy tashabbusi bilan tuzilgan. 1989- yildan Yunus Rajabiy nomida. Respublika radiosi huzurida 1927 - yilda tashkil topgan o’zbek xalq cholg’ulari ansambli (rahbar Yu. Rajabiy), shuningdek, Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim, To’ychi hofiz kabi atoqli hofizlarning boy ijodiy-ijrochilik an’analariga tayanib ish tutdi. Ansamblga tajribali xonanda va sozandalar jalb etilib, milliy cholg’ulardan tanbur, dutor, chang, rubob, g’ijjak, sato, nay, qo’shnay, doira va boshqa cholg’u sozlari kiritildi. Ansambl tomonidan, asosan, Buxoro va Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari mukammal o’rganilishi, hamda noyob ijro uslublari o’zlashtirilishida Fahriddin Sodiqov (1961—76 yillarda changchi va musiqa rahbari), Jo’raxon Sultonov, Ortiqxo’ja Imomxo’jaev, Akbar Haydarov, Kommuna Ismoilova, Berta Dovidova, Orif Alimahsumov, Orif Qosimov, Turg’un Alimatov, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar – Karim Mo’minov, Asqar Ubaydullaev, Borxi Zirkiev, Ishoq Kataev, Siroj Aminov, Shokirjon Ergashev, Xolisxon Qodirova,Hadiya Yusupova, 3. Sodiqov, I. Qodirov, shuningdek, Ilhom To’raev, Dadaxo’ja Sottixo’jaev, Umar Otaev va boshqalarning ulushi katta bo’ldi.

Ansambl jamoasi ijodiy jarayonda.

Bu jamoa ijrosida Shashmaqom, Farg'ona— Toshkent maqom yo'llari magnit tasmasi hamda grammofon plastinkalarga yozib olinib, bir necha bor ko'paytirilgan.[7] Yunus Rajabiy rahbarligida keng faoliyat ko'rsata boshlagan bu ijodiy jamoa katta va o'ziga xos maktab yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ansamblga badiiy rahbar sifatida ishlagan Yunus Rajabiy (1959—76 yillar), Orif Alimahsumov (1976—79 yillar), Shavkat Mirzaev (1979—81 yillar), G'anijon Toshmatov (1981—86 yillar), Abduhoshim Ismoilov (1989—96 va 1999 yildan), Isroiljon Vahobov(1996— 99-yillar)larning xizmatlari katta.

So'nggi davrdagi ansambl tarkibi ud va qonun cholg'ulari bilan kengaydi, maqomlarning ijro talqinlari yanada ko'paydi. «Maqom ansambli» ijrochiligining keyingi ravnaqida O'zbekiston xalq artistlari Orifxon Hotamov,Ochilxon Otaxonov, Eson Lutfullaev, Hasan Rajabiy, aka-uka Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar, Abduxoshim Ismoilov, Abdilahad Abdurashidov, Mahmudjon Tojiboev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Temir Maxmudov, Matluba Dadaboeva, Beknazar Do'stmurodov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdurahmon Xoltojiev, Nasiba Sattorova, Ahmadjon Dadaev, Malika Ziyoeva va boshqalarning munosib hissasi bor. Ansambl sozanda va xonandalari nufuzli musiqiy anjumanlar, shu jumladan, YuNESKO qoshidagi Xalqaro musiqa kengashining VII kongressi (Moskva, 1971- yil), Xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari (Samarqand, 1978, 1983, 1987-yillar), «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivallari (Samarqand, 1997, 1999, 2001-yillar) da muvaffaqiyatli ishtirok etgan;

O'zbekistonning turli joylar (madaniyat saroylari, o'quv yurtlari, viloyat televideniesi )da tashkil topgan professional va havaskorlik maqom ansambllari

[7]. Maqom ansambllari haqida. Ravshan Yunusov.

1970 - yillardan faoliyat ko’rsatmoqda (Xorazm, Andijon, Buxoro, Samarqand, Qo’qon va boshqa shaharlar). «Maqom ansambllari» ustozona maqom ijrochiligi an’analarini davom ettirgani holda boshqa mumtoz kuy va ashulalarni hozirgi zamon tinglovchilarining didi, talab va ehtiyojlariga moslab ijro etilishiga alohida ahamiyat beradi.

1972 - yilda Toshkent konservatoriyasi (hozirda O’zbekiston davlat konservatoriyasi) tarkibida Sharq musiqasi (hozirda An’anaviy ijrochilik) kafedrasi ochilishi bilan sozanda talabalar uchun «Maqom ansambli» nomli o’quv-amaliy fani joriy etildi. Konservatoriya talabalaridan iborat cholg’u «Maqom ansambli» ijrosida Buzruk maqomi cholg’u qismlari (1973 - yil, rahbar F. Sodiqov), shuningdek, Shashmaqomning barcha mushkilot yo’llari (rahbar dotsent A. Hamidov) ilk bor mukammal holda yozib olinib, 5 ta maxsus grammofon stereo plastinkalar (jami 11 dona) chiqarilgan (1987— 91yillar). Xorazm maqomlari to’liq holda 1990-yillarda Xorazm viloyat teleradiosi qoshida tuzilgan «Maqom ansambli» (badiiy rahbar R. Jumaniyozov) ijrosida magnit tasmasiga yozib olingan. Hozirda musiqa va san’at kollejlarida hamda ba’zi boshlang’ich musiqa va san’at maktab va litseylarida ham maqom yo’llari o’qitilmoqda. 1983- yildan muntazam o’tkaziladigan Maqom ijrochilarining respublika tanlovlarida «Maqom ansambllari» ham ishtirok etadi. 1991- yilda bu tanlovga Yunus Rajabiy nomi berilgan.[8]

[8] .Maqom ansambllari haqida. - Ravshan Yunusov. O’zbekiston davlat konservatoriyasi professori.

Toshkent davlat konservatoriyasida faoliyat olib borgan ustozlar va tahsil olgan ilk maqomchi talabalar. 1972 – yil.Pastki qatorda 3- Fayzulla Karomatov, 4-Tuyg'un Otaboyev, 5- Fahriddin Sodiqov.

O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli. Badiiy rahbar – Ozbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov.

## Shashmaqomning Nasr bo'limi.

1) Shashmaqom majmuasidagi maqomlarning ashula bo‘limi Nasr deb ataladi.[9] Nasr har bir maqomda mushkilot bo‘limidan keyin joylashgan bo‘lib, o‘z navbatida, sho'balarning 2 katta guruhidan tashkil topadi. Birinchi guruh Saraxbor, Talqin, Nasr (o'z taronalari bilan) hamda yakunlovchi Ufar qismining (Suporishi bilan), ikkinchisi esa, asosan, Savt va Mo‘g‘ulcha va sho'balarini o‘z ichiga qamrab oladi; 2) Shashmaqom majmuasidagi maqomlarning ashula bo‘limida 1-guruhni tashkil etuvchi sho'balardan biri Nasr - Saraxbor va Talqin shu'balaridan keyin kelib, so‘ngra Ufarga ulanadi. Shashmaqomda Nasr yo‘lida bastalangan jami 14 namuna mavjud. Ular Buzruk maqomida - Nasri Uzzol, Nasrulloyi, Rostda - Nasri Ushshoq, Navro‘zi Sabo, Navo maqomida -Nasri Bayot, Orazi Navo, Xusayniyi Navo, Dugoxda - Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Husayniyi Dugoh, Segoh maqomida -Nasri Segoh, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Ajam, Iroqda - Muxayyari Iroq deb nomlanadi. Nasr yo‘lida bastalangan asarlar Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom turkumlarida ham asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. O‘tmishda Nasr ashula yo‘llarini mufassal ijro etuvchi hofizlarni "nasrchi" deb yuritilgan.

Shashmaqom ashula bo‘limi sho'balari shaklan barkamol bo‘lib, ichki tuzilmalar tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin.[10] Masalan: har bir sho'ba yo‘li cholg‘u muqaddimasi bilan boshlanadi. Keyin daromad nomli bosh xat ijro etiladi va o‘rta pardalarda bayon etiluvchi miyonxat jumlalariga o‘tiladi. O'rniga qarab dunasr tuzilmasida yuqori pardalar zabt etiladi. So‘ngra sho'balarga xos avjda namudlar aytilib, ashula yo‘li miyonxat orqali yoki usiz ulanib ketadigan furovard (tushirim) tuzilmasi bilan yakunlanadi. Ba'zi sho'balar tuzilishi boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin.Shashmaqom ashula bo‘limining birinchi guruh sho'balari turkumli tarzda yaxlit ijro etilganida, Saraxbor bilan boshlanib, so‘ng uning taronalari (6 tagacha) o‘qiladi. Taronalarning oxirgisi talqin doira usulida aytiladigan suporish qismi vositasi bilan Talqin sho'basiga silliq ulanib boradi. Talqin taronasi ijro etilib, nasr doira usulidagi suporish orqali Nasr sho'basi va uning taronalariga o‘tiladi (Nasr sho'ba namunalari bitta maqomda 2—3 tagacha yetadi). Oxirgi Nasr sho'basi, odatda, taronasiz o‘qilib, bevosita Ufar ashula yo‘llariga qo‘shiladi va oxirgi suporish bilan turkum yakunlanadi.

Shashmaqom ashula bo‘limining ikkinchi guruhidagi sho'balar o‘zaro bog‘lanmagan tarzda mustaqil ashula yo‘llari hisoblanib, ularning har biri, asosan, 5 qismli turkumni tashkil etadi. Masalan: asosiy Savt yoki Mo‘g‘ulcha ashula yo‘lidan keyin unga ushbu kuy mavzuining yangicha vaznusulli (Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar) namunalari navbatma navbat ulanadi.

---

[9].Shashmaqomning Nasr bo'limi. - Ravshan Yunusov. O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori.

[10].Maqomlar masalasiga doir - Toshkent sh..1963-yil. Rajabov I.

Shashmaqom ashula yo‘llarida o‘zbek hamda fors mumtoz shoirlaridan Rudakiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Amiriy, Nodira, Zebunniso, Ogahiy va boshqa shoirlarning ishqiy-lirik, falsafiy, nasihatomuz, diniy mazmundagi g‘azallari, shuningdek, xalq to‘rtliklari jalb etilgan.

## DUGOH MAQOMI.

“DUGOH”. Forschada ikki joy, ikki parda, ikki payt ma’nolarini bildiradi. “Dugoh” maqomi cholg’u yo’llarining hammasi ham jozibali, ta’sirchan va dilkash kuylardir. Ular ifoda vositalariga boy, yuksak hissiy ta’sir kuchiga ega.Kuy mavzusi jihatidan ”Dugoh”ning cholg’u yo’llari bir-biriga juda ham mos bo’lib, turkum tarzida ijro etilganda ma’lum kuyning rivojlantirilgan ko’rinishlari sifatida yangraydi. ”Dugoh” maqomining ashula yo’llari ham mashxur bo’lib, ularning asosida juda ko’p ashula yo’llari yaratilgan.Ayniqsa, Toshkent – Farg’ona yo’llarida “Husayniy Dugoh” asosida yuzaga kelgan “Dugoh Husayni, “Chorgoh” sho’’balari asosida yaratilgan “Chorgoh” turkumli ashula yo’llari xalq orasida mashxur bo’lib kelgan.

Toshkent – Farg’ona mahalliy uslubida mashxur bo’lgan “Chorgoh” turkumi haqida ham shuni aytish mumkin. “Chorgoh” va “Dugoh Husayni yo’llari o’tgan asrning atoqli hofizlari Madumar hofiz, Abduqahhor hofiz, Mulla To’ychi hofiz va Shorahim Shoumarovlar repertuaridan keng o’rin olgan edi.” Chorgoh yo’llari asosida ko’plab cholg’u yo’llari,patnisaki ashulalar, surnay yo’llari yaratilgan bo’lib, ular milliy musiqa merosimizning boyitilishida juda katta qiymatga ega. Cholg’u bo’limidagi kuylar ijro etilgandan so’ng, “Dugoh” maqomining sho’balari boshlanadi.Uning ashula bo’limi birinchi gurux sho’’balari taronalari bilan yaxlit holda, turkum tarzida ijro etiladi.

“Saraxbori Dugoh” maqom sho’balarining asosiy mazmunini aks ettiradi. “Saraxbori Dugoh”ni tinglaganda, u Toshkent va Farg’onada mashhur bo’lgan Chorgoh yo’liga juda yaqin ekanligini sezish mumkin.“Dugoh” maqomining ikkinchi gurux sho’balaridan biri “Mo’g’ulchai Dugoh”dir.Bu ashula yo’li mashhur maqomdon hofiz Domla Halim Ibodov ijrosida juda ham maroqli yangrar edi. “Mo’g’ulchai Dugoh” ulug’vor ashula bo’lib, “Saraxbori Dugoh” ashulasiga asoslangan.Uning kuy bo’laklari, avj qismlari ham”Saraxbori Dugoh”dagi kabidir.”Mo’g’ulchai Dugoh” yoqimli va vazmin ashula yo’llaridandir.U juda ko’p xonandalar repertuaridan o’rin olgan va shinavandalarga juda ham manzur bo’lib kelgan.Ustoz san’atkor , bastakor Saidjon Kalonov “Mo’g’ulchai Dugoh” asosida “Bu Nasimiy”, “Topmadim” ashula yo’llarini, Yunus Rajabiy “Yor keldi” ashulasini bastalagan.[11]

[11].“Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

Mir Alisher Navoiyning bir qancha g'azallari "Shashmaqom" ning "Nasr", ya'ni Ashula bo`limiga kiritilgan. Bunga bir necha misol keltirish mumkin. "Buzruk" maqomida "Talqini Uzzol", "Nasrulloyi", "Nasri Uzzol", "Navro`zi Sabo", "Dugoh" maqomidan "Saraxbori Dugoh", "Rost" maqomidan "Soqinomayi bayot" va yana bir qancha ashula va taronalarda Navoiy g'azallaridan foydalanilgan.O`tgan asrda buyuk bobokolonimizning yuzlab g'azallari kompozitorlar, bastakorlar va xonandalar tomonidan ham ashula qilib yaratildi. "Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro` kelmadi", ya'ni "Munojot", "Qaro ko`zim, kelib mardumlig' emdi fan qilg'il", ya'ni "Ushshoq", "Ey sabo", "Guluzorim", "Ko`cha bog'i - 2", "Ko`rgali husningni zoru mubtalo bo`ldim senga", "Aylagach" kabi ashulalar ana shular jumlasidan.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek mumtoz adabiyoti asoschisi, ayni paytda o'zbek mumtoz ashulachilik san'ati tamal toshini qo'ygan buyuk san'atkordir.[12] Uning g'azal va mustazodlariga bastalangan ashulalar shoir tirikligidayoq tinglovchilarni junbushga keltirgani Navoiy asarlarida ham qayd etilgan. Zaynobiddin Mahmud Vosifiyning "Badoe'ul – vaqoe' (Ajoyib voqealar) kitobida, Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo''jiziyning "Tarovixi musiqiyun" asarlarida Alisher Navoiy asarlari bilan aytiladigan ashulalar dovrug'i xususida ko'p jozibali ma'lumotlar saqlangan.

[12].Ozbekiston Milliy Entsiklopediyasi.

## Saraxbori Dugoh.

A. Navoiy g'azali.

Holu xating[13] xayolidin ey sarvi gul uzor[14].
Gahi ko'zimga hol tushibdur gahi g'ubor[15].

Yuzingda hol sabhada[16] tomg'on kibi qaro,
Holing malohati tuz[17] erurkim, qaroda bor.

Jonimni o'rtagan yuzu holingni bilmasang,
O't shu'lasida ayla gumon bir o'chuq sharor[18].

Bilmon ko'ngulda hollaringning xayolidur,
Yo kipriging tikonlarin aylabsen ustuvor.

Har dam ko'ngul xaloku ko'zim tiyra[19] bo'lmog'in,
Bilgay birovki yori erur sho'xi xoldor.

Mashshotai[20] qazo bezamish, holu xattini,
Beixtiyorliqda manga bormu ixtiyor.

Miskin[21] Navoiy holu labing ko'rsa jon berur,
Boqsang ne bo'ldi surati xoliga ey nigor.

---

[13].Holu xating - Ustki labdagi mayin tuklar.
[14] Gul uzor - Gul yuzli, gul chexrali.
[15].G'ubor - Chang, g'ubor.
[16].Sabha - Tong paytidagi ichkilik.
[17].Tuz - Bu erda : to'g'ri, tik.
[18].Sharor - Alanga, yolqin, uchqun.
[19]. Tiyra - Qorong'u, qora.
[20].Mashshota - Qiz, juvon, kelinlarni bezatuvchi pardozchi ayol.
[21].Miskin - Faqir, bechora, notovon.

## Tarona I

Ko'zlaring  firoqida  tanda  lolagun qonlar.

Qilg'ali tomoshosin saf chekibdi mujgonlar[22].

Ey g'aniy[23] karam aylab, husningni zakotidin[24],

Faqr aro gadolarg'a  aylagaysen ehsonlar.

Sabre on chunon etdim,bo'lmadi murod  hosil,

Tishladim adab[25] toshin, toki sindi dandonlar[26].

Bul sharobai otash[27] sahl[28] tutma, ey mahbub,

To chiqardi ohimni ko'nglum  ichra so'zonlar[29].

## Tarona II

Xuvaydo  g'azali.

Rahm aylasangchi devonalarg'a.

Ishqingda bo'lg'on afsonalarg'a.

Aylab judolik ey hamnishinim[30]

Qilding jafolar hamxonalarg'a.

Kuydurma jonim rashk o'ti birla

Ochib yuzingni begonalarga.

---

[22].Mujgonlar - Birligi mija, kipriklar.
[23] G'aniy - Boy, badavlat,extiyojsiz, hech narsadan kamchiligi yo'q.
[24] . Zakot - Majozan: ozgina chiroy, yuz korsatish.
[25]. Adab - Odob.
[26]. Dandon - Tish, og'izdagi tish.
[27]. Otash - Olov, o't.
[28]. Sahl - Oson, engil.
[29]. So'zonlar - Yonauotgan, kuyayotgan.
[30]. Hamnishin - Ulfat, suhbatdosh.

Har dam tilarman husni kamoling,

Urub boshimni ostonalarg'a.

Yondur quyoshim, xilvat[31] ichinda,

Sham'i jamoling[32] parvonalarg'a.[33]

Ishqingni ganji[34] vayron ko'ngulda,

Qo'ysang turarmu koshonalarg'a .

**Tarona III**

Navoiy g'azali.

Yana bo'lmisham oshiqi zor ham.

Xaroboti-yu[35] rindu[36] xammor ham[37].

Pari chehra atfolning[38] toshidin,

Bo'lub car-basar[39] jismim afgor[40] ham.

Yorim yor yalla lo yallo yal yal do'st.

Jonim yor yalla lo yalli yal yal do'st.

---

[31]. Hilvat - Odamlardan holi joy.
[32].Jamol - Husn, yuz go'zalligi
[33] Parvona - Sham yorug'iga keladigan hashorat.
[34].Ganj - Hazina, oltin hazinasi.
[35]. Harobot - 1.Vayrona joy,2.mayxona
[36]. Rind - Aysh ishratdan o'zini tiymaydigan.
[37]. Xammor - May tayyorlovchi, mayfurush.
[38]. Atfol - Bolalar, yoshlar, o'smirlar.
[39].Sarbasar - Boshma bosh, boshdan oyoq.
[40].Afgor - Majruh, jarohatli,ezilgan.

**Tarona IV**

Xalq so'zi

Yoniga boray g'amdan qutulay.
Chunki, bu dilim faryodi talay.

Vaslingni mayi nozu sitami,
Qalbimda yora ochgay alami.

**Tarona V** Hislat g'azali.

Hajringda[41], ey yor korim[42] fig'ondur.
Tinmay ko'zumdin ashkim[43] ravondur[44].

Ayla tarahhum[45] menga nigorim,
Ahvoli zorim senga ayondur.

Ul lola yanglig' bag'rimda qat-qat,
Boz ustina boz dog'lar nihondur.

Sen-san habibim[46], hoziq tabibim[47],
Dardimg'a beshak[48], bul begumondur.

Guldek yuzingni, ishqida Hislat
Bulbulga o'xshash kori fig'ondur.

---

[41].Hajr - Ayriliq, judolik.
[42].Kor - Ish, mashg'ulot.
[43].Ashk - Ko'z yoshi.
[44]. Ravon - Tez, darhol.
[45].Tarahhum - Rahm qilish, shafqat qilish.
[46].Habib - Do'st, o'rtoq, sevgili.
[47].Hoziq tabib - Eng mohir tabib.
[48].Beshak - Shak – shubhasiz.

**Tarona VI**

Bobir g’azali.

Holimni senga aytib hajr o’tig’a o’rtandim.
Ey yor yomon qildim har neki dedim yondim.

Ey, ko’zlari mastona, mastona, mastona.
Ishqingda men devona, devona, devona.

Sham’i ishq kuydurdi, kuydurdi, kuydurdi.
Misoli parvona , parvona, parvona.

# MO’G’ULCHAI DUGOH.

**MO’G’ULChA**[49] Shashmaqomdagi har bir maqomning ashula bo’limida 2-guruhni tashkil etuvchi asosiy sho’balardan biri. Ular savt sho’’balari kabi 5 chorak takt o’lchovidagi doira usulida ijro etiladi: Mo’g’ulchalar jami 4 ta bo’lib, Buzruk maqomida — Mo’g’ulchai Buzruk, Navo maqomida Mo’g’ulchai Navo, Dugoh maqomida — Mo’g’ulchai Dugoh, Segoh maqomida — Mo’g’ulchai Segoh deb ataladi. Mo’g’ulchalar, asosan, Shashmaqomdagi 1-guruh sho’’balarining bosh mavzui — Saraxborlarga hamohang bo’lib, ularning Mo’g’ulcha doira usuliga tushirilgan variantlaridir.

Mo’g’ulcha sho’’basi Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufordan iborat o’z shoxobchalariga ega. Ular bir-biridan, asosan, usul va sur’ati bilan farklanadi, hamda Mo’g’ulcha sho’’balari nomi bilan qo’shib ataladi (masalan: Talqinchai Mo’g’ulchai Buzruk, Qashqarchai Mo’g’ulchai Navo, Soqiynomai Mo’g’ulchai Dugoh va h. k.). Mo’g’ulchalarning Qashqarcha, Soqiynoma va Ufor qismlari raqs bilan ham ijro etilishi mumkin. Mo’g’ulchai Dugoh va uning turkumlanish xususiyatlaridan kompozitor Mirsodiq Tojiev o’zining 9 - simfoniyasi (1979 - yil) da unumli foydalangan.

## MO’G’ULChAI DUGOH

Navoiy g’azali. Berta Davidova ijrosi.

Yordin hijron[50] chekar ushshoqi[51] zor, ey do’stlar.

Necha tortay hajr chun yo’q menda yor, ey do’stlar.

Yor ishqin asrag’il pinhon[52] debon sa’y etmangiz,

Vah, ne nav’ etgum yo’q ishqni oshkor, ey do’stlar.

Ishq birla gar birov lofi vafoyu mehr urar,

Ishvagarlar[53] ahdiga yo’q e’tibor, ey do’stlar.

---

[49].O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.
[50]. Hijron - Ayriliq, judolik.
[51].Ushshoq - Oshiqlar.
[52].Pinhon - Yashirin.

Aylamang  bekasligimn i[54] ta’n  bir kun bor edi,
Menda ham bir nozanin chobuksuvor[55], ey do’stlar.

Yorsiz  vayronda qon yig’larman, oxir siz qiling,
Yor birla  gashti  bog’u  lolazor, ey do’stlar.

Do’stlug’ aylab tuting  gah-gah labo-lab  jomkim[56],
Qasdi jom qilmish manga dardi xumor, ey do’stlar.

May ichingkim, dahr[57] eli ichra, ko’p  istab  topmaduk,
Ahdu paymonida[58]  bo’lg’on ustivor, ey do’stlar.

Yoringiz  vaslin  g’animat  aylabon shukr aylangiz,
Kim Navoiy bo’ldi bekaslikda zor, ey do’stlar.

---

[53].Ishvagar -Ishva qiluvchi,noz-karashmaqiluvchi.
[54].Bekaslik - Kimsasizlik, yolg’izlik.
[55].Chobuksuvor - Usta suvoriy, mohir otliq.
[56].Jom - Qadah,
[57].Dahr - Dunyo, olam.
[58].Ahdu paymon - Ahd, va’da, shartnoma.

**Mo'g'ulchai Dugoh Talqinchasi.** **Uvaysiy g'azali**

Qildim duoyu har sahare iltijo[59] senga.
Ohu fig'onu nola bila yuz navo senga.

Nedi muyassar o'lmadi barqi nufuzkim,[60]
Bir ohu zorim o'lmadi hech mustajo[61] senga.

Zohir[62] durur menga senga maqbul emaslig'im,
Begonalig'da garchi durur oshno senga.

Avji sipehri[63] ustida go'yoki mohi badr,[64]
Kim, nola ichra tobishi[65] mehri vafo senga.

Bu mojaroki[66] qaydin o'lubdur menga nasib,
Ro'zi azalki ruhim o'lub oshno senga.

Bilmamki dard avvali, bu ranj[67] oxiri
Ishq o'ldi ibtidou[68] yana intiho[69] senga

Vaysiy mudom ohu fig'on aylayub deyur,
Qildim duoyu har sahare iltijo senga.

---

[59].Iltijo - Yalinish, yolvorish, sig'inish.
[60].Nufuz - Asar qilish, o'tish, ta'sir, kirish.
[61].Mustajo - Talabi qabul etilgan, qabul bolgan.
[62]. Zohir - Tashqi ko'rinish.
[63].Sipehr - Osmon, osmon gumbazi, falak.
[64]. Badr - O'n to'rt kunlik to'lishgan oy, to'lin oy.
[65].Tobish - Toblanish, qizdirish.
[66].Mojaro - Ikki o'rtada voqe' bo'lgan janjal.
[67].Ranj - Mashaqqat, qiynalish,Og'riq, kasallik.
[68]. Ibtido - Boshlanish,avvali.
[69].Intiho - Nihoya, oxir, chek - chegara.

**Mo'g'ulchai Dugoh Qashqarchasi .**

Fuzuliy g'azali. F. Mamadaliev ijrosi.

Go'rdim ul hurshid[70] husnin, ixtiyorim qolmadi,
Soyadek bir erda durmog'a qarorim qolmadi.

Bir gun o'lmaz tal'ating[71] ko'rmak muyassar, ohkim,
Zarracha ul gun yoninda e'tiborim qolmadi.

Pok qildi xotirimdin dahr[72] g'am oinasin,
O'yla mahv[73] o'ldumki, bir zarra g'uborim[74] qolmadi.

G'am kuni hamdamlarim g'arq o'ldilar ko'z yoshima,
Bilmaka ko'z yoshini bir g'amguzorim[75] qolmadi.

Ro'zg'orim xush kechirdi, ohkim, davron do'nub,
O'ldi ahvolim xarob ul ro'zg'orim qolmadi.

Rohi[76] ishq ichra banga onjaq,[77] fano[78] maqsud edi,
Shukrkim, maqsuda etdim, intizorim qolmadi.

Ey Fuzuliy, el qamu ag'yorim o'ldi yor uchun,
So'zi dildan g'ayri[79] bir dil so'z yorim qolmadi.

---

[70].Xurshid - Quyosh, oftob, kun.
[71].Tal'at - Yuz, cheshra.
[72]. Dahr - Dunyo, olam.
[73].Mahv - 1.Hayratda qolib o'zidan ketish.2.Yo'qolmoq.
[74] G'ubor - Gard, chang, to'zon, g'ashlik.
[75].G'amgusor - Mehribon,g'amni yozuvchi.
[76].Rohi - Yo'li, yo'lga tushgan.
[77].Onjaq - Vaqt, payt, lahza,dam.
[78].Fano - O'tkinchilik, yo'q bo'lish, baqosizlik.

**Mo'g'ulchai Dugoh Soqinomasi .**

Nodira g'azali.

Sh. Ergashev ijrosi.

Kel, dahrni[80] imtixon etib ket.
Sayri chamani jahon etib ket.
Bedardlarning jafolaridin,
Faryod chekib fig'on etib ket.

Dunyo chamanini bulbuli sen,
Gul shohida oshiyon etib ket.
Ey ashk, ko'zimni maktabidin,
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Ushshoq maqomi bo'stondur,
Azmi rahi bo'ston etib ket.
Maqsad na ed i jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa[81] ishq sirrin,
Ko'ngulda ani nihon[82] etib ket.
Kel ishq yo'lida ko'zlaringni
Ey Nodira, durfishon[83] etib ket.

---

[79].G'ayr - 1.O'zga, boshqa.2.Begona, yot.
[80].Dahr - Dunyo, olam.
[81]. Ulus - Xalq, el,yurt.
[82]. Niho - Yashirin, bekitilgan.
[83]. Durfishon - Dur sochishlik, javohir sochishlik

**Mo'g'ulchai Dugoh Uforisi.**

Furqat g'azali.

Yuzi zulfing furqatidin[84], ey diloromim mening.
Yig'lamaklig' birla kechgay subh ila shomim mening.

Yo'q erur osoyishim, holing g'amidin kechalar,
Naylayin talx[85] o'lsa bu taryokdin[86] komim[87] mening?

Xoki[88] poyini[89] fidosi jon o'shal qosidnikim[90],
Etkurur bo'lsa janobingg'a bu payg'omim[91] mening.

Zaiflik jismim ramaqda jon[92], o'lar holatdamen,
Tobakay[93] hajringda kechsun bo'yla ayyomim mening.

Aylading azmi safar, qoldim agarchi telmurub,
Sen bila ketdi barobar sabru oromim mening.

El gumon aylarki: no'shim[94] bodai[95] gulrang erur,
Yo'qlading yodida to'lmish qon ila jomim mening.

Nega bulbuldek fig'onu qumridek chekmay navo,
Sendin ayruv Furqat, ey sarvi gulandomim[96] mening.

---

[84]. Furqat - Ayriliq.
[85].Talx - Achchiq, taxir.
[86]. Taryok - Zahar ta'sirini ketkizuvchi dori.
[87]. Kom - Jag', og'iz.
[88].Xok - Tuproq, er.
[89].Poy - Oyoq osti.
[90].Qosid -Elchi, xabar keltiruvchi.
[91]. Payg'om -Xabar, darak.
[92]. Ramaqdajon - Jon chiqar payti, so'nggi nafas.
[93]. Tobakay - Qachongacha.
[94]. No'sh - 1. Ichgin.2.Chuchuk, hush ta'm.
[95].Boda - May, sharob.

**Dugoh Qalandari.**

Atoyi g'azali.

Bo'yung nahli[97], ki rashk eltur base sarvi ravon[98] andin,
Darig'[99] etmas mening ko'nglum tanu jonu ravon andin.

Chamanda ko'zlarim baski, yuzing shavqida qon yig'lar,
Bo'lur har subhidam[100] rangin[101] gulu ham arg'uvon[102] andin
.
Eshikta to'kma qonimni yiroq sol, itlaring ichsun,
Ki, nogoh[103] bo'lmasun oluda[104] pok ul oston andin.

Vafo qilmasmusan g'amgin ko'ngulda lutf[105] etib gah-gah,
Ne bo'lg'ay va'dae qilsangki, bo'lg'ay shodmon andin?

Sabo yuz ahli dil ko'ngli o'shal zulf ichra bog'liqtur,
Necha gustohlik[106] birla o'tarsen har zamon andin?

O'tarda ko'z uchidin bir Atoyi birla savdo qil,
Chun, ey husn elining mohi, sanga yo'qtur ziyon andin.

---

[96].Gulandom - Gul yuzli, jussasi gulday.
[97].Nahl - Nihol, daraxt.
[98].Sarviravon - Go'zal yurishli.
[99].Darig' - Afsus, attang.
[100]Subhidam - Tong chog'i.
[101].Rangin - Tovlanib turadigan, go'zal.
[102].Arg'uvon - Bahorda ochiladigan qizil gulli daraxt.
[103].Nogoh - To'satdan.
[104].Oluda - Belangan, bulg'angan.
[105]. Lutf - 1. Muloyimlik,2. Yaxshi muomala.
[106].Gustohlik - Ibosizlik,hayosizlik, andishasiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning g'azallari milliy musiqa durdonalarini bezab turgan javohirotdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 - yilda Andijonda tug'ilgan.[107] Otasi Umarshayx Mirzoning bevaqt fojiali o'limidan so'ng, 12 yoshida taxtga o'tirib, mamlakatni boshqargan.Yirik markazlashgan davlat tuzish orzusida Bobur o'z yurtini tark etib, Hindiston mamlakatini egallaydi.Vatan sog'inchi uni doimo yodida ekanligi shoirning g'azal va ruboyilarida ba rq urib turadi.

Shahanshoh(imperator) Bobur tuzgan davlat boburiylar sulolasi hukmronligida 332 yil yashagan.Bobur tarixiy adabiy(esdaliklar), tilshunoslik, jug'rofiy, hayvonot va nabotatga oid qomusiy "Boburnoma" asarining muallifi. Boburning g'azallari "Shashmaqom"ning "Buzruk" maqomi Ashula bo`limidagi bir qancha taronalarga kiritilgan. "Dugoh Samandari", "Saraxbori Oromijon" "Oromijon", "Sochining savdosi tushdi", ayniqsa "Soqinomai Savti kalon" ashulasi bugunki kunda xalq orasida keng ommalashgan. Xususan mazkur ashula umumtalim maktablari oquvchilarining musiqa madaniyati darsligiga kiritilgan.

[107].O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.

**Dugoh Samandari.**

Bobur g'azali.

Takalluf[108] har necha suratda[109] bo'lsa andin ortuqsen,
Seni jon derlar ammo, betakalluf [110] jondin ortuqsen.

Parining[111] husn ichra garchi oti benihoyatdur,
Meni devona qoshinda va lekin andin ortuqsen.

Pari bu husn birla ko'rsa yuzingni bo'lur telba,
Seni ta'rif etar, lekin sifat qilgandin ortuqsen.

Qadam ranjida qil, ko'nglum uchun, ey yorning o'qi,
Mening bu notavon ko'nglumg'a chun darmondin ortuqsen.

Iqomat[112] chun, ki qilding, Boburo ul hur ko'yida,[113]
Maqoming ravzadin[114] avlo[115], o'zing Rizvondin[116] ortuqsen.

---

[108].Takalluf - Biron ishni zo'rma zo'raki bajarish.
[109].Surat - Tashqi ko'rinish, zohir.
[110]Betakalluf - Takallufsiz,ortiqcha maqtamay.
[111].Pari - Go'zal, sevgili, chiroyli.
[112].Iqomat - Istiqomat so'zining qisqartirilgan shakli, yashash.
[113].Ko'y - Ko'cha, yo'l, qishloq, ko'chama-ko'cha.
[114]. Ravza - 1.Bog', sabzavor, gulshan.2.Maqbara, qadamjoy.
[115].Avlo - Yaxshiroq, afzalroq, ustunroq.
[116].Rizvon - 1.Majozan: jannat. 2. Jannat bog'i.

**Saraxbori Oromijon.**

Bobur g'azali.

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror[117] topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilafgor[118] ko'rmadim,
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor[119] topmadim.

Usruk[120] ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi mubtalo,[121]
Hargiz bu telbani yana xushyor topmadim.

Bori boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Bobur o'zungni o'rgata ko'r, yorsizki, men
Istab jahonni, muncha qilib, yor topmadim.

---

[117].Mahrami asror - Sirdosh, ulfat, hamdam.
[118].Dilafgor - Qalbi majruh,Bag'ri ezilgan.
[119].Giriftor - Mubtalo,band, asir qilmoq, maftun qilmoq.
[120].Usruk - Mast. Majozan: xumor, suzuk ko'z.
[121].Mubtalo - Giriftor bo'lgan.

**Oromijon.**

Bobur g'azali.

Xazon[122] yaprog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'aydim,
Ko'rib rahm aylag'il, ey lola ruh, bu chehrai zardim[123].

Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni[124] sarvdek[125] hargiz,
Ayog'ingga tushib bargi xazondek muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu hurram[126] qol,
Men archi dahr bog'idin xazon yaprog'idek bordim.

Xazondek qon yoshim sorig' yuzimdin el tanaffurda[127],
Bahor rangi, bahamdilloh ulusdin[128] o'zni qutqordim.

Ne tole'dur menga kim axtari[129] baxtim topilmaydur,
Falak avroqini[130] har necha kim daftardin axtardim.

Ulusning[131] ta'nu[132] ta'rifi menga, Bobur, barobardur
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

---

[122].Xazon - Kuz, kuz fasli.
[123].Zard - Sariq, zaxil.
[124].Sarkash - Bosh tortuvchi,o'jar, qaysar.
[125].Sarv - majozan: ma'shuqa qadda-basti.
[126].Hurram - Shod, xursand, quvonchli.
[127].Tanoffur - Nafratlanish, jirkanish.
[128]. Ulus - Xalq, el, yurt.
[129]. Axtar - Yulduz, osmon, sayyora.
[130].Avroq - Varaqlar, sahifalar.
[131]. Ulus - Xalq, el, yurt.
[132].Ta'na - Yuzga solish, hijolat qilish.

**Oromijon Ufori.**

Furqat g'azali.

Ikki oshubi[133] chamankim, gul biri, ra'no biri.
Qildi ishqida meni majnun biri, shaydo biri.

Sho'rangez[134] o'lsa ul yondin birining ishvasi,
Ham bu yondin g'amzasin[135] oshub etar barpo biri.

Ko'zlari qo'ymay ko'ngul mulki[136] aro obodlik,
Birisi g'orat[137] qilib kelsa, qilar yag'mo[138] biri.

Yo'qturur bir xub ro'[139] olamda illo bu ikkov,
Biri husn ichra erur mumtozu, mustasno biri.

Yotmish erdi ikkisi ikki tizimga bosh qo'yib,
Xobi noz[140] ichra biri-yu o'zda yo'q aslo biri.

Furqati afsuskim, nogoh turib hurshedu[141] moh,[142]
Tutdi o'z burjin birisi, ko'y[143] biri, ma'vo[144] biri.

---

[133].Oshub - G'avg'o,tashvish,to'polon,qo'rquv,hayajon.
[134].Sho'rangez - 1.Parishon bo'luvchi,2.fitna o'yg'otuvchi.
[135].G'amza - Ishva,noz, ko'z harakati bilan nozlanmoq.
[136].Mulk - Mamlakat, o'lka, yurt.
[137].G'orat - Tolon – toroj.
[138].Yag'mo - Zabt, buzg'unlik, g'avg'o, to'polon.
[139].Xubro' - Go'zal yuzli, suluv cheshrali.
[140].Xobi noz - Noz uyquda.
[141]. Hurshed - Quyosh.
[142].Moh - Oy, to'lin oy.
[143]. Ko'y - Joy, manzil, turar joy, makon.
[144].Ma'vo - Turar joy, makon, qo'nalg'a.

# N A V O  M A Q O M I.

“NAVO”. Forschada kuy, ohang ma’nolarini bildiradi.[145] Badiiy adabiyotda bulbulning sayrashini maqtab, shoirlar bulbulning navosi, nola chekishi deydilar.“NAVO” maqomining tarixi ham uzoq o’tmish zamonlarga borib taqaladi.Qadimiy musiqa risolalarida “Navo” maqomi ”Nag’mai Dovudiy”, ya’ni “Dovud payg’ambar kuyi”, deb ham ataladi. Dovud payg’ambar diniy rivoyatlarda musiqa ramzi sifatida ham qaraladi. O’zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy ham o’z taxallusini shu so’zdan olgan va “navo chekuvchi”, “kuylovchi” ma’nolarida qo’llagan.

“Navo” maqomi ham cholg’u va ashula bo’limlaridan iborat. “Navo” maqomi cholg’u qismlarining kuy va ohanglari bir-biridan farq qiladi. Ular turli doira usullarida ijro etilsada, turkum tarzida chalinganda, bir-birini bevosita davomidek tuyuladi. “Navo” maqomining cholg’u yo’llari ohanglarga boy, tinglovchida nozik his – tuyg’ular uyg’otadigan ta’sirli kuylardan iborat. “Navo” maqomi yo’llari o’zbek va tojik xalqlarining uzoq o’tmish zamonlardan boshlab to’plab kelgan boy ichki ma’naviy dunyosini haqqoniy ravishda aks ettiradigan musiqa durdonalaridandir. “Navo” maqomidagi sho’balar ohanglari jihatidan juda boy bo’lgan “Saraxbori Navo”, “Bayot”, “Oraz” va “Husayniy” mavzusidagi ashulalardan iborat. Bu ashula yo’llari asosida juda ko’p turkumli sho’balar hamda xalq kuy va ashulalari yaratilgan.Bu sho’balar “Navo” maqomining ikkinchi gurux sho’’balari jumlasiga kiritilgan. “Navo” maqomining ashula va cholg’u yo’llari sharq xalqlari musiqa merosidan keng o’rin olgan.

[145].“Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

## SARAXBORI NAVO.

Sakkokiy g'azali.

Sentek jahonda ko'zlari ayni balo qani?
Mentek aning balosi bila mubtalo qani?

Erning aqiqi[146] garchi jahonda yagonadur,
Chehram mengizli[147] ham yana bir qahrabo[148] qani?

Ko'zni g'ubor[149] tutti firoqingda yig'layu,
Erning tuzindin o'zga anga to'tiyo qani?

La'ling[150] sharobi bo'ldu ko'ngul dardina davo
Bul dard jong'a etti, vale ul davo qani?

Yuzimni oltun etti sening ishqing, ey sanam,
Mundog' baqirni oltun etar kimiyo[151] qani?

Husning zakoti[152] bergali bir qulni izlasang
Sakkokitek bu dunyoda bir benavo qani?

---

[146].Aqiq - Alvon rangli qimmatbaho tosh.
[147].Mengizli - 1.O'xshash, singari.2.Yuz, bet, chehra, yanoq.
[148]. Qahrabo - Sap-sariq tosh, yantar.
[149]. F'ubor - Chang.
[150].La'l - Qizil yarqiroq qimmatbaho tosh.
[151].Kimyo - Mis,qalay kabi ma'danni oltinga aylantirish.
[152].Husning zakoti - Majozan: ozgina chiroy,yuz ko'rsatish.

## Tarona I

Ey bodi sabo, go'zal yorima etkur salomimni.

Ul sho'xi jafokor yorni deb, chekkan fig'onimni.

Kel yori vafodor, gul yuzingga sen zor etma.

Ey, voy dodu faryodim fig'on yor jafosidan.

Ey soqiy[153] keltur, bir piyola may.

Chal mutrib[154] navo, udu, changu, nay.

Yor visoliga jon fido qilay.

Yor umrim bo'yi hayronang bo'lay.

O'rtandi dilim ishq o'tida yor.

Yor yor yor bo'ldim intizor.

Rahm qil ey yor, yor yor yor oromijon yor.

Tunlari bedor, yor yor yor sarviravon yor.

Ko'zlari xumor, yor yor yor shirin zabon yor.

Lutf etib yoray, yor yor yor kel noz etma yor.

## Tarona II

Keldilar karam[155] aylab, kulbam ichra jononlar.

Har birisi jonimdan, ham aziz mehmonlar.

Tiyra[156] shomi hijronim ravshan etdilar kundek,

Yuzlarin ochib har yon necha mohi tobonlar.

---

[153].Soqiy - May quyuvchi, kosagul.
[154].Mutrib -Sozanda, cholg'uchi, hofiz.
[155].Karam - Yaxshilik,oliyjanoblik.
[156].Tiyra - Qorong'u, qora.

O’lturub qurib xalqa[157] ichgali mayi ishrat,[158]

Berdilar qadahlarga majlis ichra davronlar.

No’sh[159] etib necha sog’ar[160] har biri bo’lib sarxush[161],

Boda[162] tobidin[163] ochti yuzlari gulistonlar.

## BAYOT TALQINI.

**BAYOT[164] — 1)** O’n ikki maqom tizimidagi muayyan sho’balar nomi (masalan: Navro’zi Bayot, Bayoti Ajam);

2) Shashmaqomda Navo, Xorazm maqomlarida Navo va Dugoh maqomlari tarkibidagi sho’balar. Asosiy pardalar tovush qatori re ioniy – fa ioniyga to’g’ri keladi. Shashmaqomning Navo maqomi tarkibida Talqini Bayot (taronasi bilan), Nasri Bayot (taronalari bilan) va Ufori Bayot sho’balaridan tashqari cholg’u qismlardan Muxammasi Bayot mavjud. Bayot kuyi asosida yaratilgan namud esa bir necha ko’rinishlarga ega bo’lib, Navo maqomi tarkibidagi sho’balarning avjlarida keng qo’llaniladi;

3) Toshkent-Farg’ona maqom yo’llarida besh qismli yirik ashula turkumi. Ularning parda tuzilishi Shashmaqomdagi Bayot sho’balarining aynan o’zidir. Bayot qismlari bir-biridan, asosan usul jihatdan farqlanadi va mustaqil nomlarga ega emas. Bayot - Saraxbor, Bayot - Tarona, Bayot - Savt, Bayot - Talqincha, Bayot - Soqiynoma (yoki Qashqarcha) usullarida ijro etiladi. Ular sho’ba shaklida tuzilgan bo’lib, avjlarida Navo va Bayot namudlaridan unumli foydalanilgan. Bayotning o’ziga xos yo’li hisoblangan Hofiz Sheroziy g’azali bilan aytiladigan Bayoti Sheroziy ham besh qismdan iborat turkumli asardir. Bastakorlar Bayot asosida ko’plab kuy, qo’shiq va ashulalar yaratgan (O’yin Bayoti, Dutor Bayoti, Chapandozi Bayot va b.).Yu. Rajabiy («Layli va Majnun», «Muqanna» musiqali dramalari), V. Uspenskiy, G. Mushel («Farhod va Shirin» musiqali dramasi), M. Ashrafiy («Dilorom» operasi) va boshqalar ijodida Bayot yo’llaridan foydalangan.

---

[157]. Halqa - Dumaloq taqinchoq.
[158].Ishrat - Aysh-ishrat, kayf-safo.
[159].No’sh - Ichkilik ichib.
[160].Sog’ar - May, qadah.
[161]. Sarxush - Mast, kayfli.
[162]. Boda - May, sharob.
[163].Tob - To’lg’anish, isitmoq, qizitmoq.
[164] O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – Toshkent. 2000 – yil, 1 – jild.

## Bayot talqini.

Navoiy g'azali.

Otashin[165] gul bargidin xil'atki[166], jononimdadur.
Xil'at ermas ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.

Otashin la'lidururkim, anga muzmar[167] bo'ldi jon,
Otashin gul bargidin xil'atki, jononimdadur.

Jon qushi xunobidin[168] tutmish malohat naxli[169] rang,
Yo libosi lolagun sarvi xuromonimdadur.[170]

Qatl[171] biymidur, tarahhumning[172] dag'i ummedi bor,
Bu libosi olkim, ul nomusulmonimdadur[173].

Vasl shomi kuymagan parvona shoyad[174] qolmag'ay
Bu shafaqgun hullakim,[175] sham'i shabistonimdadur[176].

Tutmasin gul suhbatidin sarv o'zin ko'p sarfaroz,[177]
E sabokim,[178] ul to'ni gulgun mening yonimdadur

---

[165].Otashin - 1.Olovli.2.Qizil atirgul
[166]. Xil'at - Xalat, ustki engil kiyim.
[167].Muzmar - Yashirin, bekitilgan.
[168].Xunob - Qonli ko'z yoshi,
[169].Nahl - Nihol, daraxt.
[170].Xiromon - Noz bilan yuruvchi.
[171].Qatl - Qatl etilgan.o'ldirilgan.
[172].Tarahhum - Rahm qilish, shafqat qilish.
[173].Nomusulmon - Musulmon emas, musulmonchiligi yo'q.
[174].Shoyad - Zora, extimol. koshki.
[175].Hulla - Bezakli, nozik, nafis kiyim.
[176].Shabiston - Tungi yotoqxona, tunash uyi.
[177].Sarfaroz - 1. Yuksalgan.2.ustun, ulyg'vor,
[178].Sabo - Tong chog'i esgan yel.

Soqiyo, gulrang may solib keltur paymonakim[179],
Zuhd[180] biymidin xalal ishq ichra paymonimdadur.

Ey Navoiy, istama jon bulbulin har guldakim,
Ul to'ni gulgun, labi gulbargi xandonimdadur.

**Tarona I**

G'urbatda[181] g'arib shodimon bo'lmas emish.
El anga shafiqu[182] mehribon bo'lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

---

[179].Paymona - Qadah,kosa, piyola.
[180]. Zuhd - Dunyodan voz kechib toat-ibodat qilish.
[181].G'urbat - Gariblik,vatangadolik,kimsasizlik.
[182].Shafiq - Shafqatli,muruvvatli,mushfiq,marhamatli.

**Bayot Nasri.**

Bobur g'azali.

Xazon yaprog'i yanglig'[183] gul yuzing hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm yanglig', ey lolarux,bu chehrai zardim[184].

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni[185] sarvdek hargiz,
Ayog'ingg'a tushub bargi xazondek, muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu hurram qol,
Men archi[186] dahr[187] bog'idin xazon yaprog'idek bordim.

Xazondek qon yoshim, sorig' yuzumdin el tanaffurda[188],
Bahar rangi[189], bixamdillah[190], ulusdin o'zni qutqordim.

Ne tole'dur mengakim, axtari baxtim topilmaydur,
Falak avroqini har nechakim daftardek axtardim.

Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zimni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

---

[183].Yanglig' - Kabi, singari.
[184].Zard -Sariq, zahil.
[185].Sarkash -Bosh tortuvchi,qaysar, o'jar,itoatsiz.
[186].Archi - Garchi so'zining qisqartirilgan shakli.
[187].Dahr - Dunyo, olam.
[188]. Tanoffur - Nafratlanmoq, jirkanmoq.
[189]. Bahar rangi - Har qalay, har holda.
[190].Bihamdilloh - Allohga shukur.

**Bayot Ufori.**

Navoiy g'azali.

O'rtanur el firqatingdin[191] navha[192] bunyod aylasam,
Qo'zg'olur olam o'kurmak birla faryod aylasam.

Emrilur boshimg'a go'yoki, falak g'amxonasi,
Ul quyosh hamxonam erkanni qachon yod aylasam.

Hajr biymi[193] chun etar g'amgin qilur beixtiyor,
Vasl umidi birla ko'nglumni necha shod aylasam.

Charxu-anjumdin[194] kuyub men ayb emas gar oh ila,
Bu necha axgar[195] bila ul qulni barbod aylasam.

Daf'[196] etay derman jahondin ashk ila g'am tufrog'in
Bu buzug'ni sel ila istarmen obod aylasam.

Saltanatdin boda ortug'dur menga yuz qatlakim,
Xushroq el bedodin o'zumga bedod aylasam.

Ey Navoiy, hajr aro etti ajal qolg'aymu sabr,
Ul Masiho[197] va'dayi vaslini meod[198] aylasam.

---

[191]Firqat - Gurux, to'da.
[192]. Navha - Yig'i, unsiz dod, nola.
[193].Biym - Qo'rquv,qo'rqinch, xavf.
[194]. Anjum - Yylduzlar, sayyoralar.
[195].Axgar - Laxcha cho'g', yongan o'tin.
[196].Daf' - Qaytarmoq, yo'q qilmoq.
[197].Masiho - Iso payg'ambarning laqabi, tiriltiruvchi.
[198].Meod - Va'dalashish.

## Navo Mo'g'ulchasi.

Munis g'azali.

Masti jomi[199] vasl etib, avval meni zor aylading.
So'ng nedin, hijron[200] xumorig'a giriftor[201] aylading?

Sendin ummidim bu ermas erdikim, bedodila,[202]
Xotirim oshufta[203] u ko'nglum tabohkor[204] aylading.

Salsabili[205] shafqatingdin istadim sarshorlig',[206]
Bilgach oni qahring o'tiga sazovor[207] aylading.

Yuz uyurding do'stlig'din, dushmani joni m bo'lub,
Oqibat men zorg'a yo'q rasmlar bor aylading.

Vaqtdur Munisg'a yor o'lsang karamdinkim,[208] ani
Asru miskin qildingu g'am xaylig'a[209] yor aylading.

---

[199].Jom - Qadah, may piyolasi.
[200].Hijron - Ayriliq, judolik.
[201].Giriftor - Yo'liqqan, asir bo'lgan.
[202].Bedod - Jabr, zulm, adolatsizlik.
[203].Oshufta - Oshiq, maftun, shaydo.
[204].Tabohkor - Xarob, buzilgan, vayron bo'lgan.
[205].Salsabil - Jannatda bir buloqning nomi.
[206]Sarshor - Boshdan to'kilayotgan, limmo-lim.
[207].Sazovor - Loyiq, munosib.
[208].Karam - Mehribonlik, muruvvat.
[209].Xayl - To'da, gurux.

«Лутфий» расми. М. Воронкин асари. 1986 г.

**Mustahzodi Navo Talqinchasi.**

Lutfiy g’azali.

Ey sanavbar[210] bo’yli dilbar, fikri hijron qilmag’il.
Shavq[211] o’tinda men gadoni asru biryon[212] qilmag’il.

Elga ko’p in’om etarsan dam-badam dashnomni,
Qadr bilmaslarga oxir muncha ehson[213] qilmag’il.

Andakim bo’ldum xabarsiz dog’ qo’yding jonima,
Emdi bilmasman dema o’zingni nodon qilmag’il.

O’zgalar sori boqib g’amza[214] o’qini otmag’il,
Yuragimni dam-badam xasrat bila qon qilmag’il.

Lutfiy miskinga ko’rguz soidingni[215] lutf[216] ila,
Bu gadodin nuqrai[217] ongingda pinhon qilmag’il.

---

[210].Sanobar - Archasimon hushqomat daraxt,
[211].Shavq - Quvonch, sevinch.
[212].Biryon - Qovurma, qovurilgan, kabob bo’lgan.
[213].Ehson - Hayr-sahovat, hadya, sadag’a,
[214].Gamza - Ishva, noz, ko’z harakati bilan nozlanmoq.
[215].Soid - Bilak, qo’l uchidan tirsakkacha qismi.
[216].Lutf - Muloyimlik, yaxshi muomala,rahmdillik.

**Mustaxzodi Navo Qashqarchasi.**

Anbarin[218] xattiki[219] qilding, oshkor, ey sarvinoz.
Ko'rdimu chiqti ko'ngullardin g'ubor, ey sarvinoz.

Ko'ksima o'qlarki otding, g'amzadin paykonlaring,[220]
Chekmakim, jonimg'a qolsun yodgor, ey sarvinoz.

Demading hargizki: mensiz kechti ahvoling nechuk?
Tig'i[221] hijroningdin erdim, dilfigor,[222] ey sarvinoz.

La'li[223] nobing [224] hasratidin g'uncha yanglig'[225] qon yutub,
Gul yuzing yodida chektim xor-xor, ey sarvinoz.

Yo'q men o'zda, hushima kelganda kelsang yodima,
Tortadurman nolayu beixtiyor, ey sarvinoz.

Lof urarmish gul tarovat[226] bobida gulshanaro,
Bir borib yuz ochki, bo'lsun sharmisor,[227] ey sarvinoz.

---

[217].Nuqra - Kumush.
[218].Anbarin - Anbar hidli, xushbo'y, tim qora.
[219]. Xattiki - Ustki labdagi mayin tuklar.
[220]. Paykon - 1.Kamin o'qining metall uchi.2.Kiprik.
[221].Tig' - Pichoq, xangar,qilich.
[222].Dilafgor - Dili hasta, dili vayron.
[223].La'l - Qizil yaltiroq qimmatbaho tosh.
[224]. Nob - Toza la'l.
[225].Yanglig' - Kabi, singari.
[226].Tarovat -Yangilik, tozalik, ohorlilik.
[227].Sharmisor - Uyalganlik, uyaltirmoq.

**Mustaxzodi Navo Soqinomasi.**

Nishotiy g'azali.

Ey mah,[228] sanga yuz jahon tasadduq.
Jon la'lingga[229] raygon[230] tasadduq.

Bemor esa nargisi[231] siyah[232] mast,
Man ojizu notavon[233] tasadduq.

Bir soat o'lay boshing'a qurbon,
Qoshingg'a zamon-zamon tasadduq.

Bo'lsun sanga sadqa nozaninlar,
Gar yaxshi va gar yomon, tasadduq.

Qaddingki ravon[234] yorutti ko'zni,
Ko'z nuri anga ravon tasadduq.

Qildim sanga o'ylakim Nishotiy,
Yo'ling uza xonumon[235] tasadduq.

---

[228].Mah - Oy,Majozan: go'zal ma'shuqa.
[229].La'l - Qizil yaltiroq qimmatbaho tosh.
[230]. Roygon - Yo'ldan topilgan,tekin.
[231].Nargis - 1.Gulning bir navi.2. Yor ko'zi.
[232].Siyah - Qora, yuzi qora.
[233].Notavon - Kuchsiz,zaif,epsiz.
[234]. Ravon - Tez,darhol, harakatdagi, yuruvchi.
[235].Xonumon -Uy joy va uy jihozlari.

# Nasrulloyi taronalari bilan.

Nasrulloyi - o‘tmishda (16-asr) yashab ijod etgan mashhur bastakorning ismi (taxallusi)ga nisbat berib atalgan musiqiy asarlar nomi[236]. Shashmaqomda Buzruk maqomi Mushkilot bo‘limida "Muhammasi Nasrulloyi" nomi bilan asosiy cholg‘u qismlaridan biri sifatida o‘rin olgan. Ushbu maqomning ashula bo‘limida Nasrulloyi nasr yo‘lida yaratilgan sho’balardan biridir. U o‘zining kuy qiyofasi jihatidan Buzrukning boshqa sho’balaridan birmuncha farqqiladi. Ichki tuzilishi bo‘yicha Nasrulloyi cholg‘u muqadimma, daromad, miyonxat, dunasr, Turk avji, tushirim kuy jumlalaridan tashkil topgan. Nasrulloyi sho’basi o‘zidan so‘ng keladigan 3 Taronaga ega. Nasrulloyining bosh kuy mavzui boshqa sho’balarda namud sifatida ishlatiladi.

Xorazm maqomlarida ham Buzruk maqomi aytish yo‘lidan o‘rin olgan bo‘lib, nasr sho’basi uslubida yaratilgan namunalardan. Toshkent — Farg‘ona maqom yo‘llari qatorida Nasrulloyi 5 qismli cholg‘u kuylar turkumi sifatida ma’lum. Uning qismlari har xil vazn va doira usullariga tushirilgan bo‘lib, ikkinchisi (chapandoz)ning ashula yo‘li ham mavjud.

## Nasrulloyi.

Navoiy g’azali.

Parizodeki, mushkin[237] zulfi jonim mustamand[238] etmish,

Maloik[239] qushlari ul halqa[240] mo’lar birla band etmish.

Samandingkim[241] yolindek[242] tez erur, yuz shukrkim, gardun,[243]

Anga bir ne samandarvas,[244] munga birni samand etmish.

---

[236].O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi - 1 – jild. 2000- yil.
[237].Mushkin - Mushkli,mushk hidli, xushbo’y.
[238].Mustamand - Ojiz, sho’rlik, bechora, shorlik, yo’qsil.
[239].Maloik - Farishtalar.
[240]. Halqa - Qul, sodiq,
[241].Samand - Tezyurar va chiroyli ot, saman ot.
[242]. Yolin - Yolqin, alanga, olov.
[243].Gardun - Falak, osmon, ko’k, olam.
[244].Samandar - Olovda paydo bo’ladigan va yashaydigan afsonaviy jonivor.

Chekarga ishq otashgoxig'a[245] devona ko'nglumni,
Qazo[246] har bir sharar[247] torini[248] bir o'tluq kamand etmish.

Vafog'a telbalikdin nopisand[249] o'lsam, anga ko'rkim,
Jafog'a kimni mencha ul paripaykar pisand etmish.

Labingda no'shu[250] zahri hajr og'zingda – tong ermaskim,
Menga har zahrxand[251] o'lg'onda, ul bir no'shxand[252] etmish.

Labi la'lin malohat xoli birla bahravar[253] qilg'on
Mening jonimni dog'i ishq birla bahramand etmish.

Biravkim sarvdek ozodavash bo'ldi bu bog' ichra,
Qazo dexqoni ham sarsabz,[254] ani ham sarbaland[255] etmish.

Mayi ravshan tut, ey soqiki, ko'nglim tiyra[256] qilmish shayx,
Dami afsun[257] bila baskim anga izhori pan d etmish.

Navoiy, kech visol ummedidinkim, Haq[258] seni behad
Zalilu[259] zor, yoringni azizu arjumand[260] etmish.

---

[245].Otashgoh - O'txona, o'choq, otashparastlik.
[246].Qazo - Qismat, taqdir.
[247].Sharar - Uchqun, alanga.
[248].Tori - Yuqqan, sodir bo'lgan, ilashgan.
[249].Nopisand - Noma'qul, nomaqbul, yoqimsiz.
[250]. No'sh - Chuchuk xushta'm bol.
[251].Zahrxand - Achchiq kulish, istehzoli kulish, zaharxanda.
[252].No'shxand - Chiroyli kulish, shirin kulgi, jilmayib kulish.
[253].Bahravar - Bahramand, bahra topgan, foydalangan.
[254].Sarsabz - Gurkiragan, yam-yashil, chappar urgan.
[255].Sarbaland - Boshi baland, yuksalgan,dongdor.
[256].Tiyra - Qora,qorong'u.
[257].Afsun - Sehr, avrash,nayrang,firib, makr.
[258].Haq - Alloh, Yaratgan.

## Tarona I

Xalq so'zi

Gul yuzingni ko'rdum man, paykaram[261] parishon[262] shud.
Esladim hami zulfing, xotiram parishon shud.

Xuqqai[263] labing emdim, turfa lazzatash didam,
Konu tuz ekan, jono, siynaam namakdon shud.

So'rdi ul niholing yor, gashtam az sarash sad bor,
Ikki ko'zidan o'pdim, dardi man ba darmon shud.

## Tarona II.

Ogahiy g'azali.

Ne ajab shikasta[264] ko'ngul ishi tunu kun fig'on ila noladur,
Ki na g'am toshiki falak otar anga lahza-lahza havoladur.

Dema ul pari yuzini qilibdur ihota[265] halqai zulfikim,
Falaki latofat uza oning birisi qamar, biri holadur.

G'ami dahrdin etibon iyzo[266], meni xasta ayladi soqiyo,
Karam aylagilki, davo ango mayi nob to'la piyoladur.

Netong, Ogahiy, nazar aylamas esa bog' sori nigorining
Sochi sunbulu, ko'zi nargisu, labi g'unchayu, yuzi loladur.

---

[259].Zalil - Xor, tuban.
[260].Arjumand - Aziz,izzatli, sharafli, mo'tabar,qadrli, badavlat.
[261].Paykar - 1.Haykal, jussa, gavda.2. Surat.
[262].Parishon - Tarqoq, sochilgan, yoyilgan.
[263].Huqqa - Qimmatbaho toshlar solinadigan quticha, Maj: qizil lab.
[264].Shikasta - Siniq, qiynalgan, bechorahol.
[265].Ihota - O'rab olish, devor.
[266].Iyzo - Ozor berish, xijolat qilish, uyaltirish.

## Tarona III

Xalq so'zi

Ko'ngul bog'ini zebu fikri ul qaddi niholingdur,

Meni yig'latgan achchig' hasrati shirin maqolingdur,[267]

Kulib harfi nihoni birla shirin kom [268]aylarsen,

Shakar bozori ermas, elga zavqi la'li bolingdur,

Giriftor aylagan ul nargisi masti g'izolingdur.[269]

## Uzzol Nasri.

Navoiy g'azali.

Rasul qori Mamadaliev ijrosi.

Yuzingda may guli yo gul ochilg'on bo'stondur bu,

Gulungda qatra xun,[270] bo'stondag'i suvdin nishondur[271] bu.

Ko'zumda qatra qonlar bog'log'on ermas hamono kim,

Nazar bog'ida shavqingdin[272] ochilg'on arg'uvondur[273] bu.

Emas vasling tilab uchqon ko'zum atrofida kiprik,

Kim ul daryoyi qushlarg'a qamishdin oshyondur bu.

Ko'nguldin chiqqon ohim, aylar afzun[274] xalq savdosin,

Ki, shaydoliq diyoridin etishgan karvondur bu.

---

[267].Maqol - So'z, nutq.
[268]. Kom - Tilak, Istak,maqsad.
[269].G'izol - Kiyik.
[270].Xun - Qon, dam.
[271].Nishon - Belgi, alomat, tamg'a,darak.
[272].Shavq - O'tkir orzu,zo'r havas, qattiq intilish.
[273]. Arg'uvon - Rangli, to'q qizil.
[274].Afzun - Ortiq, ziyoda, ko'p.

Labidin xastadur ko'nglum, dam ochma, ey Masih[275] o'tkim,
Ilojin yuz seningdekning bekonmas notavondur[276] bu.

Quyundek dasht aro ko'rsang meni, ko'p qochmakim, hardam
Boshingg'a uyrulur sargashtayi[277] bexonimondur[278] bu.

Ko'ngul - mayxona romi, xotiram xush may batidinkim,[279]
Munga "Ruhul-amin"dur ul, anga dorulamondur[280] bu.

Dema: "Hijron tuni har dam yetar ul oyg'a faryodim",
Ul oy faryodingga etmas, Navoiy, ne fig'ondur bu?!

---

[275].Masih - Iso payg'ambarning laqabi.
[276].Notovon - Kuchsiz, zaif, bo'sh, epsiz,shudsiz.
[277].Sargashta - Boshi aylangan, sargardon, hayron.
[278]. Bexonumon - Uy joysiz, darbadar,sarson, sargardon.
[279].Bat - O'rdak shaklidagi may idishi.
[280]. Dorilamon - Tinchlik uyi, amonlik uyi, tinch joy.

## XORAZM MAQOMLARI.

### Xorazm maqom yo'llaridan SUVORA.

SUVORA (forscha. — otliq, suvoriy) 1) Shashmaqomning Buzruk maqomi asosida yaratilgan kuy va ashulalar[281]. Suvoraning ashula yo'li oddiy 2/4 takt o'lchovidagi doira usulida ijro etiladi. Suvoraning yana 3 xili (Suvora1, Suvora 2, Suvora 3) mashhur cholg'u kuylaridir. Suvora 1 Buxoro Irog'idagi soqiynoma nutt varianti bo'lib, unda «Zebo pari» avji tushirib qoldirilgan. Uning 2- va 3-qismlari 6/8 va 3/4 o'lchovlaridagi usullar jo'rligida ijro etiladi. 2- va 3-Suvoralar surnay yo'llaridandir;

2) Xorazmda mashhur bo'lgan maqom ashula yo'llari va mumtoz ashulalar turkumi[282]. Maqomlarda asosiy sho'balardan keyin o'rin olgan Suvoralar 13/4 o'lchovidagi murakkab usullarga asoslangan. Shuningdek, oddiyroq (6/8, 3/4, 3/8) takt o'lchovidagi (keksa ustozlar aytishicha — otning yo'rg'a yurishidan hosil bo'lgan ritmik tuzilmaga asoslangan) murakkab shaklli Suvora ashula yo'llari ham xalq orasida keng tarqalgan. Ular 7 ta yirik ashula turkumlariga birlashgan bo'lib, har bittasida 2 tadan Savt va Ufarlar mavjud: «Suvora» («Tani» yoki «Ona Suvora»), «Chapandozi Suvora» («Tojik Suvora»), «Yakparda Suvora», «Xushparda Suvora», «Qajhang Suvora», Komiljon Otaniyozov yaratgan «VI— Suvora.» va Hojixon Boltaev ijodiga mansub «Qorchmoniy Suvora»lar. Suvoralar she'riy matnida ko'proq tasavvuf mavzuidagi muxammaslar qo'llanilgan.

Xorazmda xonandalarning ijodiy musobaqa (diyralishma)lari Suvora ijrosiga asoslangan. Polvon Duzchi, Sheroziy, Hojixon Boltaev, Komiljon Otaniyozov, Jo'raxon Sultanov, Quvondiq Iskandarov, Otajon Xudoyshukurov, Rustam Jumaniyozov, Farxod Davletov va boshqalar Suvoralarning mohir ijrochilaridir. Suvora yo'llaridan Matniuoz Yusupov, Azamat Otajonov, Sulton. Hayitboev kabi kompozitorlar foydalanishgan.

---

[281].Xorazm musiqiy tarixchasi -Toshkent.,1998;(2 nashri), Xarratov M. 275. Maqomot - Toshkent., 2004. Matyoqubov O.

**Savti suvora.**

Ogahiy g'azali.

J Sultonov ijrosi.

Ul yuzi gul nigorning mehri jamolini ko'ring,
Mehri jamoli ustida ikki hilolini[283] ko'ring.

Ikki hilolini ko'rub, qonmasa mehringiz agar,
Safhai[284] orazi uza nuqtai holini ko'ring.

Nuqtai xolini ko'rub, sabr eta olmas ersangiz,
Husnu jamoli bog'ida qaddi niholini ko'ring.

Qaddi niholini ko'rub ko'nglingiz etmasa qaror,
Jon ko'zi birla boqibon la'li zilolini ko'ring.

La'li zilolini ko'rub joningiz etsa iztirob,
Chorai holingiz uchun shahdi[285] maqomini ko'ring.

Shahdi maqomini ko'rub, topmasa chora holingiz,
Nuqtaga lab ochar chog'i g'anju[286] dalolini[287] ko'ring.

G'anju dalolini ko'rub, istasangiz murodi dil,

---

[283]. Hilol - Yangi ko'ringan oy.
[284].Safha - Bet, chehra
[285].Shahd - Bol tommoq, shirin so'zlamoq.
[286].Ganj - Oltin, kumush, javohirot.
[287]. Dalol - Qiliq, noz-karashma, g'amza.

Ogahiydek quchib belin ayshi kamolini ko'ring.

**Savti Suvora.**

Navoiy g'azali.

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand[288] etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqomen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim bahrai andin tilarmen bahramand etmas.

Netay huru[289] pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayn ul zahr[290] chashm[291] aylab nihon, bu no'shxand[292] etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin,
Ichim ul chok-chok[293] etmas, tanim ul band-ban[294]d etmas.

Kerak o'z chobuki[295] majnunvashi[296] qotil shiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga erda javloni samand etmas.

Ko'nglum uz charx zolidin,[297] firibin emakim, oxir
Ajal sarrishtasidin[298] o'zga bo'ynung'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy tegmasin deb ko'z,

---

[288].Arjumand - Aziz, izzatli, sharafli, qadrli, qiymatli.
[289]. Hur - Ozod, erkin, pokiza.
[290].Zahr - Zahar, og'u, achchiq og'riq, azob.
[291].Chashm - Ko'z zahri, yomon qarash, ko'z tegish.
[292].No'shxand - Chiroyli kulish, shirin kulgi, jilmayish.
[293].Chok-chok - Yirtiq, yoqasi yirtilgan.
[294].Band - Kishan, zindon, qamoq.
[295].Chobuk - Chaqqon,tez, ildam, chavandoz.
[296].Majnunvash - Majnunlarcha, devona.
[297].Zol - Adashgan, yo'ldan ozgan.
[298].Sarrishta - Bahona, sababchi.

Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand [299] etmas.

**Savti Suvora.**

Fuzuliy g'azali

Har kitobakim labi la'ling hadisin[300] yozalar,
Rishtai[301] jon birla ishq ahli oni sherozalar.[302]

Bu na sirdir, sirri ishqing demadan bir kimsaya,
Shahra dushmish man sani sevdim deya ovozalar.

Shayxlar[303] mayxonadan yuz do'ndirurlar masjida,
Betariqatlarni[304] ko'rkim, to'g'ri yo'ldan ozalar.

Choklar[305] ko'ksimda sonmakim, ochubdur tig'i[306] ishq,
Ko'ngliming shahrina mehring kirmaga darvozalar.

Ey Fuzuliy, yor agar javr etsa, andin injima,[307]
Yor javri oshiqa har dam muhabbat tozalar.

---

[299].Sipand - Isiriq,isiriq urug'i.
[300].Hadis - 1.So'z.2.Payg'ambarning so'zlari.
[301].Rishta - Ip, eshib pishitilgan ip.
[302].Sheroza - Kitobning muqovaga yopishgan ikki ychini bejab tikish.
[303].Shayx - Qari, keksa.
[304].Betariqat - Yo'lsiz, yo'ldan adashgan, gumroh.
[305].Chok - Yirtiq, yorilgan, tilingan.
[306].Tig' - Pichoq,xanjar,qilich.
[307].Injimak - Ranjimoq, xafalanmoq.

# BUZRUK MAQOMI.

“BUZRUK”. “Buzurg” so’zi forscha katta, ulug’ ma’nolarini bildiradi.[308] Bu maqom haqidagi ma’lumotlar juda qadim zamonlardan beri Sharq musiqa ilmiy risolalarida sharhlab kelingan edi. O’tmish olimlarning musiqiy risolalarida “Buzruk” muayyan lad tuzilmasini va unga mos kuy va ashulalarni ifodalagan.15 – asrda yashab, ijod qilgan buyuk mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darveshali Changiy larning asarlarida “Buzruk” maqomining o’n ikki maqomdagi tovushqatori, pog’onalari qayd etilgan.[309] Asosiy parda tuzilishi va intervallariga oid ma’lumotlar berilgan.Ushbu maqomning jonli namunalari ”Shashmaqom” tarkibidagi kuy va ashula yo’llari orqali ma’lumdir. “Buzruk” juda ko’p ashula va cholg’u yo’llarini hamda maqomning eng katta qismini o’z ichiga olganidan shunday nomlangan.

Shashmaqomdagi “Buzruk” maqomining 7 cholg’u yo’li, 35 ashula yo’li, 6 taronali “Sarahbori Buzruk”, bir taronali “Talqini Uzzol”, 3 taronali ”Nasrulloyi”, ”Nasri Uzzol” va “Ufori Uzzol”dan iborat birinchi gurux sho’’balari, “Mo’g’ulchai Buzruk”, “Savti Sarvinoz”, “Buxoro irog’i” va “Rok”(har biri “Talqincha”, “Qashqarcha”, “Soqiynoma” va “Ufor” deb bir xil nomlanuvchi shoxobchalari bilan) kabi ikkinchi gurux sho’’balari mavjud.”Buzruk” maqomining cholg’u va ashula yo’llari yuksak badiiy qiymatga ega bo’lib, ular asosida bastakorlar tomonidan juda ko’p kuy va ashulalar yaratilgan.

“Buzruk” maqomining turli cholg’u va ashula yo’llari bor[310]. Masalan: “Rok” sho’basi (surnay, karnay va nog’oralar jo’rnavozligida) cholg’u asari sifatida “Shodiyona” nomi bilan ma’lum.Shu o’rinda “Surnay Buzrugi”, “Savti Buzruk”, “Ufori Savti Buzruk” kabi Farg’ona – Toshkent maqom yo’llari ham mashxurligini ta’kidlash mumkin. “Buzruk”ning ashula bo’limi birinchi gurux sho’balari taronalari bilan yaxlit holda, turkum tarzida ijro etiladi.Bu sho’balarning asosiy yo’llari Saraxbori Buzruk, Talqini Uzzol, Nasrulloyi, Nasri Uzzol, yakunlovchi qismi esa, Ufori Uzzol deb nomlanadi.

Buzruk maqomining sho’balaridan yana biri "Rok" nomi bilan mashhur. Rok iborasi hindcha "Rag", «Raga» so’zidan olingan bo’lib, O’rta Osiyo xalqlarining Hind xalqlari o’rtasidagi qadimdan mavjud bo’lgan musiqiy aloqalarining ifodasi bo’lsa kerak. Bunda Rokning kuy tuzilishi hind musiqasiga aloqasi bor deb o’ylash xatodir. Nazarimizda bu yerda nomigagina

---

[308]. “Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov
[309]. “Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov
[310].“Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

hindchadir. Shuni ham aytish kerakki, uyg’ur xalqida ham "Shashmaqom"dagi kabi Rok cholg`u va ashula yo`llari bo`lib, bizdagi Rok sho’basiga o`xshaydi. Bular o`rtasidagi farq ijro uslubining turli ekanligidir.

Buzrukdagi Rok sho’basi uchun xos narsa shuki, uning asosiy yo’li Savt–mo’g’ulchalariga o’xshamaydi, balki Talqin doira usulida ijro etiladi. Binobarin, kuy tuzilishi ham ancha ixcham. Uning asosiy yo’li, talqinchasi, qashqarchasi va soqiynomasi hamda ufari, daromad, miyonxat, namudi uzzol va furovard qismlaridan iborat bo’lib, hamma shohobchalarda avjlar qisqartirib olingan. Lekin bu qismlardagi kuy ohanglari bir-biridan ancha farq qiladi. Rok sho’basining qismlari xalq orasida juda ham mashhur bo’lib, raqsbob ashula yo’llaridandir. Bu ashula yo’llari xalq yig’inlarida, to’y va bazmlarda ko’pchilik tomonidan raqs jo’rligida aytilib kelingan.

Shuni ham alohida aytish kerakki, Rok qismlari surnay yo’llari sifatida ham mashhur. Ba’zan shodu xurramlik kayfiyatini ifodalagani uchun surnay, nog’ora va karnay ansambllarida ijro etilib, "Shodiyona" kuylari deb ataganlar. Lekin "Shodiyona" nog’ora usullari va ularga chalinadigan kuylar o’ndan ortiq sanaladi va orasida Rok qismlari ham ijro etilaveradi.

## Saraxbori Buzruk.

Lutfiy g’azali.

O’zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboev .

Dilbar sog’inmog’on jihat i bu firoq emish,

Ko’zdin yiroq bo’lsa ko’nguldin yiroq emish.

Turkiy tilning «chig’atoy lahjasi» rivoj topgan XV asrda ijod etgan mavlono Lutfiy qalamiga mansub ushbu g’azal, Buzruk maqomining Saraxbori uchun ustoz Yunus Rajabiy tomonidan tanlangan.[311] “Ramal” bahrining birmuncha kamroq tarqalgan “Ramali musammani mahfuzi tag’yir” vaznida bitilgan. Ma’nosi: Dilbarni, ya’ni ma’shuqaning sog’inmaganligining sababi shuki, o’rtada uzoq muddatli ayriliq sodir bo’ldi. Xalqda bir naql borki “ko’zdan yiroq, ko’ngildan yiroq”. Ushbu hol ham naqlning haqiqatligini isbot etmoqda” deydi hassos shoir.

Tinmas hayoli kunjina ko’z yoshi qatradin,

Yuz sorina yugurguchi gulgun Buroq emish.

“Uning xayolida mening ko’zlarim burchagidan yosh qatralari tinmay oqadi. Ikkinchi misrada shoir turkiy tilning go’zal o’xshatishlaridan foydalangan holda, shuni ta’kidlaydiki, tiniq ko’z yoshlarim yuzim tomon yugurar ekan,

[311].Saraxbori Buzruk. - Lutfiy g’azali. (O’zbekiston xalq hofizi M.Tojiboev sharxi)

o’zida nurlarni ask ettirib, go’yoki buroq (ya’ni, osmonlarga uchuvchi nurdan bo’lgan markab,- ulov)ni eslatadi”- deydi.

Bo’lmas visol birla ko’ngil dardu dog’i kam,

Ul to’ymag’urda, vah ne balo ishtiyoq emish.

Odatda, oshiqning eng yuksak maqsadi ma’shuqaning visoliga etishdir. Shu bilan uning murodi hosil bo’ladi. Lekin, shoir bu erda aytishicha ko’ngilning dardu-dog’i visol bilan kamayib, yuvilib qolmaydi. ”Bu to’ymagurning maqsadi nima o’zi?” deb hayratlanadi. Gap shundaki, tasavvufiy aqidaga binoan, dunyo go’zalliklari Mutloq Xaqning jamoli tajallisi, ya’ni aks etishi hisoblanadi. Demak, oshiqning ko’ngli ma’shuqani yuzida aks etgan Haq jamoli aksini emas, haqiqiy jamolga erishmoqni tilaydi.

Qon bog’ladi jigarlarim ul g’amza sahmidin,

Chinu Xitoda nechaki ohu qaroq emish.

Bu baytda ham ma’shuqa go’zalligi go’zal tashbehlarda namoyon bo’ladi. Lirik qahramonning aytishicha, yorning ko’zi shunday g’amza bilan boqadiki, bu g’amzali boqishdan uning butun joni nainki, joni, xonumoni o’rtanib ketadi. Shuning uchun bir tomondan ana shu g’amzaga yo’liqish qo’rqinchidan yurak bag’ri qon bo’lib yuradi. Endi, ko’zning go’zalligi ohuga qiyoslanar ekan, Chinu Xitoda nima ko’p ohu ko’p. Har safar ularni ko’rganda yori esga tushadi va jon oluvchi g’amza qo’rqinchi yodga tushaveradi. Shoir ana shu tashbeh orqali kichik satrda ulkan ma’noni jamlab olgan.

Yoydek buyumni egdi qoshing bori g’am bila,

Kim, egrilikda davri qamar ichra toq emish.

Ilmi nujum (astranomiya)dan xabardor kishilar biladilarki, har bir sayyora o’z mehvari (orbita)siga ega. Bulardan eng egri orbita bo’ylab aylanadigan va Erga tabiiy yo’ldosh bo’lgan Oydir. Lutfiy ana shu «davri qamar» (Oy davri) ga ishora qilib aytadiki, «Qoshingning shakli yangi chiqqan oy yanglig’ boshimga shunday g’am yuklarini yuklaganki, bu yuklar og’irligidan qaddim yoydek egilib, oy mexvari ichra yagona bir holga kelgan» deb ta’kidlaydi.

Buzdi qaro cherik bila ko’nglim viloyatin,

Ul ko’zki, turklardek ishi talamoq emish.

Bu erda shoir ma’shuqa ko’zlarining qora ekanligini, lekin bu qora ko’zlar, qora lashkarlar yanglig’ ko’ngullar uyini vayron qiluvchi ekanligini, uni qilgan

ishlari bosqinchi sahro turklarining talon-tarojiga juda o'xshab ketishini go'zal ifodalarda tasvirlaydi.

Lutfiy, Hiriyda qolmadi, she'ringa mushtariy,

Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emish.

"Lutfiy, sening yor ishqida bitgan go'zal she'rlarining tushunib, qadriga etguvchi kimsalar endi Hirot shahrida qolmadi hisob. Shuning uchun Hijozga qarab yo'l ol, balki Iroq tomonlarda sening dardinga malham bo'lguvchi odam topilib qolar".

**Saraxbori Buzruk.**

Lutfiy g'azali.

Dilbar sog'inmog'on jihati bu firoq[312] emish,

Ko'zdin yiroq bo'lsa ko'nguldin yiroq emish.

Tinmas hayoli kynicha ko'z yoshi qatradin,

Yuz sorina[313] yuguzguchi gulgun Buroq[314] emish.

Bo'lmas visol birla ko'ngul dardu dog'i kam,

Ul to'ymag'urda, vah ne, balo ishtiyoq[315] emish.

Qon bog'ladi jigarlari ul g'amza[316] sahmidin,[317]

Chinu Xitoda[318] nechaki ohu qarog' [319] emish.

Yodek[320] bo'yumni egdi qoshing bori, g'am bila

---

[312].Firoq - Ayriliq, oshiq-ma'shuqlar orasidagi judolik.
[313].Sori - Sari, taraf, tomon.
[314] Buroq - Muhammad Alayhissalom Me'roj kechasi ko'kka minib chiqqan uchar oy.
[315].Ishtiyoq - Mushtoqlik,dil xohishi,ko'ngil istagi.
[316].G'amza - Ko'z ishorasi, ko'z bilan ishora qilish.
[317].Sahm - Yoy o'qi.
[318]. Chinu Xito - Chin, Xitoy.
[319].Qarog' - Ko'z qorachig'i.

Kim, egrilikda davru qamar[321] ichra toq emish.

Lutfiy Hiriyda[322] qolmadi she'ringga mushtari,
Azmi Hijoz[323] qilki, maqoming Iroq [324] emish.

**Tarona I.**

Bobur g'azali.

Ne fikrikim sening fikring emas, bul fikr erur botil.
Ne umrikim o'tar sensiz, erur ul umr behosil.

Jafou javr tavridin[325] erursen asru ko'p voqif.[326]
Vafou mehr rasmidin bo'lursen asru ko'p g'ofil.[327]

Quyosh yanglig' yuzungga men dururmen volau [328] hayron,
Yangi oydek qoshingg'a men dururmen oshiqu moyil.

Kechurdung oyu yilni mastu bexudlig'[329] bila, Bobur,
Necha g'aflat bila umr o'tkarursen, necha kun, oy, yil.

**Tarona II**

Jonimda mening hayoti jonim sen-sen.
Jismimda mening ruxi ravonim sen-sen.

---

[320]. Yo - Kamon, egma,egilgan.
[321].Qamar - Oy.
[322].Hiriy - Xirot.
[323].Hijoz - Makka va Madina shaharlari joylashgan xudud.
[324].Iroq - Mamlakat nomi.
[325].Tavr - Surati hol, tarz, ravish, yo'sin.
[326].Voqif - Xabardor bo'lmoq, xabar topmoq.
[327].G'ofil - G'aflatda qolgan, bilmay qolgan, bexabar.
[328].Vola - Berilgan, maftun bo'lgan.
[329].Bexudlik - Xushsizlik, devonalik.

Boburni seningdek o'zga yo'q yori azizi,

Alqissaki, umri jovidonim[330] sen-sen.

**Tarona III**

Bobur g'azali

Ey mehri jamoling olam aro,

Zarroti[331] yuzingga mastu shaydo.

Sen qaysi diyor azmin etding,

Kelmas xabaring bu erga aslo.

**Tarona IV.**

G'oziy g'azali

Ey ko'ngul mahvashlaring[332] husniga hayron o'lmag'il,

Chunki bo'lding ehtiyot aylab pushaymon o'lmag'il.

Ro'zg'orim tiyrau[333] oshuftalig'dur[334] hosiling,

Oshnoyu kokilu, zulfi parishon[335] o'lmag'il.

**Tarona V.**

Hislat g'azali.

Hajrinda, ey, yor, korim fig'ondur[336],

Tinmay ko'zumdin ashkim[337] ravondur.

Ayla tarahhum[338] menga nigorim,

Ahvoli zorim senga ayondur.

Guldek yuzingni ishqida Hislat

---

[330].Jovidon - Abadiy, doimiy,mangu, mudom.
[331]Zarrot - Zarralar, mayda bo'laklar.
[332].Mahvash - Oyga o'xshagan, oyday go'zal, juda chiroyli.
[333]. Tiyra - Qorong'u, qora, g'am- g'ussali.
[334].Oshufta - Parishon, tarqoq, to'zg'igan.
[335] Parishon - Yoyilgan,sochilgan.
[336].Fig'on. - Afg'on, nola, dard.
[337]. Ashk - Ko'z yoshi, yig'i.
[338].Tarahhum - Rahm qil, g'amxo'rlik, marhamat.

Bulbulg'a o'xshash ko ri[339] fig'ondur.[340]

**Tarona VI. Suporish.**

Ko'zing ne balo qaro bo'libdir.
Kim jong'a qaro balo bo'lubtur.

Majmu'i[341] davoni dard qildi,
Dardingki, mango davo bo'lubtur.

Yori vafodora, xayroningman.
Munisu g'amxora, qurboningman.

---

[339].Kor - Ish.
[340]Fig'on - Nola, afg'on.
[341].Majmu' - Yig'indi, to'plam, hamma, barcha.

## Uzzol Talqini.

"Uzzol" qadimiy musiqa risrlalarida ko`rsatilishicha o`n ikki maqomga kirgan ma'lum sho`’baning nomi.[342] Shashmaqomda esa Buzruk maqomi tarkibiga kiritalgan. Uzzol iborasi esa X asrdan boshlab ma’lum. "Uzzol" arabcha so`z bo`lib, "tushish", "pastga sakrash" ma’nolarni bildiradi. Bunday ma’noni «Uzzol» nomli sho`’ba va uning qismlarining kuy harakatlaridan ham bilib olsa bo`ladi. Bunday kuy, masalan, "sol" notasidan boshlansa, kvarta darajasida pastga ya’ni "re" notasiga to`satdan sakraydi (fikrimizning dalili uchun, Nasri Uzzolning boshlanish qismini tinglab ko’rish kifoya).

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Buzrukdagi "Uzzol" nomi bilan bog`liq sho`’ba va qismlarda, ya’ni Talqini Uzzol, Nasri Uzzol va Ufari Uzzol kuy mavzulari va ohanglari jihatidan deyarli farq etmaydi. Bular orasadagi asosiy farq - doira usulining turlicha bo`lishidadir. Uzzol yo`li turli doira usuliga tushirilganda, ba’zi o`zgarishlarga uchraydi va bir-birining o`zgacha nusxasi bo`lib, yangicha tus oladi va yangicha ta’sir kuchini kasb etadi. Masalan: Talqini Uzzol, Nasri Uzzol (nasrlar usulida) boshqacha tusga kiradi, Ufar usulida esa quvnoq va sho`xchan ashulaga aylanadi. Uzzol sho’balari va Ufar qismi quyidagi kuy bo`laklaridan tarkib topgan:

Cholg`u muqaddima, I - xat - daromad; II va III xatlar - miyonxat; to`rtinchi va beshinchi xatlar – Ushshoq - namudi; oltinchi xat - Muxayyari Chorgoh namudi; ettinchi xat - furovard, ya’ni tushurish qismlaridan iborat. Bu yerda Ushshoq namudi ya’ni Ushshoqning – Rost maqomining Ushshoq nomli sho`’balari asosida, Muhayyari Chorgoh namudi – Iroq maqomlarining shu nomli sho`’basi asosida yaratilgan.

Uzzol sho’balari xalq orasida mashhur ashula yo`llari bo`lib o`ziga xos ohangdor va jozibalidir. Ularning mashhurligini shundan ham bilish mumkinki "Uzzol" ohanglari asosida boshqa ashula va kuy yo`llari avjida keng foydalaniladigan Uzzol namudi yuzaga kelgan edi. Uzzol namudi Shashmaqomda Buzruk, Rost maqomlari sho`’balari avjida keng foydalanilgan.Talqini Uzzolning bittagina taronasi bo`lib, u ham bo`lsa suporish, ya’ni keyingi sho`’baga o`tishda ulovchi vazifasini bajaradi.

[342].“Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

Buzruk maqomining Nasr - deyilgan sho`'balaridan biri Nasrulloyidir. Nasrullo - shu nomli kuy va ashulani yaratgan bastakorning taxallusidir. Uzoq o`htmishda bu cholg`u va ashula yo`llari maxsus maqom hisoblangan, hamda "Rohaviy" nomi bilan mashhur bo`lgan.

**Uzzol Talqini.**

Navoiy g'aza li. Siroj Aminov ijrosi

E mug'anniy,[343] yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong bo'lsun, g'amim sharhidin og'oz aylasang.

Uddek[344] kuymakligim sharh et zaboni hol ila,
Nag'mada[345] uding lisonni[346] sehrpardoz aylasang.

O'zga olamdin xabar, deb bizni tirguzding, netong,
Bu risolat[347] birla gar izhori e'joz aylasang.

Rozim ar sozing lisonidin baidulfahm esa,
Anga ruhafzo[348] uningni dog'i hamroz[349] aylasang.

Otlanib boshimni raxshingni ayog'in ostida,
Tig' birla solg'udek, masti sarandoz[350] aylasang.

Parda yop, roz uzrayu, doxil[351] bo'l ushbu bazm aro,
Kim erur xorij [352] agar, beparda ovoz aylasang.

---

[343].Mug'anniy - Ashulachi, sozanda, cholg'uchi.
[344].Ud - Mungli cholg'u sozi.
[345].Nag'ma - Ohang, kuy, maqom.
[346].Lison - Til, zabon.
[347].Risolat - Elchilik, payg'ambarlik.
[348]. Ruhafzo - Ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi.
[349]. Hamroz - Sirdosh.
[350]. Sarandoz - 1.Boshi quyi, enkaygan,2.Chaqqon, epchil.
[351].Doxil - Dahldor, tegishli, kiruvchi.
[352].Xorij - 1. Tashqari.2. Andishasiz.

Chekmading lahne[353] Navoiy, ko'ngul istab, ayb emas,

Anglab o'zingni navo ahliga shahnoz[354] aylasang

# I R O Q M A Q O M I.

"IROQ". Iroq mamlakatining nomiga nisbat berilgan[355]. "Iroq" maqom yo'llari musulmon Sharq xalqlari musiqa merosida mashhur maqomlardan biri bo'lib, turli xalqlarda bir-biriga sira o'xshamaydi va har bir xalqning o'ziga xos musiqa ohanglari asosida yuzaga kelgan. Ba'zi maqomdonlarning aytishicha, "Iroq" maqomining sho''balarining kuy tuzulishi va ijro etilish uslubi murakkab bo'lganligi uchun ko'pchilik xonandalar uni ijro eta olmaganlar. Shu sababli uning sho'balari bizga etib kelmagan. Ikkinchi gurux sho'balari esa umuman yaratilmay qolgan. "Iroq" maqomining cholg'u va ashula yo'llarining turli ko'rinishlari xalq orasida sevilib ijro etib kelingan.

Iroq maqomi O'n ikki maqom, Shashmaqom va Xorazm maqomlari tarkibidagi maqomlardan biri. Iroq maqomining tovushqatori va lad qurilmasi, unga mos cholg'u va ashula yo'llari bir necha bor o'zgarib borgan. Shashmakrmdagi Iroqning (Yu. Rajabiy yozuvida) mushkilot (cholg'u) bo'limi - Tasnif, Tarje, Muhammas, Saqil-1, Saqil-2, Saqili Kalon, nasr (ashula) bo'limi - Saraxbor (6 taronasi bilan), Muxayyar (4 taronasi bilan), Chanbar, Ufar qismlarini o'z ichiga oladi. Iroqning ashula yo'llarida Muxayyari Chorgoh namudi va Zebo pari avji qo'llaniladi. Muxayyari Iroqning 1- va 2- taronalari Chorgoh yo'llariga yaqin. Chanbari Iroq sho'basi alohida ashula yo'li bo'lib, Suvora yo'llarini eslatadi.

"Iroq" maqomi yo'llarida yaratilgan xalq cholg'u va ashula yo'llari o'ziga xos ohanglarga boy bo'lib, odatda ayriliq, intizorlik his-tuyg'ularini aks ettiradi. Bastakorlar "Iroq" maqomi yo'llari asosida "Cho'li Iroq", "Surnay Irog'i", "Chanbari Iroq", "Mushkiloti Iroq" va uning ufori, "Toshkent Irog'i" kuy va ashulalarni yaratgan."Iroq" maqomi yo'llarida o'zbek kompozitorlaridan

---

[353].Lahn - Ovoz, kuy, ashula, sayrash.

[354].Shahnoz - Shashmaqom yo'llaridan biri.

[355].O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. - Toshkent sh, 1 – jild 2000 – yil.

V. Uspenskiy “Farxod va Shirin”, R. Glier va T. Sodiqovlar “Layli va Majnun”, S. Yudakov “Maysaraning ishi” operalarida “Iroq” maqomi kuylaridan foydalanishgan.

**Saraxbori Iroq.**

Navoiy g’azali.

Sirishk[356] qonin ayog’ing uchun xino qilayin,
Qabul tushsa qarog’im ezib qaro qilayin.

Aqiqiy[357] la’lingga jon javharin nisor[358] aylay,
Savodi holingg’a ko’z mardumin[359] fido qilayin.

Qaro tenting[360] bila qading xayoli kelsa, vatan,
Munga ko’z ichra yasay, anga jon aro qilayin.

Qadingki, soya solibtur ul oy anga, ya’ni
Ki, ishq ilmin alifbedin ibtido[361] qilayin.

Labini qasdima tishlar, yuziga telmursam,
Boqib turib necha o’z jonimni jafo qilayin.

Ko’ngul qushikim, erur jilvagohi gulshani quds,[362]
Bu damgah donidin oni mubtalo[363] qilayin.

---

[356].Sirishk - ko’z yoshi.
[357].Aqiq - Qimmatbaho qizil tosh.
[358]. Nisor - Sochish, chochqi.
[359].Ko’z mardumi - Ko’z qorachig’i.
[360].Qaro tenting - Qaro holing.
[361]. Ibtido - Boshlash, boshlamoq.
[362].Quds - Poklik, tozalik, muqaddas.
[363]. Mubtalo - Giriftor, duchor bo’lgan.

Navoiyyo, g'amim ahli vara'di n[364] o'lmadi kam,
Qo'y endi, maykada[365] pirig'a iltijo[366] qilayin.

**Tarona I.**

Mashrab g'azali.

Ishqing o'tidin, dilbar, har damda kuyay derman,
Qonim bila, ey jonon, olamni bo'yay derman.

Yuzing bila qoshingdin o'zgaga nazar qilsam,
Xanjar olibon qo'lg'a, ko'zumni o'yay derman.

Mujgon[367] o'qidin dilbar, qonimni to'kar bo'lsang,
Ul sham'i jamolingg'a parvona[368] bo'lay derman.

Mashrab seni deb, dilbar, kechti ikki olamdin,
Rahm aylagil, ey jono, birgina ko'ray derman.

**Tarona II.**

Xofiz g'azali.

Xirqamni[369] garov, ko'ygum, bir kosa sharob avlo,[370]
Bema'ni nasixatdin menga mayi nob[371] avlo.

Bir sen kabi dilbardin ko'nglimni uzolmasman,

---

[364].Vara' - Man' qilingan ishlardan chekinish, parhezkorlik.
[365].Maykada - Mayxona, ichkilik ichiladigan joy.
[366]. Iltijo - Yalinish, yolvorish, sig'inish.
[367].Mujgon - Kipriklar.
[368].Parvona - Chiroq va sham atrofida auladigan kapalaklar.
[369]. Xirqa - Shayx va darveshlarning maxsus kiyimi, janda.
[370].Avlo - Yaxshiroq, tuzukroq.
[371].Mayi nob - Toza va tiniq may.

Sendan bosh agar tortsam, bo'ynimga tanob[372] avlo.

**Tarona III.**

Muazzam g'azali.

Aduvlardin[373] qochib uzlat[374] yo'lini tutmasam bo'lmas,
O'zimni yaxshilarni suhbatiga qotmasam bo'lmas.

Bu nafsi sarkashing[375] doim g'alat yo'llarga boshlaydur,
Qanoatdin yugan solib jilovdin[376] qoqmasam bo'lmas.

Xuruj[377] aylab ko'ngul taxtiga kelsa ishq savdosi,
Anga peshkash[378] uchun jonimni hadya qilmasam bo'lmas.

**Tarona IV.**

Munis g'azali.

Alam chekding chu husn avjiga yuzing oftob aylab,
Uzoring[379] zarrasi bo'ldilar oy, kun iztirob[380] aylab.

Baho qilsang agar vaslingg'a jonim javharin,[381] ey sho'x,
Berurmen bo'lsa yuz jonimu mingdin bir hisob aylab.

---

372.Tanob - 1. Chilvir ip, arqon.2.Yuza, satx o'lchovi.
373.Aduv - Dushman, yov.
374.Uzlat - Bir tarafga chekinish, kishilardan chetlanish.
375.Sarkash - Bosh bermas, o'jar, yo'lga kirmas, itoatsiz.
376.Jilov - Yugan tizgini
377.Xuruj - Chiqish, tashqari chiqish, bosh ko'tarish.
378.Peshkash -Tortiq, tuhfa, sovg'a.
379.Uzor - Yuz, bet, chakka.
380.Iztirob - Azob, uqubat.
381.Javgar - Qimmatbaho tosh.

Davodur no'shi[382] vasling oshiqi mahjur[383] dardig'a,
Davo etkurki o'tmishmen hajring[384] xarob[385] aylab.

Netong bo'lsa damimdin dudlar[386] har lahza soid kim,[387]
Nihoni[388] bog'lar ko'nglimda o'rtarsen azob aylab.

Gahi Majnun kibi, Munis, kularmen, goh yig'larmen,
Meni o'z holima qo'ymas bu davron inqilob[389] aylab.

**Tarona V.**

Kuydirasan bizni sarvinoz, yoray,
Yondirasan, bizni shirin yor, yoray,
Bir qo'limda jomim bor, bir qo'limda paymona.[390]
Aqlimni tamom oldi, shu ko'zlari mastona.

**Tarona VI.**

Munis g'azali.

Ko'yinda[391] qilay desam gadolig',
Derlar senga bormu podsholik.
Tark[392] aylading ahli oshnoni,
Begonag'a aylab oshnolig'.

Har ne sitam[393] o'lsa qilg'il, ey charx,[394]

---

[382].No'sh - Totli, shirinta'm, chuchuk.
[383].Mahjur - Ayrilib qolgan,hijronda qolgan, uzoqlashgan.
[384].Hajr - Ayriliq, judolik, etisha olmaslik.
[385].Xarob - Ayanchli, tushkin.
[386].Dud - Tutun.
[387].Soid - Qo'lga kirita olmoq.
[388].Nihoni - Yashirin.
[389].Inqilob - O'zgarish.
[390].Paymona - May piyolasi, qadah to'la may.
[391].Ko'y - 1.Ko'cha.2.Mahalla.
[392]. Tark - Tashlash, voz kechish.
[393] Sitam - Zulm, jabr, adolatsizlik.

Solma arog'a vale judolig'.

Munis necha nuqta ko'p surarsen,

Kam bo'lsa mato' o'lur bahilig'

## SAVTI USHSHOQ TARKIBIY QISMLARI BILAN.

**Ushshoq** (arabcha — oshiq so‘zining ko‘pligi) — O‘n ikki maqom tizimida birinchi maqom[395]. Lirik kuy va ashulalardan iborat bo‘lgani uchun Ushshoq deb nom olgan. Qadimiy risolalarda Ushshoq **Ummul advor** (Maqom davrlari onasi) va Tarona deb ham atalgan. Ushshoq O‘n ikki maqomda lad sifatida ham ma'lum bo‘lib, uning tovushqatori hozirgi miksolidiy ladiga moye keladi. O‘n ikki maqom tizimidagi 24 murakkabotdan biri — Ushshoqi Moya Ushshoq maqomi va Moya ovozasi pardalari asosida yaratilgan.O'zbek, tojik musiqa merosida Ushshoq mustaqil maqom sifatida yetib kelmagan. Shashmaqomning Rost maqomi tarkibida bir necha sho'ba va qismlar mavjud bo'lib, ular Muhammasi Ushshoq (cholg‘u qism), Talqini Ushshoq, Nasri Ushshoq, Ufari Ushshoq, Savti Ushshoq (6 qismli) deb nomlangan.

Ushshoq ashula yo‘llari ancha murakkab, avjlarida Namudi Uzzol va Namudi Muhayyari Chorgohdan foydalanilgan. Ushshoq ashula yo‘llari xalq orasida keng tarqalgan. O‘zbek va tojik bastakorlari Ushshoqning turli variantlarini yaratgan: Hoji Abdulaziz Abdurasulovning "Samarqand Ushshog‘i", Sodirxon Bobosharifovning "Sodirxon Ushshog‘i", shuningdek, "Qo‘qon Ushshog‘i", "Toshkent Ushshog‘i" va hokazo. Bu Ushshoq yo‘llari bir xil doyra usulida ijro etiladi. Ushshoqning patnusaki varianti va surnay yo‘llari ham keng tarqalgan. Ushshoq yo‘llari jozibali va ta'sirchan. Ularning boshlanish jumlalari boshqa maqom va sho‘’balarda namud sifatida ham qo‘llanilib, Namudi Ushshoq deb ataladi. Ushshoqdan, asosan, Buzruk va Rost maqomi sho‘’balarida, yirik shakldagi og‘zaki professional musiqa asarlarida, shuningdek, bastakor va kompozitorlar ijodida (jumladan, R. Glier va T. Sodiqovning "Layli va Majnun", "Gulsara" operalarida, V. Uspenskiy va keyinchalik Yu. Rajabiyning "Farhod va Shirin" operasi va musiqali dramalarida, M. Ashrafiyning "Dilorom" operasida va boshqa ko‘pgina asarlarida) ham foydalanilgan.

**Ashula yo‘li** – 1) Cholg‘u kuylarining ashula yo‘llari. Macalan: bastakor Imomjon Ikromov moslagan "Munojot", "Cho‘li Iroq", "Mushkiloti Dugoh" singari cholg‘u kuylarning ashula varianti;

---

[394].Charx - Taqdir, tole, falak.

[395] O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. - Toshkent sh. 2001 – yil. 3 tom 195 – bet.

2) O‘zbekistonning turli joylarida hofizlik maktablariga xos ijrochilik-ijodchilik an’analari. Masalan: Buxoro-Samarqand Ashula yo‘lilari, Xorazm Ashula yo‘lilari, Farg‘ona-Toshkent Ashula yo‘lilari va hokazo;

3) Atoqli hofizlarning ijrochilik-ijodchilik uslubiga xos asarlar. Masalan: "Ushshoqi Hoji 1–P" (Hoji Abdulaziz Abdurasulov talqinida tanilgan "Ushshoq" yo‘llari), "Ushshoqi Sodirxon" (Sodirxon Bobosharifov yo‘li), "To‘ychi hofiz Ushshog‘i" (Mulla To‘ychi hofiz Toshmuhamedov yo‘li).

**Savti Ushshoq.**

Furqat g’azali.

Agar har lahza sendin ko’rmagim yuz ming jafo bo’lsun,

Aning har qaysi(sin) o’rnig’a mendin ming vafo bo’lsun.

Bu jonkim umrlar jism ichra tinmay tarbiyat qildim

Umudim buki, jono, bir kuni sanga fido bo’lsun.

Ko’zum kim kechalar bedorlig’idin[396] ranjlar[397] chekti,

U qilg’on xizmatig’a sanga bir yo’l zori po bo’lsun.

Skandar[398] shavkati birla Faridun taxtig’a bermas,

Eshiging zarra tufrog’in agar oshiq gado bo’lsun.

Agar olam g’amidin har kishi topmoq amon istab,

Erur olamg’a sarmoya[399] g’amingga oshno bo’lsun.

Karam qil, Furqati dilxastani[400] ko’yingda o’lturkim,

---

[396].Bedor - Uyg’oq,xushyor.
[397].Ranj - Mashaqqat,qiynalish,og’riq.
[398].Skandar - Iskandar Zulqarnayn.
[399].Sarmoya - Asosiy manba, asos.

Bosib o'tmoqqa qabrig'a yo'ling ustida jo[401] bo'lsun.

**Savti Ushshoq Talqinchasi.**

Atoyi g'azali.

Soqiyo[402] keltur mayi gulgulki xush damdur bu kun.
Olami farxundau[403] navro'zi olamdur bu kun.

Qomati gulgun chamanlar sahnida ta'zim uchun.
Soqiyi gulrux bikin sarv[404] oldida xamdur[405] bu kun.

Har kishiga kim muyassardur[406] parivash[407] yor ila,
Jur'ae[408] no'sh aylamak- hoshoki olamdur bu kun.

Kimgakim bo'lsa safoli[409] birla maydin jur'ae,
Ushbu to'qqiz shishadin ko'nglig'a ne g'amdur bu kun.

Salsabilu[410] kavsaru[411] moi moin keltursalar,
Jomi moy majlisda barchadin muqaddamdur[412] bu kun.

Ey Atoiy bo'lma g'ofil,[413] bir nafas hamdam tila,

---

[400]. Dilxasta - Ko'ngli ezilgan, dild vayron.
[401]. Jo - Joy, o'rin, makon.
[402].Soqiy - May quyuvchi, kosagul.
[403].Farxunda - Qutlug',saodatli,baxtli, quvonchli.
[404].Sarv - To'g'ri,tik o'sadigan, qishin yozin ko'm-ko'k daraxt.
[405].Xam - Egilgan, bukilgan.
[406].Muyassar - Osonlik bilan yuzaga chiqqan.
[407].Parivash - Pariga o'xshash, go'zal.
[408].Jur'a - Bir yutum, bir qultum.
[409].Safoli - Yorug'lik, ravshanlik, porloqlik.
[410].Salsabil - Toza, tiniq va laziz oqar suv.Jannatdagi buloq nomi.
[411].Kavsar - Jannat bulog'i, Havzi Kavsar.
[412].Maqaddam - Birinchi o'ringa qo'yilgan.

Umrni hamdam[414] kechurmaklik base kamdur bu kun.

**Savti Ushshoq Chapandozi.**

Navoiy g'azaliga Avaz O'tar muxammasi.

Visoli ichra bermakka murodim komyob[415] aylab,
Raqibin rashk o'tig'a bag'rini yaksar[416] kabob aylab,
Manga lutfu inoyatu[417] karamlar behisob aylab,
Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob[418] aylab,
Xiromi[419] sur'atidin gul uza xaydin gulob[420] aylab.

Paridek jilva birla ko'rguzib chobuklik[421] ul dilbar,
Etushdi aylabon behaddu son nozu tag'ofillar,[422]
Olurg'a xasta ushshoq[423] ahlining jonini sar-to sar,
Chekib mujgon shabravlar[424] kibi jon qasdig'a xanjar,
Beliga zulfu anbar[425] boridin mushkin tanob aylab.

Ko'rub boshimda olamu baliyat[426] toshini xirman,
Qilib mehru vafovu marxamat rasmini uldan fan.

---

413.G'ofil - G'aflatda qolgan, bilmay qolgan, bexabar.
414.Hamdam - Ulfat, birga yuruvchi, o'rtoq.
363.Komyob - Maqsadiga erishgan, baxtiyor.
416.Yaksar - Bir boshdan, birdan,birakay.
417.Inoyat - Mehribonlik,marhamat, iltifot.
418.Shitob - Oshiqish, shoshilish.
419.Xirom - Chiroyli yurish.
420.Gulob - Atirgul suvi.
421.Chobuklik -Chaqqon,tez, ildam chavandoz.
422.Tag'ofil - Bilib bilmaslikka solish.
423.Ushshoq - Oshiqlar.
424.Shabravlar - Kechasi kezuvchi,tunkezar.
425.Anbar - Xush isli, xushbo'ylik.
426.Baliyat - Balolar, ozorlar, mashaqqatlar.

Dedi, la'li labin xandon etib, ul sho'xi siymin tan.[427]
"Ki, ey zoru balokash oshiqim mensiz nechuktursan?"
Men o'ldim lol, ayta olmayin mayli javob aylab.

Agarchi men bila may ichgali ul beibo[428] quydi,
Vale ag'yor[429] elin jomig'a ham beintiho[430] quydi,
Maishat kosasiga go'iyo obi[431] baqo[432] quydi,
Chiqordi shishai may, dog'i bir sog'ar to'lo quydi,
Ichib tutdi manga yuz nav' nozoso itob[433] aylab.

Qilib komicha[434] davron kimsani bu charxi axz ar[435] toq,
Avaz yanglig'[436] bo'lur sarmast ham bexushu, bexudroq,[437]
Esa yoru anisi[438] borxo bir sho'xi siymin[439] soq,[440]
Anikim eltkay vasl uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek netar to subhi mahshar[441] tarki xob[442] aylab.

---

427.Siyman tan - Oq badan, oppoq, go'zal.
428.Beibo - tortinmaydigan, uyalmaydigan.
429.Ag'yor - Begonalar, yotlar, raqiblar
430.Beintiho - Poyonsiz, nihoyasiz.
431.Ob - Suv.
432.Baqo - Boqiylik, adabiylik borlik.
433.Itob - Qahr, g'azab, qiynoq.
434.Kom - Tilak, istak, maqsad.
435.Axzar - Ko'm-ko'k, yam-yashil.
436.Yanglig' - Singari, o'xshash.
437.Bexud - Xushsiz, o'zidan ketgan.
438. Anis - Ulfat, do'st.
439.Siymin - Oq badan.
440.Soq - Boldir.
441.Mahshar - Qiyomatda odamlar to'planadigan goy.
442.Xob - Uyqu.

**Savti Ushshoq Qashqarchasi.**

Furqat g'azali.

Sen kabi, ey sho'x bir jon ofati[443] jonon qani?
Ishvada[444] oshubi[445] dahri[446] fitnai[447] davron qani?

Istasam og'zing kabi bir g'unchami gulshanda bor?
Ko'zlaringdek nargisu xatting[448] kabi rayhon qani?

Xushi husningdek nazoratlik erur qaysi chaman,
Qomatingdin sarvi bo'lgan gulshani imkon qani?

Deb eding, o'lganda ham ruhingga aylarman vafo,
Voykim, buzding tiriklikda, o'shal paymon[449] qani?

So'rg'oli g'amdiyda holim notavon[450] ko'nglum uchun,
Baytul-ahzonimg'a[451] bir kun bo'lganing mehmon qani?

Ro'zg'orim tiyra[452] ham telba soching savdosidin,

---

[443].Jon ofati - jonni ofarga soluvchi,o'ta go'zal mahbuba.
[444].Ishva - Ayollarning nozli maftun etuvchi harakati.
[445].Oshub - Ko'ngilga g'avg'o soluvchi.
[446].Dahr - Dunuo, olam, zamon, davr.
[447].Fitna - To'polon, g'avg'o,ig'vo,bizilish.
[448].Xat - Ayollar labi ustidagi mayin tuklar.
[449]Paumon - Ahd, vafo, va'da.
[450].Notovon - Kuchsiz, zaif, bo'sh, epsiz.
[451]. Baytul ahzon - G'am uyi, g'amxona, qayg'u uyi, kulba.

Furqatiy oshuftadek[453] bir umr sargardon[454] qani?

**Savti Ushshoq Soqinomasi.**

Munis g'azali.

Yangi oy emastur hilolingcha [455]xo'b.[456]
Quyosh bo'lmog'ondek jamolingcha xo'b.

Masiho[457] dami jon berur elga, lek,
Emas ruhparvar[458] maqolingcha xo'b.

Qizil gulki xushrangu nozik erur,
Emas toza ruxsori olingcha xo'b.

Riyozi bihisht[459] ichra yo'q salsabil,[460]
Yuzing gulshanida zilolincha xo'b.

Emas xu'b zulfing kibi sunbuli,[461]
Dog'i sarvi zebo niholingcha xo'b.

Junun[462] ichra Majnun emas, ey pari,
Yo'lingda bu oshufta[463] holingcha xo'b.

---

[452].Tiyra - Qorong'u, qora.
[453].Oshufta - Parishon, tarqoq, to'zg'igan.
[454].Sargardon - Sarson, ovora, boshi aylangan.
[455].Hilol - Yangi ko'ringan oy.
[456].Xo'b - Yaxshi, chiroyli, go'zal, durust.
[457].Masih - Iso payg'ambar.
[458].Ruhparvar - Ruhlantiruvchi, parvarishlovchi.
[459].Bihisht - Jannat bog'i.
[460].Salsabil - Toza, tiniq va laziz oqar suv.
[461].Sunbul - Xushbo'y qora rangli o'simlik.
[462].Junun - Jinnilik, aqldan ozganlik.
[463].Oshufta - Parishon,tarqoq, to'zg'igan.

Agarchi farahbaxsh[464] erur jomi jam,

Yo'q ey soqiy, sing'on safolincha xo'b.

Pariyu maloik[465] emas, Muniso,

Sening yori farxunda folincha[466] xub.

**Savti Ushshoq Uforisi.**

Uvaysiy g'azali.

Bir pari payka[467]r sumanbar[468] yora oshiq bo'lmisham.

La'li[469] dilkash, so'zi xush, dildora oshiq bo'lmisham.

Maddi ohim[470] ko'kdadur, sorig' yuzimg'a ashki[471] ol,

Ul qadi ra'no,[472] yuzi gulnora oshiq bo'lmisham.

Qilma gulqanding[473] ila za'fim[474] ilojin, ey hakim,[475]

Menki, gulbargi shakar guftora[476] oshiq bo'lmisham.

Nolayu afg'on[477] etarmen qumridek, bulbul kabi,

Na uchun kim sarv gul ruxsora[478] oshiq bo'lmisham.

---

464.Faraxbaxsh - shodlantiruvchi, quvontiruvchi.
465.Maloik - Farishtalar.
466.Farxundafol - Baxtiuor, Baxtli.
467.Paykar - Xaykal, jussa, gavda.
468.Sumanbar - Oqbadan.go'zal.
469.La'li - Qimmarbaho qizil tosh,sevgisining qizil labi.
470.Oh - Dardli, alamli oh.
471.Ashk - Ko' yoshi.
472.Ra'no - Go'zal, chiroyli, yoqimli.
473.Gulqand - Atirgul yaprog'idan pishirilgan xolva.
474.Za'f - Kuchsizlik, holsizlik, kasallik.
475.Hakim - 1.Tabib.2.Faylasuf, donishmand.
476.Guftor - So'z, so'zlash, gapirish.
477.Afg'on - Qayg'u alamdan nola qilish.

Lablaringdin to ko'runmish xush inju[479] tishlaring,

La'l birla ul duri shahvora[480] oshiq bo'lmisham.

Bas, ki sargardon[481] quyun yanglig' yugurmakdur ishim,

Ishq vodisig'a men ovora oshiq bo'lmisham.

Vaysidin xush istamaslik yo'q munosib, ne uchun,

Bir pari paykar, sumanbar yora oshiq bo'lmisham.

**Samarqand Ushshoqi.**

Zebunniso g'azali.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi.

Zebunniso begim 1643-yilda Dehli shahrida tug'ilgan. 1721- yilda vafot etgan. Shoira, ma'rifatparvar.[482] Boburiylar sulolasidan Avrangzebning qizi. Onasi Dilrasobonu Gulbadan begimning avlodlaridan. Bareliy («Tazkirai shoiroti urdu» -«Urdu shoirlarining tazkirasi»), Sherxoni Ludiy («Mirot ul-xayol» - «Xayol oynasi»), Hakimxon To'ra («Muntahab ut-tavorix» - «Tanlangan tarixlar»), Fazliy («Majmuai shoiron» - «Shoirlar majmuasi») va boshqa tarixchi va tazkiranavis olimlar asarlarida Zebunniso begim hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Otasi Avrangzeb qizida she'r va shoirlikka mayl sezgach, o'sha davrning mashhur olimi Mullo Muhammad Sayd Ashraf Isfaxoniyni unga muallim qilib tayinladi. Zebunniso begim bu olimning tarbiyasida zabardast shoira, olima, sozanda va xattot bo'lib voyaga yetdi. So'ngra ilohiyotga oid bir asar yozib, uni shu ustoziga bag'ishladi. Zebunniso begim o'zbek, fors, arab tillarining sarfu nahvi (morfologiya va sintaksis)ni o'zlashtirgan. Xusrav Dehlaviy, Navoiy, Bobur asarlarini sinchiklab o'rgangan. Hindiston olimlari, shoirlari va san'at ahllariga ko'p g'amxo'rliklar qilib, o'z zamonida ilm va san'atning rivojlanishiga zo'r

---

[478].Ruxsor - Yuz, chexra, qizil yuzli.
[479].Inju - Marvarid.
[480].Shahvor - Yirik va a'lo dur.
[481].Sargardon - Sarson, ovora.
[482]. Ozbekiston Milliy Entsiklopediyasi.

ta’sir qilgan. O’sha zamonning ko’p olimlari shaxsan Zebunniso begimdan maosh olar edilar. Shuning uchun ham tarixchilar unga yuksak baho berib, Zebunniso begim otasi hukmdorlik bilan qozona olmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan deb ta’kidlaydilar.

Shoira ijodining shakllanishi va kamolga yetishida adabiy muhitning ta’siri kuchli bo’lgan. Akasi A’zamshohning adabiyotga qiziqishi, uyida bo’lib turadigan mushoiralar unda she’riyatga havas uyg’otadi. Yetuk shoir va olimlar bilan tanishadi. Ayniqsa, Zebunniso begimning Bedil bilan mushoiralar qilishi ikki buyuk talant mehnatiga barhayotlik bag’ishladi.Shoira murakkab, ziddiyatli bir davrda yashab, ijod etdi. 19 yoshidayoq ko’p ayanchli voqealarning shohidi bo’ldi. Avrangzeb saltanat uchun kurashda akasi Doroshukuh, ukalari Murodbaxsh va Shohshujo’larni yengib, taxtni egallaydi (1658-yil), kasalmand otasi Shohjahonni 16 yil uy qamog’ida asraydi. O’z o’g’li Akbarni taxt uchun kurashda ayblaydi. Qizi - Zebunniso begimni ham bu ishda hamfikr hisoblab, Dehlidagi Salimgarhi qo’rg’onidan chiqarmaydi. Mamlakatdagi notinch hayot, saltanat uchun kurashning avj olishi shoira dunyoqarashini tubdan o’zgartirdi.

Zebunniso begim ijodida ijtimoiy-falsafiy fikrlar chuqurroq ildiz ota boshladi. Dastlabki she’rlaridayoq tabiat tasviri orqali insonning orzu-umidlarini, adolat va haqiqatni kuyladi. Rostlikni, haqqoniylikni targ’ib qildi, aldamchi, firibgarlardan nafratlandi («Agar jannatni va’da qilsada, u odam so’ziga aldanma…»). Zebunniso begim ijodining ba’zi tomonlari Bedil falsafasiga hamohang. Shoira insonning go’zalligi keltirgan foydali ishida, mehnatida, qadrqimmati uning maqsadida deb biladi.Zebunniso begimning asosiy mashg’uloti she’riyat, musiqa, ilm bo’lgan. U butun huzur-halovatni, taqdir va baxtni, kishilar orzu qilgan jannatni ham kitobda — ilmda, deb bilgan. Lirik she’rlar bilan birga odob va axloqqa oid «Zeb ut-tafosir» («Go’zal tafsirlar»), «Zeb un-nashot» («Nash’alar ziynati») va tasavvuf falsafasiga doir «Munis ul-arvoh» («Ruhlarning sodiq do’sti») kabi risolalar ham yozgan. She’rlari ajdodlarining yurti Markaziy Osiyoda, Hindiston, Afg’oniston, Eron, Pokiston va boshqa Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. G’azallari o’zbek xalqining sevimli qo’shiklariga aylangan. Hoziq, Xiromiy, Nodir, Sobir Abdulla va boshqalar Zebunniso begim g’azallariga muxammaslar bog’laganlar.

**Samarqand Ushshoqi.**

Zebunniso g'azali.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi

Biyoki, zulfi kaju chashmi surmaso injost,
Nigohi garmu adohoyi dilrabo injost.

Karashma–tig'u mija–xanjaru nigah–almos,
Shahodat dar talabi, dashti Karbalo injost.

Agar behisht dihandand, firebi kas naxuri,
Qadam zi maykada berun manehki, jo injost.

Kitobxonai olam varaq-varaq justam,
Xati tu didamu guftam ki: "Muddao injost".

Zakoti xusn agar medihi ba royi Xudo,
Biyoki, Zebunniso ham chu man–gado injost.

## KO’ZI QARO BU YERDADIR.

M.Muinzoda tarjimasi

Zulfi halqa-halqau ko’zi qaro bu yerdadir,
Boqishi shafqatli-yu, nozikado b u yerdadir.

Kiprigi — xanjar, karashma — tig’u ko’z tashlash yashin,
Gar shahid bo’lmoqchi ersang, Karbalo bu yerdadir.

Bersa ham jannatni, aldanma kishilar so’ziga,
Bir qadam mayxonadan jilmaki, jo bu yerdadir.

Ka’baga bormoq na hojatdur,agar dil ovlasang,
Behuda yo’llar kezar bu xalqu, jo bu yerdadir.

Husniga boshdin-oyoq boqqanda har bir nuqtadin,
Dilni tortib har karashma,derki: jo bu yerdadir.

Izladim bir-bir jahonda har necha bo’lsa kitob,
Ko’rdimu xattingni dedim: «Muddao bu yerdadir!»

Istasang husning zakotini berarga mustahiq,
Kelki,bu Zebunniso yanglig’ gado bu yerdadir.

**Qo’qon Ushshog’i.**

Yusuf Saryomiy g’azali.

Yusuf Saryomiy (taxallusi; asl nomi Yusuf mulla Abdushukur o‘tli)1840-yilda Chimkent viloyati Saryom (Sayram) qishlog‘ida tug’ilgan.[483] XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari o‘zbek adabiyotining vakili. Shoir muhr yasash va xattotlik qilish bilan hayot kechirgan.Toshkent, Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Samarqand, Toshkent, Qo‘qon adabiy harakatchiligida faol qatnashgan. "Beklar begi" madrasasida o‘qigan va unga atab she’rlar yozgan ("Dar ta’rifi manzari madrasai Bek az Yusuf"). Yusuf Saryomiy xattotlik - kotiblik bilan kun ko‘rgan, kosibchilik, muhrdorlik bilan ham shug‘ullangan.

Shoir she’rlari hayotligida "Bayoz" (1893-yil), "Armug‘oni Xislat" (1911-yil), "Bayozi Muhallo" (1912-yil), "Bayozi Haziniy" (1912-yil) kabi bayozlarda bosilgan. 1914 - yil Tavallo Yusuf Saryomiy she’rlarini to‘plab, "Devoni Mavlavii Yusuf Saryomiy" nomi bilan nashr etgan. Sayram tarixi haqidagi xilma xil ma’umotlarga boy, biroq an’anaviy diniy mazmunda bitilgan "Risola"ni Yusuf Saryomiyga nisbat beradilar. Xalq orasida shoirning g‘oyat hozirjavob, nohaqlikka murosasiz ekanligini tasdiq etuvchi ko‘plab rivoyatlar, afsonalar yuradi. Ko‘plab g‘azallari ("Yaliyali" kabi) hozir ham el orasida mashhur.Yusuf Saryomiy nomida ko‘cha va maktab bor. Shoirning ijodiy merosi Tavallo tomonidan tuzilgan «Devoni Mavlaviy Yusuf Saryomiy» (1914-yil)da jam bo‘lgan.

O’zbekiston xalq hofizi, maqomdon san’atkor Mahmudjon Tojiboevning Yusuf Saryomiyning “Qaro ko’zingni asiri mudom” so’zlari bilan boshlanadigan g’azaliga bastalangan “Qo’qon Ushshog’i” ashulasi haqidagi ma’lumatlarini havola qilamiz.“Yusuf Saryomiyning ushbu g’azaliga aytilgan “Qo’qon Ushshog’i” ashulasi haqida ustozlarimizdan O’zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov “Bu asar aslida, katta ashula tarzida Beshariqlik hofiz, katta ashulaning mohir ijrochisi Hamroqul Qori tomonidan aytilgan.Keyinroq Hoji Abdulaziz Abdurasulov bu ashulani namudlari bilan qayta ishlagan, hamda Qo’qonlik hofiz Hamroqul Qori bu ashulani dastlab ijro etganligi, hofizning Qo’qonlik ekanligi sababli ushbu ashulaga “Qo’qon Ushshog’i” deb nom bergan”.Bugungi kunda “Qo’qon Ushshog’i” ashulasi eng ommaviy ashula bo’lib, barcha ustoz hofizlar va iqtidorli xonandalar tomonidan sevib ijro etilmoqda.

---

[483]. O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.

## Qo'qon Ushshog'i

Yusuf Saryomiy g'azali.

Qaro ko'zingni asiri[484] mudom surmayi noz,
Zamona ko'rmadi bir sen kabi qaddi tannoz.

Chamanda sarv qaddingdek latif[485] emas shamshod,[486]
Yuzing guli kabi rizvon[487] guli emas mumtoz.[488]

Yuzingni ravzada[489] nasrin [490]xayol aylasa kam,
Latofatingni[491] Eram[492] bog'ida pari desa oz.

Raqam chekarda xati anbaringni[493] kotibi sun,
Beribdur la'lingga yoqut[494] suvi bilan pardoz.[495]

Xumor bodamen ey soqiy tut qadah menga,
Etishdi muvsumi gul mutrib[496] et taronani soz.

Ichirdi ilgida[497] gulrux binafsha[498] jomida may,

---

[484].Asir - Tutqun.
[485].Latif - Yumshoq, muloyim,go'zal,kelishgan.
[486].Shamshod - Sarvga o'xshagan xushqomat va chiroyli daraxt.
[487].Rizvon - Jannat.
[488].Mumtoz - Saralangan,saylab olingan.
[489].Ravza - 1.Bog', gulbog'.2. Jannat.
[490].Nasrin - Oq ochiladigan bir xil gul.
[491].Latofat - Latiflik, go'zallik, noziklik, muloyimlik.
[492].Eram - Afsonaviy go'zal bog'.
[493].Anbar - Xushbo'ylik.
[494].Yoqut - Qimmatbaho qizil tosh, qizil may.
[495].Pardoz - Usta, xunarmand, bezovchi.
[496].Mutrib - Cholg'uchi, sozanda, ashulachi.
[497].Ilgi - Qo'li.

Bo'l emdi Yusuf uchun andalib[499] nag'mataroz.[500]

**Sodirxon Ushshoq.**

A. Jomiy g'azali

Sodirxon hofiz Bobosharipov musiqasi.

Bo yak karashma Zulayho vashe dili moro,
Chunon rabudki Yusuf dili Zulayhoro.

Fig'on ki murg'i dilam sayda tifli nodoni,
Ki boli par zadanash murg'i rishta barporo.

Sujudi hoki rahat burdanam tamanno bud,
Ba hok mebaram imro'z in tamannoro.

Ba on takallumi shirinlabe ki jon baxsha,
Ba dam zadan notavonad kase Masiyxoro.

Sharori siynai Majnun zi otashi Layli,
Kabob soxt hama ohuvoni sahroro.

Karashmahoi g'izoloni mast mebahshad,
Farog'at az du jaxon oshiqoni shaydoro.

Chi sud pandi kason chi na biradzi dilam,
Havoi qaddi diloro ro'yi zeboro.

---

[498].Binafsha - Sapsar rang.
[499].Andalib - Bulbul.
[500].Nag'mataroz - Cholg'u chaluvchi, kuylayotgan.

Haloki Jomiyi dilhasta xost on korast,

Ba shaklu sheva suvoroni sarvi boloro.

Ushshoqi Sodirxonning barchaga tanish bo'lgan mazkur matni, mana necha yuz yildirki, yuksak qo'shiqchilik san'atining o'lmas qanotlarida, hofizlarning mavjlarida avloddan- avlodga meros bo'lib o'tib kelayotir.[501] Alisher Navoiyning ustozi va piri Abdurahmon Jomiyning sehrli qalamiga mansub bo'lgan bu ajib g'azal, oradan sal kam 600 yil o'tibdiki, tirik, mudom yosh va navqiron.Yana bir hayratlanarli tomoni shundaki, bu g'azal nima uchundir necha- necha zamonlar o'tib ketibdiki, o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Holbuki, Jomiy qalamiga mansub yuzlab g'azal va lirik asarlar, dostonlar allaqachon imkon qadar asliga yaqin qilib o'zbek tiliga o'girilgan.

Biroq "Bo yak karashma ..." davr shamaollarini pisand qilmay, tarjima etilmagan bolsa ham, o'zining g'olibona yurishini davom ettirmoqda.Demak Ushshoqi Sodirxon shu turishida ham qo'shiqsevar qalblarga tushunarli, bamisoli o'z ona tilimizda bitilgan Erkin Vohidovning she'rlaridek sodda va yoqimlidir. Nihoyat yaqinda bu mumtoz g'azalning o'zbekcha tarjimasi dunyoga keldi. Uni davrimizning jur'atli shoiri va mutarjimi,O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirdi.G'azalning nazmiy tarjimasi quyidagicha.

Karashma[502] birla mast aylab parivas h bizni bir oni,

Chunon[503] oldi ko'ngilni, o'ylakim Yusuf Zylayhoni.

Karashmalarkim, aylar esa ko'zlari etar jon baxsh,

Ayirgan ikki olamdan hama ushshoqi[504] shaydoni.

Olovlar tashlamish Majnun dilimga otashi Layli,

Kabob etmish nigohi ohularni, ahli sahroni.

---

[501].“Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani?” - Toshkent sh.2019 y.S. Mannopov,N.Soliyev.

[502].Karashma - Nozik ko'z qarashi, jilva, noz.

[503].Chunon - Shu qadar, shunchalar.

[504].Ushshoq - Oshiqlar.

Eshiging tubiga bosh qo'ymagim erdi tamannoyim,[505]
Netaykim, eltaman ruproqqa endi bu tamannoni.

Ko'zim birla borurmen manziling sorig'a, chun joy yo'q,
Olibdir barcha poklar bosh ila ui muiku ma'voni.

Nasihat aylagaylar, besamar, menga asar etmas,
Unutgaymen nechuk ul lolarux, ruxsori zeboni.

Haloki Jomiyi dilhasta istar yor berib oro,
Qarang orasta etmish qaddi mavzun, sarvi boloni.[506]

## Sodirxon hofiz Bobosharipov.

Sodirxon hofiz Bobosharifov hofiz, sozanda, bastakor.[507] Poshsho Oxun hamda Said Buzrukxo'jalar qo'lida tarbiyalanib, xonandalik, sozandalik hamda maqom sirlarini o'zlashtirgan. 20 yoshida xonaqoi hofiz maqomiga muyassar bo'ldi. Farg'ona vodiysi, xususan Qo'qon xonaqoxlarida faoliyat ko'rsatdi. Erkaqori, Madumar Hofiz, sozandatar — karimqulbegi, Ismoil naychi, Domla Halim va Hoji Abdulaziz Abdurasulovlar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilgan. Sodirxon hofiz Bobosharifov "Sar-naqshchi", "Masnaviyxon" sifatida ham tanilgan. Shashmaqom zaminidagi o'ziga xos maqom yo'llari talqini va unga asoslangan bastakorlik maktabini yaratgan; 20 dan ortiq asarlar ijod qilgan: "Ush-shoqi Sodirxon", "Talqinchai Qashqarchai Ushshoqi Sodirxon", "Segoh" I—V turkumi, "Savti Chorgoh Munojoti", "Shahnoz". "Sinaxurush" va boshqa

Sodirxon hofiz Bobosharipov 1847 – yilda Xo'jand shahrida , Qushbegi mahallasida kosib oilasida tug'ilgan.[508]O'g'lining kuylashga bo'lgan mehrini ko'rgan Bobosharif ota uni taniqli, ziyoli san'atkor Buzurgxon to'raga shogird qilib beradi.Bu erda Sodirxon dutor chalish va hofizlik sirlarini o'rgana

[505].Tamanno - Tilak, istak,orzu.
[506]."Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani?" - Toshkent sh.2019 y.S. Mannopov,N.Soliyev.
[507]. Navobaxsh ohanglar - Toshkent sh. 2018 y S. Mannopov.
[508] "Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani?" - Toshkent sh. 2019 y.S. Mannopov,N.Soliyev.

boshlaydi. Keyinchalik shoir Muhammadaminxo'jaga shogird tushib, tanbur chalishni, adabiyot va she'riyatning turli vaznlar tuzilishini, diniy ilmlarni ma'lum darajada egallaydi.Pochchasi Matkarim hofiz esa unga qo'shiq aytish sirlarini o'rgatadi.

O'sha davrda Xo'jandda Zohirxon hofiz, Sulaymon hofiz, To'raxo'ja hofiz, Salohxon hofiz, Karimjon hofiz, ota-bolalar Mirsolih, Mirabdulla, Mirfayoq kabi hofizlar yashar edilar. Yosh Sodirxon ana shunday san'at muhitidan bahramand bo'lib o'sdi. Zehni o'tkirligidan g'azallarni tezda yod olib, ashula yo'llarini juda tez fursatda o'zlashtirib olish qobiliyati bilan ustozlarini hayratga solar edi. Natijada Sodirxon yigirma yoshidayoq mashhur hofiz bo'lib etishdi.

Sodirxon Hofizning uyiga o'sha davrning mashhur hofizlari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov singari hofizlar tashrif buyurishganida xonadon bayramga aylanib ketar edi. Sodirxon hofizning ovozi shunday o'ktam bo'lganki, ko'p marosimlarga tanbursiz borib, qo'shiqlarini ikki qo'lini qulog'iga qo'ygan holda xonaqohiy yo'lida ijro etgan. Sodirxon Hofizning "Amir Nasrulloyi", "Qiyiq", "Qoratong", "Gulyori Shahnoz", "Qari navo", "Dugoh Husayni", "Chorgoh", "Sarparda", "Dilxiroj" ashulalari ijrosi uning nomini mashhur hofizlar qatoriga qo'shgan. Sodirxon hofizning betakror san'atidan bahramand bo'lib, o'sha ummondan suv ichgan qator shogirdlari ustozning ijro etgan ashulalarini yosh xonandalarga etkazishmoqda. Ho'jand muzofotidan etishib chiqqan buyuk hofizlar Tojikiston xalq hofizi Ma'rufxo'ja Bahodirov, hamda Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Nabiyevlarning mumtoz ashula ijrochiligi san'atida xizmatlari bunga misol bo'la oladi.

## O'zbekiston xalq hofizi Jo'raxon Sultonov xotiralaridan.

1941- yilning oxirlarida yozuvchi Komil Yashin rahbarligida Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Karim Zokirov, Ma'murjon Uzoqov,Boborahim Mirzayev, Doni Zokirov, Gavhar Rahimova kabi san'atkorlar bilan birgalikda Jo'raxon Sultonov ikki oy davomida Eronda cheklangan qo'shinlar huzurida o'nlab kontsertlar namoyish qildilar.[509] Tehron shahridagi so'nggi hayrlashuv kontsertiga katta tayyorgarlik ko'rildi. Oldingi qatorlarda Eron davlatining rahbarlari, chet el elchilarining vakillari, ko'zga ko'ringan ziyolilar o'tirishardi. Shular qatorida Eron shahzodasi o'z rafiqasi bilan tashrif

[509]."Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani?" - Toshkent sh. 2019 y.S. Mannopov,N.Soliyev.

buyurgan edi. Komil Yashin Jo'raxon akadan bir-ikkita forsiy g'azallar bilan aytiladigan qo'shiqlar aytib berishni taklif qildi. Jo'raxon aka ustozi Sodirxon hofizdan o'rgangan forsiyzabon ashulalardan ikkitasini ijro etadi.Bularning biri aynan "Sodirxon ushshog'i" edi.

Tomoshabinlar o'zbek hofizining fors tilida bunchalik ravon kuylayot ganini ko'rishib, hayratga tushadilar. Jo'raxon aka talablarga binoan yana bir juft ana shunday qo'shiqlardan aytib beradi. Qo'shiqlar tugagach, oldingi qatorda rafiqasi bilan o'tirgan Eron shahzodasi Muhammad Rizo Pahlaviy Jo'raxon akani o'z huzuriga taklif etadi va qo'lidagi soatini yechib, hofizning qo'liga taqib qo'yadi. Rafiqasi ham barmog'idagi uzugini olib sovg'a qiladi. Jo'raxon aka ushbu sovg'alarni mamnuniyat bilan qabul qilib oladi.Vaqtlar o'tishi bilan shahzoda Eron taxtiga o'tirib, 1957-yilda rasmiy safar bilan Toshkentga keladi va ittifiqo, Jo'raxon akani eslab qoladi.Hofiz bu paytda Marg'ilon shahrida edi. Hukumat rahbarlari maxsus samolyot yuborishib, hofizni oldirib kelishadi. Jo'raxon aka Eron shohining qabul marosimida qatnashib, podsholar huzurida qilinadigan taomillar bilan salom berib, shoh bilan ko'rishadi va forsiyzabon ashulalardan kuylab, yana bir marta shohni xushnud etadi.

Bu o'rinda har bir hayrli ishning ijobiy tomonlari bil an birga, ayrim salbiy holatlari sodir bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik lozim. Gap shundaki, shahzoda bilan birinchi uchrashuvda hofizga taqdim etilgan qimmatbaho sovg'alar bir qancha vaqt o'zining salbiy oqibatlari bilan davom etdi. Natijada ayrim amaldorlar voqeaga siyosiy tus berishib, hatto Jo'raxon akaning qo'shiqlarini radio to'lqinlariga chiqishini ma'lum vaqt taqiqlab ham qo'yishdi.Shoh bilan Toshkentdagi uchrashuvdan so'ng esa ertasi kuniyoq hofizning ashulalari yana avvalgidek radio karnaylarida yangray boshladi.

**Qadimgi ushshoq.**

Furqat g'azali.

Umrzoq Polvon musiqasi.

Nigori dilnavozim,[510] dog'i hijron[511] aylading-ketding,
Firoqing[512] o'tig'a bag'rimni so'zon[513] aylading-ketding.

Qadingni jilvapiro[514] qilding ersa xuri[515] jannatdek,
Hammani qumridek xasratda nolon[516] aylading-ketding.

Asiri[517] ishq bo'lg'onlar hammamiz yig'lashib qoldik,
Muningdek xasratu g'am ichra nolon aylading-ketding.

Safar qilding, shahanshohim, shukuhu[518] saltanat[519] birla,
Quling Furqatni bu g'urbatd a[520] nolon aylading-ketding.

---

[510].Dilnavoz - Ko'ngilni ovlovchi, yoqimli, sevimli.
[511].Hijron - Ayriliq, yordan ayrilib qolganlik.
[512]Firoq - Ayriliq, judolik.
[513].So'zon - Kuygan, kuyib turgan.
[514].Jilvapiro - Jilvagar, jilva qiluvchi.
[515].Xur - Jannatdagi go'zal qizlar.
[516].Nolon - Nola va fig'on etuvchi.
[517].Asir - Mubtalo,berilgan,shaydo,maftun.
[518].Shukux - Shavkat, azamat, ulug'lik.
[519].Saltanat - Sultonlik, podshohlik, hukmronlik.
[520].G'urbat - G'ariblik,kimsasizlik.

**Ushshoqi Xoliy.**

Komil g'azali

Yuzing firoqidin ey, rashki mehr raxshonim.[521]
Qorong'udir kecha-kunduz bu baytul ahzonim.[522]

Uzor[523] shamini bir kecha yoq maqomimg'a,
Fido qilay anga parvonadek[524] kuyub jonim.

Visoli subhida[525] qilsang yuzingni nurafshon,
Munavvar o'lg'usi andin bu shomi[526] hijronim.

Bo'lur ko'zimga ul o't sarvi o'q chaman ichra,
Nedinki qaddu yuzingdur mening gulistonim.

Yuzing quyoshidin ayru gar o'lsa yuz xurshid,[527]
Munavvar o'lmoqi mumkin emas shabistonim.[528]

Janobiga[529] nuchuk aylay havas etishmoqni,
Etushmasa anga Komil baland afg'onim.[530]

---

[521].Mehr raxshonim - yaltiroq, porloq quyosh, toblanuvchi.
[522].Baytul ahzonim - G'am uyi, g'amxona, qayg'u uyi.
[523].Uzor - Yuz, chehra, bet, chakka.
[524].Parvona - Chiroq va sham atrofidaga kapalaklar.
[525].Subh - Tong payti, sahar.
[526].Shom - Kechqurun, qorong'ulik.
[527].Xurshid - Quyosh.
[528].Shabiston - Kechki yotoqxona.
[529].Janob - Ostona, bo'sag'a, dargoh.

**Ushshoq.**

Navoiy g'azali. Mulla To'ychi ijrosi.

Qaro ko'zum, kelu mardumlig'[531] emdi fan qilg'il,
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuzing guliga ko'ngul ravzasin[532] yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Takovaringg'a[533] bag'ir qonidin xino bog'la,
Itingg'a g'amzada [534] jon rishtasin[535] rasan[536] qilg'il.

Yuzing visolig'a etsun desang ko'ngullarni,
Sochingni boshtin-oyog' chin ila shikan[537] qilg'il.

Xazon[538] sipohig'a[539], ey bog'bon, emas mone',[540]
Bu bog' tomida gar ignadan tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub, o'lsam, ey rafiq, meni,
Gulob[541] ila yuvu gul bargidin kafan qilg'il.

---

[530].Afg'on - Qayg'u alamdan nola qilish.
[531].Mardumlig' - Odamlik, insonlik,sahiylik.
[532].Ravza - Bog',gulbog',jannat.
[533].Takovar - Ot bilan yurmoq, kirib bormoq.
[534].G'amzada - G'amgin, qayg'uli.
[535].Rishta - Ip, pishitilgan ip.
[536].Rasan - Arqon, Arg'amchi.
[537].Shikan - Siniqlik,bukiklik,buralish.
[538].Xazon - Kuz, kuz fasli.
[539].Sipoh - Askar, qo'shin.
[540].Mone' - Man' etuvchi, to'siq bo'luvchi.
[541].Gulob - Atirgul suvi.

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,

Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman[542] qilg'il.

## MULLA TO'YChI HOFIZ.

To'ychi Hofiz Toshmuhammedov mashhur o'zbek qo'shiqchisi, hofiz, xalq musiqasi va maqom bilimdoni, Farg'ona va Toshkent ijro san'ati namoyandasi.[543] Mulla To'ychi 1868- yil Toshkent shahrida kosib-to'quvchi oilasida tug'ilgan. Bolaligidan To'ychi otasiga ustaxonada yordam bergan, uning vafotidan so'ng madrasada mardikorlik qilgan, so'ngra mahallada oshpazlik qilgan. 1878 – 84 yillarda o'rta maktabni tamomlagan. Narzixan hofiz, Madumar hofiz va Abduqahhor hofizlarni o'z ustozi deb bilgan. Keyinchalik mahoratli ijroda ulardan ham o'zib ketgan. Tez orada, Mulla To'ychi O'zbekistonning sevimli xonandalaridan biriga aylanib, xalqda To'ychi hofiz nomi bilan mashhur bo'ladi.

1905- yil Moskvadan kelgan mutaxassislar Mulla To'ychi Toshmuhammad ijrosida 20 dan ziyod xalq musiqa ijrosini yozib olishadi, ular orasida: "Ilg'or" (ikki qismi), "Yangi kurt", "Avji kurt", "Suvora" (ikki qismi), "Xisrav" (ikki qismi). Xalqda bu plastinkalar "Mulla To'ychi plastinkalari" nomi bilan atalgan. 1912- yil u vaqtlarda mashhur bo'lgan To'ychi hofizga bag'ishlangan "Armug'oni Xislat" to'plami omma e'tiboriga havola etiladi. U o'zbek shoiri Xislat tomonidan tuzilgan (1882 – yilda tug'ilgan —1945 – yilda vafot etgan). "Armug'oni Xislat" to'plami o'z ichiga koplab shoirlarning asarlarini jamlagan bo'lib, unda 100 dan ziyod she'rlar mavjud. Ularning ko'pi Mulla To'ychi hofiz repertuariga tegishli. To'plam muallifi hofiz kuyga solgan qo'shiqlarni ham saqlab qolgan.

1923 - yil Mulla To'ychi Toshmuhamedov musiqachilar guruhi bilan Moskvadagi Butun Rossiya qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida ishtirok etishadi. Ushbu guruhga o'z davrining taniqli artist va musiqachilari kirgan: Yusuf Qiziq Shakarjonov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umurzoqov, To'xtasin Jalilov va boshqalar. To'ychi hofizni keyinchalik Moskvaga chaqirib, uning ijrosidagi o'zbek xalq qo'shiqlarini yozib olishadi. 1928 - yildan umrining oxirigacha Mulla To'ychi Toshmuhamedov O'zbekiston radio qo'mitasida qo'shiqchi-solist bo'lib faoliyat yuritadi.

1927- yil O'zbekiston jamoati Mulla To'ychi Toshmuhamedovning ko'p yillik ijro faoliyatini keng nishonlaydi. Qo'shiqchiga Mehnat Qahramoni va

---

487, Anjuman - Yig'ilish, majlis.

543.O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.

O’zbekiston xalq qo’shiqchisi unvoni beriladi. 1931- yil Mulla To’ychi taniqli qo’shiqchilar Domla Halim Ibodov va Hoji Abdulaziz Abdurasulovlar bilan 1-Respublika san’at ishchilari yig’ilishida Navoiy so’zlariga yozilgan “Iroq” va bir nechta xalq qo’shiqlarini ijro etishadi. Moskvada bo’lib o’tgan o’zbek san’atining birinchi dekadasida Mulla To’ychi Butunittifoq radiosiga taklif etiladi va magnitofonga “Bayot” hamda “Ushshoq” maqomlari yozib olinadi. Maqomlar va yirik shakldagi ashulalar ijrosi uchun mahoratli tayyorgarlik, yaxshi ovoz, boy musiqiy xotira talab qilingan: u judda katta hajmdagi kuy, usul va matnni eslab qolishi kerak bo’lgan. Toshmuhamedov xalq o’rtasida katta shuhrat qozongan.

V.A. Uspenskiy tomonidan Mulla To’ychi Toshmuhamedov ijrosida maqomlar yozib olingan: “Chorgoh”, “Bayot”, “Ko’chabog’i”, “Suvora” va boshqalar. Ushbu yozib olingan asarlar “O’zbek vokal musiqasi” to’plamidan joy olgan. Otaxon san’atkor “Hurmat belgisi” ordeni va medallar bilan taqdirlangan. Qashqardaryo viloyati musiqali drama teatrining nomi ajoyib xonanda Mulla To’ychi Toshmuhamedov sharafiga nomlangan. Toshkentdagi gramplastinka zavodi ham Toshmuhamedov nomi bilan atalgan. Ulardan keyin “Ushshoq” ashulasini aytgan ko’plab el sevgan xonandalarimizning ijrolari mumtoz musiqamiz ixlosmandlariga manzur bo’lgan.Bular: Yunus Rajabiy, Yunusqori Yusupov, G’ulomjon Hojiqulov, Kamolliddin Rahimov, Sherali Jo’raev, Muhammadjon Karimov, Munojot Yo’lchievadir.

## SAVTI NAVO TARKIBIY QISMLARI BILAN.

**Savt** [544](arab. - ovoz, tovush) - biror cholg‘u yoki vokal musiqa asari pardalari va kuy ohangi asosida yaratilgan kuy yoki ashula. O‘zbek musiqasida muayyan kuy va ashulalar o‘zgacha doira usullariga tushirilib, ularning har xil variantlari yaratilgan va muayyan maqom, xalq kuyi yoki ashulalarining savti deb atalgan. "Savt" so‘zi 16-asrdan boshlab musiqa yozma manbalarida keng qo‘llanilib, O‘n ikki maqom tizimida kichik shaklli ashulalar sifatida sharhlanadi. Shashmaqomsa esa Savtlar maqomlarning 2 - guruh sho’balaridan bo‘lib, yirik shakldagi ashula turkumlarini tashkil qiladi va Savti Sarvinoz (Buzruk maqomida), Savti Ushshoq, Savti Kalon, Savti Sabo (Rostda), Savti Navo (Navoda), Savti Chorgoh (Dugohda) deb nomlanadi.

Shashmaqomdagi Savtlarning shohobchalari Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb ataladi va shu nomli doira usullarida ijro etiladi. Savtlar turli, ayniqsa, turkumli kuy va ashulalarning muayyan qismini ham bildiradi: Savti Ajam - Ajam turkumining 2-qismi; Savti Munojot - Munojot turkumining 2-

[544] O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. - Toshkent sh. 2001 – yil.

qismi (mazkur Savtning surnay yo‘li ham mashhur); Savti Suvora - Suvoralarning 2-qismi; Savti Surnay Dugohi -Surnay Dugohining 2-qismi.

**Savti Navo Talqinchasi.**

Ogahiy g’azali.

Ochmish yuzini zeb[545] ila fasli bahor gul.
Qilmish fazoi[546] bog’ini jannat shior gul.

Gulshan havosin aylamish asru tarab fazo,
Yuz navo rangu bo’yi qilib oshkor gul.

Fayzi xiroming[547] istabon ey xo’blar shahi,
Tun-kun boqib yo’lingg’a chekar intizor gul.

Chok[548] aylabon yaqosini devonalar[549] kibi,
Ko’rmak tilab jamoling erur beqaror gul.

Gulga muruvvat[550] aylabon et sayri bog’kim,
Bo’lsun yuzing nazzorasidin[551] komgor[552] gul.

Nechunki to ochildi jamoling guli sango,
Bir oshiqi shikasta-yu[553] hayronu zor gul.

---

[545].Zeb - Bezak, ziynat, go’zallik,husn.
[546].Fazo - Ochiq er, maydon,kenglik.
[547].Xirom - Chiroyli yurish, harakat.
[548].Chok - Yirtiq, yoriq, tilingan.
[549].Devona - Xushidan ajralgan,aqldan ozgan.
[550].Muruvvat - Mardlik,odamgarchilik,sahiylik.
[551].Nazzora - Qarash, nazar solish, ko’z solish.
[552].Komgor - Baxtli, qudratli,bahramand.

Ko’p qochma Ogahiydin ayo guluzorkim,
Bordur hamisha bulbuli shaydog’a yor gul.

**Savti Navo Qashqarchasi.**

Ogahiy g’azali.

Kelgil ey oromijon oldi qarorim intizor.
Yo’ling uzra tufroq etti jismi zorim intizor.

Tun-kun afg’onlar[554] chekib, el ichra rasvo bo’lmisham,
Qo’ymisham ishqing aro nomusi orim intizor.

Intizorlik torta-torta bo’lmisham zoru zaif,[555]
Ohkim oxir mening ketti madorim intizor.

Aylading ko’p va’da lutfingdin[556] mani shod etgali,
Rahm qilkim olg’usi joni nizorim intizor.

Umrlardurkim, vafoi va’dang ummidi bila,
Kechayu kunduz bo’lubdur koru[557] borim intizor.

Sarg’ayib el ichra manga yuz qizillik qolmadi,
Qildi tabdil[558] ul xazong’a[559] bu bahorim intizor.

---

[553].Shikasta - Siniq,majruh, mag’lub,ozor topgan.
[554].Afg’on - Qayg’u alamdan nola qilish.
[555].Zaif - Kuchsiz, madorsiz.
[556].Lutf - Muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala.
[557].Kor - Ish, mashg’ulot.
[558].Tabdil - Almashtirish, o’zlashtirish.
[559]. Xazon - Kuz, xazon fasli.

Ogahiyni iltifotingdin[560] agar shod etmasang,
Begumon o'lturg'ay oni ey nigorim intizor.

**Savti Navo Soqinomasi.**

Ogahiy g'azali.

Labing to qildi bu hayron tomosho,
Bo'lib jismig'a kirdi jon tomosho.

Emas nargiski[561] har yon ko'z ochibdur,
Qilurg'a gul yuzing bo'ston tomosho.

Qaromas sarv sori toki qildi,
Qadingni qumriyi nolon[562] tomosho.

Qopungg'a[563] yuz qo'yar har tun qilay deb,
Yuzing mehrin mahi[564] tobon tomosho.

Jamolingdin ko'tar burqa'ni[565] tokim,
Mani zoring qilay oson tomosho.

Labing bir kulsa man yuz jon toparman.
Mani qilg'il bo'lib xandon tomosho.

---

[560].Iltifot - Yaxshilik,muruvvat, ko'nglini olmoq.
[561].Nargis - Gulning bir turi, bo'tako'z.
[562].Nolon - Nola va fig'on etuvchi.
[563].Qopu - Eshik, darvoza.
[564].Mahi - Ko'ngilni xush qiluvchi oy.
[565].Burqa -Yuzga tutiladigan parda, niqob.

G’amingda Ogahiy xolig’a boqg’il.

Gar istarsan necha alvon tomosho.

**Savti Navo Uforisi.**

Avaz O’tar g’azali.

Bazmi dilbar xushdurur oshiqqa ag’yor[566] o’lmasa.

O’ylakim bulbulga gul atrofig’a xor[567] o’lmasa.

Yor nomus etmasinkim, kasarti ushshoqidin,

Har matoe kambaho bo’lg’ay xaridor o’lmasa.

Kim vafovu mehr rasmin tutgay erdi ishq aro,

Nozaninlarga jafovu javr atvor[568] o’lmasa.

Har kishikim oshiqi sodiq emasdur borxo,

Chekmak ishi mehnatu anduhu[569] ozor o’lmasa.

Jon qachon topg’ay o’luk jismin visoli yor aro

Oshkoro la’lidin jonbaxsh guftor[570] o’lmasa.

Ohkim mahzun[571] ko’ngul nokom[572] bo’lg’aymu edi,

Yor hajri domig’a[573] bo’yla giriftor[574] o’lmasa.

---

566.Ag’yor - Begonalar, yotlar, raqiblar.
567.Xor - Tikan.
568.Atvor - Yurish,turish,xulq, harakat.
569.Anduh - G’am, qayg’u.
570.Guftor - So’z, so’zlash, gapirish, suhbat.
571.Mahzun - G’amli,qayg’uli,xafa.
572.Nokom - Istagiga etolmagan,mahrum,bebahra.
573. Dom - Tuzoq,tuzoqqa ilinmoq.
574.Giriftor - Yo’liqqan, uchragan,asir bo’lgan.

Nolau ohi Avazning ko’k sari chiqg’ay qachon,

Bir chamanruxsor[575] ishqig’a sazovor o’lmasa.

## XORAZM MAQOMLARIDAN TURKUM.

Xorazm maqomlari - maqom turi. Xorazmda maqom yo‘llariga yaqin mumtoz musiqa namunalari qadimdan ma’lum bo‘lgan.[576]

Bizgacha yetib kelgan shakli — olti maqom (Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq) tizimi Shashmaqom asosida 19-asr boshlarida shakllangan. Har bir maqom belgilovchi omil - muayyan lad tizimi va uning asosida yuzaga kelgan kuy yo‘llaridan iborat. Xorazm maqomlari Buxoro Shashmaqomi kabi mustaqil tuzilishga ega bo‘lgan chertim (cholg‘u) va aytim (ashula) bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Chertim yo‘li (bo‘limi) tani maqom, tarje, peshrav, muxammas, saqil, ufar kabi shaklan yakunlangan va nisbiy mustaqil qismlardan tashkil toptan. Boshlang‘ich tani makom va yakunlovchi ufar har bir maqomda bittadan bo‘lsa, o‘rtada keladigan peshrav, muxammas, sakil 2—3 tagacha bo‘ladi. Cholg‘u yo‘li yakkanavozlik va jo‘rnavozlik usulida chalinadi. Yakkanavozlikda tanbur asosiy soz hisoblanadi. Jo‘rnavozlik, odatda, tanbur, dutor, nay, bo‘lamon, qo‘shnay, g‘ijjak, chang , doiradan iborat ansamblda amalga oshiriladi.

Xorazm maqomlarining dutor, surnay yo‘llari ham mavjud.[577] Masalan XIX-XX-asr boshlarida Xivada 11 ta Xorazm dutor maqomi mashhur bo‘lgan: Chapandoz, Navoiy, Sadri Iroq, Tashniz, Ag‘yor va boshqa Tanbur yo‘llaridan farqli o‘laroq ular turkumli asarlar bo‘lib, har bittasi 2— 7 qism (masalan: "Iroq" dutor maqomi "O’rta ufori","Nigoron","Oromijon", "Boymuxammad", "Saqlansin") dan iborat bo‘lgan. "Oraz bam va ufori"Majnun dali", "Roviy", "Miskin va uforisi", "Mo‘g‘ulcha ufori"lari M. Yusupov tomonidan "O‘zbek xalq muzikasi"ning 6 jildiga kiritilgan. Aytim yo‘li tani maqom, talqin, nasr kabi asosiy qismlar - sho’balar va ular negizida tuzilgan tarona, suvora, naqsh, faryod va ufar deb nomlangan variant qismlardan tashkil topadi. Dastlab Xorazm maqomlari ijrosida fors-tojik (Hofiz, Jomiy kabi) va keyinchalik uzbek, ozar mumtoz shoirlari (Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiylar)ning g‘azallaridan foydalanilgan.Xorazm maqomlari va Buxoro Shashmaqomining umumiy va farq qiluvchi tomonlari mavjud. Tashqi tomondan Xorazm maqomlari Rostdan, Shashmaqom Buzrukdan

---

575.Chamanruxsor - Go’zal yuzli, qizil yuzli.

576. O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – Toshkent sh. 2001 y.

577.Xorazm maqomlari. - Toshkent sh. 1987 y.M.Yusupov.

boshlanadi. Xorazm maqomlarida Iroqning ashula bo‘limi unutilgan, Rost maqomining chertim yo‘llari asosida 8 qismdan iborat Panjgoh turkumi yaratilgan; suvora, naqsh, faryod qismlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega; savt va mo‘g‘ulcha kabi 2guruh sho’balari uchramaydi. Ichki tuzilishi jihatidan ko‘pchilik doyra usullari, kuy kiyofasi, ijrochilik uslubi mustakilligi bilan ajralib turadi.

Xorazm maqomlari Komil Xorazmiy ixtiro qilgan tanbur chizig‘ida uning o‘zi va o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzaboshi tomonidan to‘la yozilgan (1886-yil). Hozirgi nota yozuvida Ye. Romanovskaya chertim yo‘llarini[578] ("Xorazm klassik muzikasi", Toshkent sh, 1939-yil) va M. Yusupov chertim va aytim yo‘llarini[579] ("O‘zbek xalq muzikasi", 6-jild., Toshkent sh, 1958-yil) yozib olgan. M. Yusupov tomonidan keyinchalik nashrga tayyorlangan "Xorazm maqomlari" to‘plamiga (Toshkent sh, 1980—1987 yillar) Xorazm mumtoz musiqasining boshqa janrlari (suvora, faryod kabi) namunalari ham kiritilgan. Ye. Romanovskaya, Ilyos Akbarov tomonidan Matyoqub Xarratov tanburda ijro etgan ayrim parchalar fonografga yozilgan (1934-yil). San’atshunoslik institutida K. Otaniyozov va K. Ismoilovlardan Rost, Navo, Dugoh, Segoh (1949-yil), H. Boltayevdan Buzruk (1952-yil) maqomlarining ashula yo‘llari magnit lentasiga yozib olingan.

Xorazm maqomlari ijrochiligining yirik namoyandalari Niyozjonxo‘ja, Komil Xorazmiy, Feruz, Xudoybergan muhrkan, Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar, M. Xudoyberganov, K. Otaniyozov, H. Boltayev, M. Raximov, N. Yusupova, M. Yusupov, R. Jumaniyozov va boshqalar.

---

[578]."Xorazm klassik muzikasi", - Toshkent. Sh , 1939-yil)

[579]. "O‘zbek xalq muzikasi", 6j., - Toshkent sh., 1958-yil)

**Savti Suvora.**

Mashrab g'azali. Ortiq Otajonov ijrosi.

Borib ayting azizim ko'zlarimga to'tiyo[580] kelsun,
Mani bedastuponi[581] ko'rgali ul podshoh[582] kelsun,
Solib bo'ynimg'a zulfi anbarin[583] mushki[584] Xito kelsun,
Meni kulbamni ravshan qilg'ali ul pur ziyo kelsun.
Umidim bor, ranjurlarin[585] izlab har sabo kelsun.

Kamon abro'lari[586] har qaysisi bir sho'hi jallodi,
Yurar bo'lsa chamanda qaddidur monandi shamshodi,[587]
Du[588] bora kelmag'ay olamga mundoq sarvi ozodi,
Bilolmayman nedin paydo qilibdur arshni[589] ustodi,
Dilimda yuz jarohat bor bermakka davo kelsun.

Bahoriy fayz baxsh keldi, jahon rangin chaman o'ldi,
Bugun majlis tuzinglar navbati gul piyraxan[590] o'ldi,
Ayog' bosgan eri sersabz bo'ldi, yosuman[591] o'ldi,
Mashomim[592] bo'yidin har soati mushkin [593]Xo'tan[594] o'ld,

---

580.To'tiyo - Ko'zni ravshan qiladigan kukun. -
581.Bedastupo - Qo'l-oyoqsiz.
582.Podshoh - 1.Shoh.2.Majozan yor, sevgili, ma'shuqa.
583.Anbar - Xushbo'y modda aralashmasidan tayyorlanadigan kukun.
584.Mushk - Qora tusli va xush isli narsa.
585. Ranjur - Kasal, kuxgsiz, ezilgan.
586.Abro' - Qosh.
587.Shamshod - Sarvga o'xshagan xushqomat va chiroyli daraxt.
588Du bora - Ikkinci bora, yana.
589.Arsh - Osmonni eng yuqorisi.
590.Piyraxan - Ko'ylak.
591.Yusuman - Xush isli, oq va sariq tusli gul.

Bu  yo'lda do'stu-dushman ayb aylar  goh-goh kelsun.

Chunon[595] bexudlig'imdin[596] subhi mashomimni[597] bilmayman,
Ketibdur aql mendan puxtayu-xomimni bilmayman,
Bilolmasman nechuk o'tkardim ayyomimni bilmayman,
Bu yo'lda misli Majnundek saranjomimni[598] bilmayman,
Charog'i dilni ravshan qilg'ali nuri safo[599] kelsun.

O'shal vaqtiki anga ahd qildim asli hamdamdur,
U mendan ko'ngul uzsa to tirikman ko'ngul uzmamdur,
Digar[600] yor axtarib man, dashtu-sahrolarni kezmamdur,
Qiyomat[601] subhi otguncha bu paymonamni[602] buzmamdur,
Boshimni kessa-kessun, aylanib  nozuk  ado kelsun.

Vafodorim dedim, oxir damida bevafo bo'ldi,
Bilolmayman ne ayb ko'rdi-ku ul  mendan  judo bo'ldi,
Ko'zimni kavlagan xaqlarga borib oshno bo'ldi,
Boshimg'a  xonavayronlig' tushib, qaddim duto[603] bo'ldi,
Mani bedastuponi[604] ko'rgali  nozik ado kelsun.

---

[592].Mashom - Hid bilish a'zosi,burun,dimog'.
[593] Mushkin - Mushkli,mushk hidli, xushbo'y.
[594].Xo'tan - Shahar nomi.

[595].Chunon - Shu qadar, sunchalar.
[596].Bexudlig' - Xushsizlik,devonalik.
[597].Moshom - Hid bilish a'zosi, burun,dimog'.
[598].Saranjom - Oxir,so'ng,oqibat,tugallash.
[599].Safo - Yorug'lik,ravshanlik,xursandlik.
[600].Digar - O'zga, boshqa.
[601].Qiyomat - Qiyomat qoyim.
[602].Paymon - Ahd,va'da, so'zida turmoq.
[603].Duto - Ikki bukilgan, bukik, egilgan.
[604].Bedastupo - Qo'l –oyoqsiz.

# Xorazm mumtoz yo'llaridan.

# "FERUZ".

"FERUZ" — Xorazm maqomlarining Navo maqomi pardalari asosida yuzaga kelgan mumtoz ashulalar turkumi.[605] Ogahiyning "Vah ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qoshu kuzing" g'azaliga bog'langan "Eski Feruz" ("Feruz" II deb ham yuritiladi) Muhammad Rahim I davrida yaratilgan. Avj qismida Xorazm doston kuy (noma)laridan "Nolish"ning cholg'u muqaddimasi ishlatilgan. "Feruz" I "Eski Feruz"ga nisbatan hajman yirik, avjlari baland. U oldin Feruz g'azali "Bazmimga keldi ul pari..."ga solib uqilgan. Keyinchalik xonning uzi "Feruz." I ni ustozi Ogahiyning "Mushkin qoshingni hay'ati ul chashmi jallod ustina" g'azali bilan aytilishini amr etgan. Ikkala "Feruz " uch chorakli o'lchovda rivojlangan "Zarbul qadim" usulida ijro etiladi. Ularga savtlar ham bog'langan. Ba'zi tahminlarga ko'ra, mazkur savtlar Muhammad Rahim II saroyi maqomchisi Matyoqub Fozachi ijodiga mansub.

**Feruz I**

Ogahiy g'azali.

Mushkin[606] qoshining hay'ati[607] ul chashmi[608] jallod ustina,

Qatlim[609] uchun "nas"[610] kelturur, nun eltibon sod ustina.

Qilg'il tomosho qomati, zebosi birla orazin,[611]

Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod[612] ustina.

---

[605].O'zbek xalq musiqasi - Toshkent sh. 1960-yil. 7 – jild
[606].Mushkin - Mushk hidli, xushbo'y.
[607].Hay'at - Shakl,surat,ko'rinish.
[608].Chashm - Ko'z.
[609].Qatl - O'ldirmoq, so'ymoq.
[610].Nas - Hukm,aniq dalil.
[611].Oraz - Yuz, chehra, ko'rinish.
[612].Shamshod - Chiroyli,xushbichim daraxt.

Nozu adou g'amzasi, qasdim[613] qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur, bir odamizod ustina!?

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,[614]
Qotil ko'zi bedod[615] etar, har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bilan shaydo ko'ngul shomi sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo, ming nav'[616] faryod ustina.

Boshimg'a yoqqach g'am toshin mingdan biricha bo'lmag'ay,
Gardun[617] agar ming Besutun,[618] yog'dursa Farxod ustina.

Ey shah, karam[619] aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar, vayronu obod ustina,

Xokiy[620] taning barbod o'lur oxir-jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting ko'rub bod[621] ustina.

Ne jur'at[622] ila Ogahiy, ochqay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli[623] g'am qilmish xujum, ul zoru noshod ustina.

---

[613].Qasd - Qasd qilmoq, payiga tushmoq.
[614].Dushvor - Qiyin,og'ir,mushkul.
[615].Bedod - Jabr,zulm,adolatsizlik.
[616].Nav' - Yangi.
[617].Gardun - Dunyo,olam,falakning gardishi.
[618].Besutun - Farxod qazigan tog'ning nomi.
[619].Karam - Yaxshilik,olijanoblik,ehson.
[620].Xok - Tuproq, yer yuzi.
[621].Bod - Shamol,yel.
[622].Jur'at - Bir ishga botinsh, jasorat.
[623].Xayl - Gurux,to'da,to'p.

**Feruz II**

Ogahiy g'azali.

Vah, ne balodur, bilmadim, ey dilrabo, qoshu ko'zing.

Kim, bir nazarda soldi o't jonim aro qoshu ko'zing.

Oldi qaroru toqatim, oq siynayu nozik beling,

Soldi qaro kun boshima ikki qaro qoshu ko'zing.

Ham yuz o'lukni tirguzur, la'ling aro shirin so'zing,

Ham ming tirikni o'lturur, aylab jafo qoshu ko'zing.

Qoshu ko'zing bedodidin[624] dod aylasam, ermas ajab,

Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qoshu ko'zing?!

Shirin labingdin Ogahiy jismig'a jon berkim, oni

O'lturdi bir imo qilib, boqqach, qiyo qoshu ko'zing.

## Savti Feruz.

Savti Feruz 1 murakkab tuzilishga ega.[625] Uning Ufari jo'shqin, shiddatli doira usuliga bog'langan. Ufarning o'rta pardalarida hofizdan ovoz mahoratini talab etiladigan oktava sakrashlari mavjud. Savti Feruz I ning H. Boltayev va R. Jumaniyozovlar hamnafasligida ijro etilgan namunasi mashhur. Savti Feruz II ning ohanglari Naqshi Navoning aynan uziga o'xshasa ham, kuy tuzilishi undan farq qiladi. U Savti Feruz I ga qaraganda shuxchan va jozibaliroq. K. Otaniyozov, M.

[624].Bedod - jabr,zulm,adolatsizlik.

[625] Xorazm maqomlari. - Toshkent sh. 1987 y. M.Yusupov.

Rahimov, N. Yusupova, A. Vafoyev, O. Xudoyshukurov, J. Nabiyev va boshqa "Feruz " turkumining mashxur ijrochilaridir.[626]

**Savti Feruz.**

Niyoziy g'azali.

Voqif[627] bo'ling! Jonu ko'bgul[628] jononingiz kelmakchidur.
Tong yo'q desa jononingiz ham joningiz kelmakchidur.

Necha visoli va'dasin qilgan hamon etgan xilof,[629]
Aylab karam,[630] ul va'dasin yolg'oningiz kelmakchidur.

Yillar oni hajri aro mushtoq[631] erursiz ko'rgali,
Bu dam so'rarg'a holingiz sirdoshingiz kelmakchidur.

Omada aylang ko'z uyin mardum[632] xabardor o'lmasin,
Ag'yordin[633] pinhon bo'lub, mehmoningiz kelmakchidur.

Hajrida bemor aylabon ishqida zor etgan base,
Bu dam shifobaxsh o'lg'ali darmoningiz kelmakchidur.

Gulgun uzori partavi[634] olamg'a soldi rustaxez,[635]
Shirin nafas, la'li gavhar afshoningiz[636] kelmakchidur.

---

[626].Feruz turkumi haqida. - Botir Matyoqubov.
[627].Voqif - Xabardor, biluvchi.
[628]. Ko'bgul - Uruvchi, tepuvchi, yanchuvchi.
[629].Xilof - Qarshi, teskari,zid.
[630].Karam - Yaxshilik, olijanoblik, ehson.
[631].Mushtoq - Zor, intiq, intizor.
[632].Mardum - Odamlar, kishilar.,
[633]. Ag'yor - Boshqalar, yotlar,begonalar.
[634].Partav - Yorug'lik,nur,shu'la.
[635].Rustaxez - G'avg'o, to'polon.

Til chek Niyoziy vasfidin nogah shuursiz qolmag'il,
Kim kishvari[637] husn ahliga sultoningiz kelmakchidur.

**Segoh Suvoriy.**

Navoiy g'azali.

Kuyung borida qilmon jannatqa guzar[638] hargiz.
Qadding qoshida solman tubig'[639]a nazar hargiz.

O'qungg'a ko'ngul moyil mujib[640] nedur, ey qotil,
Kim o'tkanidin bo'lmas ko'nglumga xabar hargiz.

Bu jismi nazor ichra ko'nglumni gumon qilmang,
Shohiki qurur, anda kim ko'rdi samar[641] hargiz ?

La'lingda malohatdin jon komida dur lazzat,
Bu ta'm qachon bergay tuz birla shakar hargiz.

Ko'ngliga fig'onimdin rahm o'lmasa ey bulbul,
Gul g'unchasiga bormu nolangdin asar hargiz?

Pil[642] o'lsa sening xasming,[643] desangki zarar topmay,
Bir pashshag'a olamda yetkurma zarar hargiz!

---

[636].Afshon - Sochmoq, sadqa qilmoq.
[637].Kishvar - Mamlakat,viloyat.
[638].Guzar - o'tish,kechib o'tish.
[639].Tubi - Tup, ildiz.
[640].Mujib - Sababchi,bois,tufayli.
[641].Samar - Foyda,natija,meva.
[642].Pil - Fil.
[643].Xasm - Birovga tegishli narsa yoki kishi.

Maxlas[644] tilasang g'amdin dahr ichra Navoiydek,
Qo'ymog'a sen ilgingdin[645] sog'arni[646] magar hargiz.

**Savti Suvora Mustahzodi.**

Mashrab muxammasi.

Tokay meni bechorag'a bu dardu alamdur,
Vaslingni tilab ko'nglima andishayu[647] g'amdur,
Hijron ichra muncha menga jabru sitamdur,[648]
Bu davri falak[649] balki bu taqdiri qalamdur,[650]
Bul g'ussada[651] o'lsam boshima oh, alamdur.

Sen dilbari jononaga men oshig'i shaydo,
Jonimni beray vasling uchun ey duri yakto,[652]
Netkum seni ishqing bu sifat ayladi rasvo?
Majnung'a tushib dog'i g'aming ko'zladi sahro,
Vaslingga yetib o'lsa bu oshiqqa ne g'amdur.

Vaslingga etolmay sanamo hasta bu jonim,
Tun-kun seni izlab yugurib tashna zabonim,[653]
Bir necha mahaldurki chiqar g'ussa[654] ravonim,
Yetmasmu senga muncha meni ohu-fig'onim,[655]

---

[644].Maxlas - Qutilish,xalos bo'lish.
[645].Ilgingdin - Qo'lingdan.
[646].Sog'ar - May, qadah.
[647].Andisha - Fikr, o'ylov.
[648].Sitam - Jabr, zylm, haqsizlik.
[649].Falak - 1.Osmon,ko'k.2.Taqdir,tole'.
[650].Qalam - Peshonaga yozilgani.
[651].G'ussa - Qayg'u,g'am.
[652].Yakto - Yakka, tengsiz,yagona,nodir.
[653].Zabon - Til.
[654].G'ussa - Qayg'u, g'am.

Bu hastani doim tilagi lutfu-karamdur.[656]

Jon qiynamayin vosili[657] jonona bo'lurmu?
Naysoni[658] sadafsiz duri-durdona bo'lurmu?
To kuymay sham o'tina parvona[659] bo'lurmu?
Og'zini ochib so'zlamay afsona bo'lurmu?
Vasling asalu xijri g'aming oshiqi samdur.

Chin oshiq ersang berma ko'ngul nidosi havog'a,
Ko'p yotma sahar, uyg'ona ko'r, Zikri Xudog'a,
G'ofil[660] yurima, bo'lma giriftori[661] balog'a,
Mashrab o'zingni solma muncha jabru jafog'a,
Tig'i yursang so'zingdin senga ne g'amdur.

**Bo'lmasa.**

Navoiy g'azali.

Nazira Yusupova ijrosi.

Gul kerakmastur menga majlisda sahbo[662] bo'lmasa.
Naylayin sahboni bir gul majlisaro bo'lmasa.

Bazm aro xushtur qadah, kavkab[663] vale ermas tamom,
Mutribi[664] xush lahjai xurshid[665] siymo bo'lmasa.

---

[655].Fig'on - Nola, faryod.
[656].Karam - Mehribonlik, muruvvat.
[657].Vosil - Erishgan,etishgan,qovushgan.
[658].Nayson - Yomg'ir.
[659]Parvona - Olovga talpinadigan kapalaklar.
[660].G'ofil - G'aflatda qolgan,dangasa.
[661].Giriftor - Asir,band, mubtalo.
[662].Sahbo - Qizil may.
[663].Kavkab - Yulduz.Majozan ko'zlar.

Mehru mohu Mushtariyu[666] Zuhra chun qildi tulu',[667]
Xech Naxs[668] axtar tulu'i anda qat'o[669] bo'lmasa.

Muncha ham bo'lsa muyassar jam emas xotir xanuz,
Toki mug'[670] ko'yida bir mahfuz[671] ma'vo[672] bo'lmasa.

Umr bazmida nasho dasbobi dilkashdur base,
Gar havodis [673] shahnasidin anga yag'mo[674] bo'lmasa.

Chun bu erda ichkaridin rust[675] bog'landi eshik,
Odam ermas ul kishikim bodapaymo[676] bo'lmasa.

Har kishiga umrida bu nav[677] bir kun bersa dast,[678]
To abad g'am yo'q agar bo'lsa yana yo bo'lmasa.

Ey Navoiy gar nasibangdur abad umre kerak,
Xotiringda yordin o'zga tamanno[679] bo'lmasa.

---

[664].Mytrib - Sozanda,sholg'uchi,qo'shiq aytuvchi.
[665].Xurshid - Quyosh.
[666].Mushtariy - 1.Yupiter planetasi, yulduz.2. Xaridor.
[667].Tulu' - Chiqish,ko'rinish.
[668].Naxs - Mirrix(Mars) planetasi.
[669].Qat'o - Qat'ian,xech qachon,aslo.
[670].Mug' - Majusiy,otashparast,o'tga cho'qinuvchi.
[671].Mahfuz - Muhofaza qilingan,berkitilgan.
[672].Ma'vo - Boshpana,turar joy,makon.
[673].Havodis - Hodisalar,voqealar.
[674].Yag'mo - Tolon-toroj,byzg'unlik,g'avg'o.
[675].Rust - Berk,yashirin,mahkam,chambarchas.
[676].Bodapaymo - May ichuvchilik,soqiylik.
[677].Nav - Yangi.
[678].Dast - Qo'l.
[679].Tamanno - Istak,orzu,tilak.

**Bo'lmisham.**

Avaz O'tar g'azali

Xorazm Savti Suvora asosida ishlangan.

Ohkim, man notavon[680] miskinu mahzun[681] bo'lmisham,
Hajr[682] ayyomi aro yaksor[683] jigarsun[684] bo'lmisham.

Ne, ajab, gar aylasam noshodu mahzunlig' basi,
Kim, sabohu[685] shom ahvoli digargun[686] bo'lmisham.

Toki man bodnomu[687] rasvolig' chekarga doimo,
Jumlai ahbob[688] aro iqboli vojun[689] bo'lmisham.

Ayb qilmanglar mani dilhasta[690] ohu nolasin,
Kim, asiri dilbari chashmi purafsun[691] bo'lmisham.

Bok[692] emas, gar aylasam nazmi[693] hayot afzoni[694] mashq,

---

[680]Notovon - Kuchsiz, bo'sh, zaif, epsiz.
[681].Mahzun - G'amli, qayg'uli, xafa.
[682]Hajr - Ayriliq, judolik.
[683] Yaksor - Birdan, birakay.
[684] Jigarsun - Azobda qolgan, qiynalgan.
[685].Sabo - Tong chog'i.
[686].Digargun - O'zgacha,boshqacha.
[687].Badnom - Yomon otlig'.
[688].Ahbob - Habib, do'stlar, yorlar.
[689].Vojun - Teskari, chappa.
[690]Dilhasta - Ko'ngli ezilgan, dili vayron.
[691].Purafsun - Serxiyla, sernayrang.
[692].Bok - Qo'rquv, xavf, zarar.

Kim, Avazdek chori xushtabi[695] mahzun bo'lmisham.

# Farg'ona mumtoz yo'llaridan.

## FARG'ONA – TOSHKENT MAQOM YO'LLARI .

Toshkent va Farg'ona vodiysi (Qo'qon, Namangan, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Quva ) musiqa amaliyotida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomi[696]. Toshkent va Farg'ona maqom yo'llari Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq alohida - alohida cholg'u va ashula yo'llaridan iborat. Jumladan, cholg'u yo'llari «Nasrullo I—V», «Munojot 1—V», «Ajam va taronalari», «Miskin I—V», «Segoh I — III», «Sayqal I— II», «Mirzadavlat I—II», «Cho'li Iroq», «Chorgoh», «Surnay Iroqi», «Surnay Dugohi» , «Surnay Ushshog'i» kabilar mashhur.

Ashula yo'llari alohida bir qismli («Segoh, «Toshkent irog'i» kabi) namunalardan tortib keng ko'lamli turkumlardan tashkil topgan. Ayniqsa, besh qismli «Chorgoh», «Bayot», «Bayoti Sheroziy», «Gulyor-Shahnoz» va yetti qismli «Dugoh -Husayn» ashula yo'llari ommalashgan. Ular mumtoz she'riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy va boshqalar.) namunalari asosida aytiladi.

Farg'ona—Toshkent maqom turkumlarining qismlari raqamlar vositasida ajratiladi (masalan, «Miskin I», «Miskin II», «Bayot I»). Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, «Miskin» cholgu turkumining III kismi «Adoiy», IV qismi «Asiriy», «Nasrullo»ning II qismi «Chavandoz», III qismi «Qashqarcha», IV qismi «Tarona», V qismi «Ufar» deb nomlanadi. Shuningdek, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari — Toshkent maqom yo'llarining cholg'u kuylarining ayrimlariga nisbatan «Mashq» atamasini qo'llash odati mavjud (masalan, «Mashqi Chorgoh», «Mashqi Dugoh—Husayn» va hokazo.).

Oqilxon Ibrohimov.

---

[693].Nazm - Tartibga keltirmoq.
[694].Afzon - Ortiq, ziyoda, ko'p.
[695].Xushtab' - Zehnli, talantli.
[696] Farg'ona – Toshkent maqomi. – Toshkent sh. - 2006 - yil. O. Ibroximov.

**Fig'on I.**

Furqat g'azali.

Berta Davidova ijro etgan.

Manam sho'rida[697] bulbul, bo'stonidin adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la[698] qondur, dilsitonidin adashganman,
G'aribi[699] ko'y[700]i g'urbat, xonumonidin[701] adashganman,
Va yo bir murg'i[702] vaxshiy[703] - oshyonidin adashganman.

Biyobon girdiman[704] Majnun kabi Layloni yodida,
Bo'lub oshufta[705] zanjiri junun[706] bastu[707] kushodida,[708]
Qilurmish qat'i[709] rax[710] har kimsa oxir o'z murodida,
Yugursam har tarafga, ayb qilmanglar, bu vodiyda,
Misoli telba itmen - karvonidin adashganman.

---

[697].Sho'rida - Parishon,tentiragan.
[698].Hagr - Ayriliq, judolik.
[699].G'arib - Vatandan ayrilgan boshqa yurtdagi kishi.
[700].Ko'y - Ko'cha, mahalla.
[701].Xonumon - Uy-joy, uy jihozlari.
[702].Murg' - Tovuq,qush.
[703].Vahshiy - Yovvoyi hayvon.
[704].Gird - Atrof,tevarak,aylana.
[705].Oshufta - Maftun,mahliyo, shaydo.
[706].Junun - Jinnilik,aqldan ozganlik.
[707] Bast - Yopiq, yopilgan.
[708].Kushod - Ochiq,ochilgan, bo'shatilgan.
[709].Qat'i - Kechmoq,bosib o'tmoq.
[710].Rax - Yoriq,chok,chiziq.

**Fig'on II.**

Habibiy she'ri

Mening dilnavozim, nigorim kelur,
So'zi shahdu[711] shakar nisorim[712] kelur,
Sururi[713] dilim, navbahorim kelur,
Ochib chehra, ko'zi xumorim kelur,
Boshim ko'kka yetmasmi yorim kelur.

Niqob ochdi, ko'rdim, ajab dilrabo,
Meni surati[714] qildi sur'atnamo,
Ko'ngil bo'ldi beixtiyor oshno,
Naxush vasl ila qilgali bir davo,
Tabibim, tanimga madorim kelur.

Bo'lib menga hay-hay bugun baxtiyor,
Qilib mehru lutfu karam oshkor,
Vafo rasmini aylamish ixtiyor,
Habibiy, qildi harna borni nisor,
Kulimsab, yuzi lolazorim kelur.

---

[711].Shahd - Asal,bol.
[712].Nisor - Sochqi, sochish.
[713].Surur - Shodlik, zavq, shavq.
[714].Surat - Shakl, rasm.

**Toshkent iroqi.**

Miskin g'azali.

T. Qodirov ijrosi.

Manam Majnuni ishq, do'stlarki, bir Layloni izlarman.

Jamoli gul, sochi sunbul, ko'zi shahloni izlarman.

Ajab bir tiyra[715] dildurman, qamarsiymo[716]ni izlarman.

Mani ishqida zor etgan, qadi zeboni izlarman.

O'shandoq ofati jon sho'hi beparvoni izlarman.

Asiri gul yuzidurman-jahon gulzorini naylay?

Anga ko'nglumni oldurdim-bo'lak dildorini naylay?

Etarg'a sirri mahram [717]yo'q-bu g'am izhorini naylay?

Malomat qilsa qilsun el-alar guftorini[718] naylay?

Kechibman oru nomusdin o'shal barnoni izlarman.

Yoronlar, ul parivash ishqining devonasi bo'ldum.

Berib barbod aqlimni xirad[719] begonasi bo'ldum.

Ko'rub husni charog'ini yonib parvonasi bo'ldum.

Netay Miskin kabi xalqi jahon afsonasi bo'ldum.

Jununim[720] ayb qilmanglar mahi[721] anqoni[722] izlarman.

---

[715].Tiyra - Qorong'u,qora.
[716].Qamar - Oy, to'lin oy.
[717].Mahram - Sirdosh,uifat, hamdam.
[718].Guftor - So'z,so'zlash, gapirish.
[719].Xirad - Aql.

# “SEGOH” MAQOMI.

Segoh forschada uch o’rin, uch parda ma’nolarini bildiradi.[723]Segoh uch pog’onali tovushqatordan iborat. “Segoh” maqomining tovushqatorining oltinchi pog’onasi vaqti-vaqti bilan yarim parda atrofida o’zgarib turadi.Bunday hol ”Segoh”ning hamma cholg’u yo’llari uchun xosdir. “Segoh” maqomining cholg’u va ashula yo’llari xalq orasida juda keng tarqalgan.Buni shundan ham bilish mumkinki, ularning ohanglari o’zbek xalq kuy va ashula yo’llarida avj sifatida ko’plab foydalanilgan.Bu avj “Segoh namudi” nomi bilan yuritiladi.

“Segoh” maqomining cholg’u yo’llari “Ushshoq”dagi kabi lirik kayfiyatlar uyg’otuvchi kuylardan iborat.Ularni tinglaganda hijron, firoq, alamlanish bilan bir qatorda umidvorlik, kelajakka ishonch sadolari baralla yangraydi. “Segoh” maqomi turkum tarzida ijro etilganda “Tasnifi Segoh”dan boshlanadi.Uning doira usuli sodda bo’lishiga qaramay, ohangdor yangraydi va “Segoh” ohanglarini yaqqol ifodalaydi.

“Segoh” maqomining pardalari asosida juda ko’p ashula va cholg’u yo’llari yaratilgan. ”Segoh”, “Girya” 1-2, “Ilg’or”, “Guluzorim”, “Fig’on”, “Nimcho’poniy” ashulalari, “Mushkiloti Segoh” kuyi va uning uforisi. ”Segoh” maqomining cholg’u va ashula yo’llaridan O’zbekiston kompozitorlari va bastakorlari barakali foydalanishgan. Masalan: R. Glier va T. Sodiqovning “Layli va Majnun” operasi, Yunus Rajabiy va B. Nadejdin hamda S. Boboevlarning ”Segoh” simfonik poemalari, M. Tojievning 3 – simfoniyasi, T. Qurbonovning 5 – simfoniyasi shular jumlasidan.

---

[720].Junun - Jinnilik, telbalik,aqldan ozganlik.
[721].Mah - Oy.
[722].Anqo - Afsonaviy qush.
[723].“Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

**Saraxbori Segoh.**

Navoiy g'azali.

Bag'rimni tig'i[724] hajr [725] ila yuz pora[726] qildilar.
To yor ko'yidan[727] meni ovora qildilar.

Butkudek[728] erdi vasl ila ko'nglum jarohati,[729]
Hijron[730] qilichi birla yana yora qildilar.

Mazmuni o'lmaku ani hijron g'ami degan,
Yuz ming jafoni jonima yakbora qildilar.

Turg'on yoshim oqizdilar ul oy firoqida,
Sobitlarimni[731] kavkabi[732] sayyora qildilar.

May tutki jam davridin o'q toptilar iloj,
Jam'iki charx davrini nazzora[733] qildilar.

Yorab ne diy alarniki miskin[734] Navoiyni,
Behushu, aqlu, bedilu,[735] bechora qildilar.

---

[724].Tig' - Qilich, xanjar.
[725]Hajr - Ayriliq, judolik.
[726].Pora - Parcha, bo'lak.
[727].Ko'y - Ko'cha, mahalla.
[728]Butkudek - Bitadigandek.
[729].Jarohat - Yara.
[730].Hijron - Ayriliq.
[731]. Sobit - Bir joyda qimirlamay turuvchi.
[732].Kavkab - Yulduz.
[733].Nazzora - Qarash,nazar tashlash,ko'z solish.
[734].Miskin - Faqir,bechora,yo'qsil.

## Tarona I

Xuvaydo g'azali.

Nogahon[736] gulzor aro yorim mening.
Sayr aylab kirsa dildorim mening.

Desalar yoring yuzi monanda[737] gul,
Ushbu so'zdin kelgusi orim mening.

Emdi ul mah ishqi birla bo'ldi der,
Bul Xuvaydo yig'lamoq korim[738] mening.

## Tarona II

Ul sha'mi jamol
Ey o'tig'a, vay, vay.
Parvonalig'im,
Yor mast naylay.

Kel yorim mening.
Shirin so'zli yor,
Ey sohib karam.
Sen – sen xumorim.

---

[735].Bedil - Oshiq,maftun,mahliyo.
[736].Nogahon - To'satdan.
[737] Monanda - O'xshash, o'xshaydigan.
[738].Kor - ish,mashg'ulot.

## Tarona III

Qila boshlading menga zulmikim,
Sitam[739] etdi jabru jafolaring.
Ki vafoga va'dalar aylabon,
Qani va'dalarga vafolaring?

Ruhima go'zal xati mushk[740] oso,
Labi la'li nuktai[741] jon fizo,[742]
Ko'zi, qoshi har biri xush ado,
Meni o'rtadi shu balolaring.

Menga noz qildi tag'ofiling,[743]
Dilu jon duoga yugurdilar.
Ko'z uchi bilan qarading kulib,
Talabiga etdi gadolaring.

Necha yil ko'ngul, kechalar fig'on
Qilib o'tayin ani ko'yida.[744]
Dili tosh ekan, asar[745] aylamas,
Bu fig'on[746] ila bu navolaring.

---

[739].Sitam - Azob, jabr,zulm.
[740].Mushk - Xushbo'y hid.
[741].Nukta - Nozik fikr.fikriy kashfiyot.
[742].Jonfizo - Rohatbaxsh,yayratadigan,ko'ngilni ochadigan.
[743].Tag'ofil - Bilib bilmaslikka solish,bilmay qolish.
[744].Ko'yida - Turar joy, mahalla.
[745].Asar - Alomat, belgi, ta'sir.
[746].Fig'on - Nola, oh, zor.

**Tarona IV.**

Navoiy g'azali.

May bila yuzing tim-tim, ahmarmu[747] ekan oyo?
Yo shul'a aro bir-bir, ahgarmu[748] ekan oyo?

Har sori qulog'ingda gavharmu[749] ekan yoxud.
Har jonibida[750] oyning axtarmu[751] ekan oyo?

El desa Navoiyni kim javr ila tark etti,
Ishqingni, senga bu so'z bovarmu[752] ekan oyo.

**Tarona V**

Suqsur[753] degan qush bo'lur,
Tortsam pati bo'sh bo'lur,
Yor oldiga borganda,
Yigit ko'ngli xush bo'lur.

Suv oqar tosh ustida,
Durrasi qosh ustida,
Suyganim esga tushganda,

---

[747].Ahmar - Qizil, ol rang.
[748].Ahgar - Qizarib yonib turuvchi olov.
[749].Gavhar - Inju,dur,uoqut,olmos.
[750].Jonib - Taraf, tomon, jihat.
[751].Axtar - Yulduz.
[752].Bovar - Ishonch,ishonish.
[753].Suqsur - O'rdakning bir turi.

Yig'layman osh ustida.

Eshigingdan o'tganda,
Layli bo'ldingmi yorim,
Seni yor deb aytganda,
Xafa bo'ldingmi yorim?

**Tarona VI**

G'amza[754] bilan olib jonim,
O'sar qaro zulfing sening.
Sabo[755] tonggi nasimidin,[756]
O'sar qora zulfing sening.

Yozilsam yorning bog'ida,
Qishlasam ko'ksi tog'ida.
Subhidam[757] sahar chog'ida,
O'sar qora zulfing sening.

Tong yulduzi porlab-porlab,
Shona[758] bilan zulfing tarab,
Tong saharlarda yaltirab,
O'ynar qora ko'zing sening.

---

[754].G'amza - Ishva, noz, ko'z suzish.
[755].Sabo - Tonggi shabada.
[756].Nasim - Yel,shabada,shamol,epkin.
[757].Subhidam - Tong chog'i.
[758].Shona - Taroq,soch taraudigan asbob.

## SAVTI SARVINOZ TARKIBIY QISMLARI BILAN.

Savt (arab. — ovoz, tovush) — biror cholg‘u yoki vokal musiqa asari pardalari va kuy ohangi asosida yaratilgan kuy yoki ashula[759]. O‘zbek musiqasida muayyan kuy va ashulalar o‘zgacha doira usullariga tushirilib, ularning har xil variantlari yaratilgan va muayyan maqom, xalq kuyi yoki ashulalarining savti deb atalgan. "Savt" so‘zi 16-asrdan boshlab musiqa yozma manbalarida keng qo‘llanilib, O‘n ikki maqom tizimida kichik shaklli ashulalar sifatida sharhlanadi. Shashmaqomsa esa Savtlar maqomlarning 2guruh sho‘balaridan bo‘lib, yirik shakldagi ashula turkumlarini tashkil qiladi va Savti Sarvinoz (Buzruk maqomida), Savti Ushshoq, Savti Kalon, Savti Sabo (Rostda), Savti Navo (Navoda), Savti Chorgoh (Dugohda) deb nomlanadi.

Shashmaqomdagi Savtlarning shoxobchalari Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar deb ataladi va shu nomli doira usullarida ijro etiladi. Savtlar turli, ayniqsa, turkumli kuy va ashulalarning muayyan qismini ham bildiradi: Savti Ajam — Ajam turkumining 2-qismi; Savti Munojot — Munojot turkumining 2-qismi (mazkur Savtning surnay yo‘li ham mashhur); Savti Suvora — Suvoralarning 2-qismi; Savti Surnay Dugohi — Surnay Dugoxining 2-qismi.[1] Savti Sarvinoz.

[759].O’zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – Toshkent sh 2001 yil.

## SAVTI SARVINOZ.

Nodira g'azali.

Go'zal yorimg'a ey bodi[760] sabo etkur salomimni.
Kim eltar sendin o'zga yor kuyiga payomimni?[761]

Ko'ngul dardini qilu taqrir[762] emas hojo[763]t,
Tahayyur[764] birla ravshan ayla mazmuni kamolimni.

Ko'ngul komini[765] shirin istadim jomi visolidin,
Fig'onkim, charx[766] hijron[767] zahridin talx [768]etdi koshimni.

Vafo shaxbozidur men, gar meni sayd[769] etmak istar sen,
Muhabbat rishtasidin[770] qilg'o sen zinhor domimni.[771]

Muridi[772] ishqi olam so'z man, ushshoq [773]bazmida,
Navoe nolai naydek baland etdi maqomimni.[774]

Chamanda gul tamosho aylabo n sarvi ravon ko'rsam,
Qilur men yodi sultoni Skandar ixtishomimni.[775]

---

[760].Bod - Tong yeli.
[761].Payom - Xabar,darak.
[762].Taqrir - Qaror bermoq, maqsadni izhor etmoq.
[763].Hojot - Muhtoj, extiyojli.
[764].Tahayyur - Hayratlanish,hayron qolish.
[765].Kom - Maqsad,tilak,orzu.
[766]Charx - Falak,taqdir,tole'.
[767].Hijron - Ayriliq, firoq.
[768].Talx - Achchiq,taxir.
[769].Sayd - Ov,shikor.
[770].Rishta - Ip,chilvir.
[771].Dom - Tuzoq.
[772].Murid - Diniy izdosh,maslakdosh,shogird.
[773].Ushshoq - Oshiqlar.
[774] Maqom - O'rin, daraja.

Javobi shoh bayti Nodira ul nodiri davron.

Tegib sangi[776] ajal sindurdi miyno[777] birla jonimni.

**Savti Sarvinoz Talqinchasi.**

Ogahiy g'azali.

Ne jafoki yig'lasam, olida meni hasta arzi niyoz[778] etib.

Sitam[779] ustiga qiludur sitam, necha qatla noz uza noz etib.

Na uzoq yo'l ekan ey pari, g'ami furqating[780] meni zorg'a,

Ki visolingg'a eta olmadim, necha umrlar taku[781] toz[782] etib.

Karaming[783] manga erur asru oz, sitaming manga erur asru ko'b.

Kelu maqsadimga etur menu, bu ozu ko'ping ko'pu oz etib.

G'ami dahridin[784] dili zorim usru,[785] hazinu,[786] tangu, malil[787] erur,

Etur inbisot anga mutribo olib ilkka tanbo'ru soz etib.

Na murod[788] esa topilur sanga tilasang ko'ngul xarami aro,

Nega chekasen alamu ano taku po'i rohi Xijoz etib?

---

[775].Ixtishom - Dabdaba,hashamat,savlat.
[776].Sang - Tosh.
[777].Miyno - Ko'k,havorang.
[778].Niyoz - Yolvorish,o'tinish,umid.
[779].Sitam - Azob,jabr,zulm.
[780].Furqat - Ayriliq,firoq.
[781].Tak - Qadam,odim.
[782].Toz - Yugurik.
[783].Karam - Yaxshilik,olijanoblik,marhamat.
[784].Dahr - Olam,dunyo, zamon,davr.
[785].Usru - Juda ko'p,ortiq,benihoya.
[786].Hazin - Mahzun,mungli,g'amgin.
[787].Malul - Xafa, ranjigan.
[788].Murod - Tilak,istak,maqsad.

Desang o'lmasun yoshirin so'zim agar ushbu olam ichida fosh,
Dema xargiz olida siring ahli basharin[789] mahrami roz etib.

Etar Ogahiy talabig'a kimki raxi[790] haqiqat aro kirar.
Kelu sa'y ila qadam ur bu yo'l aro tarki azmi majoz etib.

**Savti Sarvinoz Qashqarchasi.**

Lutfiy g'azali.

Bir parivash g'amzasi[791] aqlimni majnun ayladi.
Ko'z yumib ochguncha holimni digargun[792] ayladi.

Subhidam kundek chiqib, ko'rguzgach ul qutluq[793] yuzin,
Toleim mas'udu[794] baxtimni xumoyun[795] ayladi.

Ko'p yugurmaktin kiyik ko'zi qarordi sahm[796] eb,
Ko'r nechuk g'amzang o'qi oni jigarxun[797] ayladi.

Intizori yo'li ustida quyub ketdi ko'zing.
Bizni ul Layli sifatlik misli Majnun ayladi.

Sehr elidin voqif [798] erdi hindiu Kashmir,[799] bas,

---

[789].Bashar - Odam,kishi,inson.
[790].Rax - Rox, yo'l.
[791].G'amza - Noz bilan qarash, ko'z solish.
[792].Digargun - Boshqacha, o'zgacha.
[793].Qutlug' - Muborak, tengsiz.
[794]. Mas'ud - Saodatli,baxtli.
[795].Humoyun - Qutlug',muborak, tengsiz.
[796].Sahm - Qo'rquv.
[797].Jigarxun - Ortiq darajada g'am va qayg'u chekuvchi.
[798].Voqif - xabardor.

Ul ajabkim, turk ekach, ul ko'z y uz  afsun ayladi.

Bir kun ul husn elining sultoni tutkay deb quloq,

Ishq Lutfiyning so'zini durri maknun[800] ayladi.

**Savti Sarvinoz Soqinomasi.**

Munis g'azali.

Uzoringda[801] nuri ayondur-ayon.[802]

Ki andin kunu oy nishondur-nishon.[803]

Balo o'qlarin otg'ali jonima,

Iki egma qoshing  kamondur-kamon.

Raqibingdin o'lmas ayon yaxshiliq.

Ki qavliyu fe'li yomondur-yomon.

Xayotimg'a  zikri[804]  labingdur sabab,

Yo'q  ersa tiriklik gumondur-gumon.

Manga sud[805] erur, sudi ishqing  g'ami,

Aning  harna g'ayri[806] ziyondur-ziyon.

Erur sen gahi  ko'z , gahi jon aro,

Senga bu ikki  yer makondur-makon.

---

[799].Kashmir - Hindistondagi joy nomi.
[800].Maknun - Yashirilgan,mahfiy,berkitilgan.
[801].Uzor - Yuz,chehra,bet.
[802].Ayon - Ma'lum,ravshan,ko'rinib turgan.
[803].Nishon - Belgi,alomat, darak.
[804].Zikr - Tilga olish,eslash.
[805].Sud - Foyda,naf,ortiqcha daromad.
[806].G'ayr - O'zga, boshqa, begona, yot.

Jigar birla ko'nglum qilib qon g'aming,
Iki ko'z yo'lidin ravondur-ravon.

Ne tong chiqmasa Munis ul ko'yidin,[807]
Ki ul anga g'amdin omondur-omon.

**Safti Sarvinoz Uforisi.**

Munis g'azali.

Davlating borida durlar barcha olam oshno.
Qaytgach davlat jaxonda topilur kam oshno.

O'yla bekaslik[808] meni mahzunga[809] topmish dastkim,
Bir kishi yo'qdur manga juz[810] kulfatu g'am oshno.

Baski davron xohishi begonalig' solmoqg'adur,
Bir-biriga bo'la olmas ikki hamdam oshno.

Kimki bo'ldi oshno yot ayladi begonalig',
Topmadim bu davr aro bir ahdi mahkam oshno.

Gar vafo bo'lsa parida bo'lg'ay erdi, ko'rmadim,
Bo'ldilar har nechakim avlodi odam oshno.

Xajr ranjidin[811] ularga etmisham kim, ko'rsalar,

---

[807]Ko'y - ko'cha,mahalla.
[808].Bekaslik - Kimsasizlik,yolg'izlik.
[809].Mahzun - Hazin,qayg'uli, g'amli.
[810].Juz - Boshqa,o'zga,bo'lak.
[811].Ranj - Azob, uqubat, qiynalish.

Xolima tutg'ay  azo begona, motam oshno.

Ishq  aro ul  nav'[812] erur vahshat[813] meni majnung'akim,

O'zgani demay bo'la olmas  ko'ngul  ham oshno.

Muniso, davron  g'ami begona bo'lsa tong emas,

Kim sanga bo'lmish biyik[814] donishvar[815] Akram oshno.

## Navro'zi Xoro tarkibiy qismlari bilan.

Shashmaqomning birinchi guruh sho'balariga Sarahbor, Talqin, Nasr, ularning taronalari va Ufar qismlari kiradi. Har bir maqom turkumi Sarahbor bilan boshlanadi. Ularning qisqacha tavsifi quyidagichadir:

**SARAHBOR[816]** - Sar - tojikcha bosh, axbor – arabcha "xabar" so`zining ko`pligi, ya'ni bu ibora ashula turkumlari tuzilishidan darak beruvchi bosh ashula yo`li, ashula bo`limining bosh mavzui ma'nosidadir. Olti maqomning har birida ular maqomlar nomi bilan qo`shib, Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh va Saraxbory Iroq - deb nomlanadi.

Ularning doira usuli:(an'anaviy iboralar bilan: bak – bum)

Ular Muzore' Mujtass, Mutaqorib, Ramal vaznlaridagi 11-14-15 bo'g'inli she'rlar bilan o`qiladi.Saraxborlar vazmin doira usulida ijro etilsada, turli maqomlarda o`ziga xos ohang va kuy mavzuiga ega. Ularning taronalari oltitagacha yetib, 3/4, 4/4 variantlari bilan, 3/8 3/4  yoki 3/4 3/8, 3/4 4/4, 3/4 takt o'lchovlaridagi doira usullari jo'rligida ijro etiladi.

**TALQIN** - nomli sho'balar Iroqdan tashqari hamma maqomlarda uchraydi va Talqini Uzzol, Talqini Ushshoq, Talqini Bayot, Talqini Chorgoh, Talqini Segoh deb yuritiladi. Talqin so`zi arabchada «tushuntirish», «nasihat etish» ma'nolarini bildiradi. Bu ibora doira usulining ham ifodasi: (an'anaviy iboralar bilan; bum - bak - bum – baka).

Unga mos she'rlar Ramal bahridan:

---

[812]Nav'  - Yangi.
[813].Vahshat  - Vahshiylik, qo'rqinch,yovvoyilik.
[814].Biyik  - Yuqori,yuksak,baland.
[815].Donishvar  - Bilimdon,mutafakkir.
[816]."Maqomlar"  - Toshkent sh - 2006 - yil. I. Rajabov.

Foilotun-foilotun-foilotun-foilun.

Talqin yo`llari Uzzol, Ushshoq, Bayot, Chorgoh, Segoh, Nasr va Ufar yo`llari bilan hamohang va bu sho`’ba qismlar bir-birining ritmik variantlaridir. Ularning taronalari esa Saraxborlardagi kabi vazifani bajaradi.

**NASR** – (Sochma, ko`mak, zafar ma’nosida) ular Shashmaqomda o`n to`rttadir:

Buzrukda - Nasrulloyi, Nasri Uzzol;

Rostda - Nasri Ushshoq, Navro`zi Sabo;

Navoda - Nasri Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo;

Dugohda - Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Husayniy Dugoh;

Segohda - Nasri Segoh, Navro`zi Xoro, Navro`zi Ajam;

Iroqda - Muxayyari Iroq.

Ular 6/4 takt o`lchovidagi doira usulida ijro etiladi;

(baka - bum - bak - ist - bum – baka)

Ularga aytiladigan she’r vazni Hajaz bahridan:

Mafoiylun - mafoiylun - mafoiylun – mafoiylun.

Nasrlarda ham bir nechadan taronalar mavjud (3-4 tadan oshmaydi, ba’zilarida esa, umuman uchramaydi) masalan: Xusayniy Navo va Dugoh).

**U F A R** – maqomlarning yakunlovchi qisni bo`lib, doira usulida ijro etilada.

(bum - baka - bum - bak; bum - baka - bak -bum – bak).

Ularni ijrosi uchun turli vazndagi (Ramal, Hazaj, Razaj) she’rlardan foydalaniladi. Har bir maqomning sho`’balari va ularning taronalari turkum tarzida ijro etilib, Ufar bilan tamomlanib, oxirgi suporish bilan yakunlanadi. Bu suporishlar saraxborlarning ashula boshidagi jumlalaridir. (Suporish - topshiruv ma’nosida turkumni Saraxborga uzatadi va u bilan yalunlanadi.

**Navro'zi Xoro tarkibiy qismlari bilan.**

Nodira va Furqat g'azallari.

Fig'onkim, gardishi[817] davron ayurdi shaxsuvorimdan,[818]
G'amim cho'p, ey ko'ngul, sen bexabarsan ohu zorimdan.

G'uborim[819] ishq vodiysida barbod o'ldi, andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo[820] izlar g'uborimdan.

Qizil qondur sirishkim,[821] za'farondur chexrai olim,
Meni kim ko'rsa, farq etmas xazon birla bahorimdan.

Buzuldi ro'zg'orim, xonai ayshim xarob o'ldi,
Na rohat ko'rgaman emdi buzulg'on ro'zgorimdan.

Biyobonlarni izlab, topmadim yorim so'rog'ini,
Berurman jon, sabo nogax xabar keltursa yorimdan.

Diyorim ahli mandin yorsiz begona bo'lmishlar,
Ki, men ham yorsiz ozurdaman[822] yoru diyorimdan.

Gaxi yirtib yaqo, gax qon yutub, gaxi fig'on ettim,
Nelar o'tdi bu oqshom, Nodira bu joni zorimdan.

---

[817].Gardishi davron - falak gardishi, taqdir,tole'.
[818].Shaxsuvor - Majozan sevgiliyor,mahbuba.
[819].G'ubor - Gard,chang.maj;ko'ngilda g'ashlik saqlamoq.
[820].To'tiyo - Ko'zni ravshan qiladigan dori.
[821].Sirishk - Ko'z yoshi.
[822].Ozurda - Ozor chekkan,ranjigan,dili ranjigan.

**Tarona I.**

Uvaysiy g'azali.

Dilrabo, yuzing uzra kokiling parishon[823] qil.
Xisningga niqob[824] o'lsun, maqsadimni pinxon[825] qil.

Na deb e'tiroz etting, mustamandi[826] zoringga.
Jurm[827] ko'p esa afv et lablaringni xandon qil.

Tunu kun meni holim ta'n etarmish ul zoxid,[828]
Yo rab, ul samandardek[829] ishq o'tig'a so'zon[830] qil.

Munda etmadi Vaysiy vaslingi bahosig'a,
Yumdi ko'z bu olamdin, rahm aylab arzon qil.

**Tarona II**

Bobur g'azali.

Ne chamanda sarv bor gul qomati ra'no kibi.
Ne chuliston ichra gul bor ul ruhi zebo kibi.

Ne jafo tavrida[831] bor dunyoda ul bemehrdek,
Ne vafo bobida bor olamda men shaydo kibi.

---

[823].Parishon - Tarqoq, sochilgan, yoyilgan.
[824].Niqob - Yuzni yashiradigan parda.
[825].Pinhon - Yashirin, berkitilgan.
[826].Mustamand - G'amli, tashvishli.
[827]Jurm - Gunoh, jinoyat.
[828].Zohid - Mutassil toat ibodat bilan shug'ullanuvchi.
[829].Samandar - Olovda paydo bo'ladigan jonivar.
[830].So'zon - Yonayotgan,kuyayotgan.
[831]Tavr - 1.Xil, nav,2. Qiziq,g'alati.

Donai holi Masihoso[832] labining ustida,
Notavon jonimg'a bo'ldi moyai[833] savdo kibi.

Minsa abrash[834] ul quyosh netaykim, Boburo,
Meni kuydurmakka eldur markab,[835] o'tdur ro kibi.

**Tarona III**

Lutfiy g'azali.

Seni o'tlug' ko'zing sehri meni kuydirdi savdodin,
Qoshing ham egrilik birla tuz[836] etti umr bunyodin.

Bilurmusen-ki kun tusht ne uchun sayrdin qoldi,
Yuzingni ko'rdi sorg'orib, ilikdin bordi safrodin.[837]

Qoshing nuni[838] uchun o'ynar ko'zim yosh ichra olmosi,
Ajab tifleki,[839] iymanmas muningdek mavji daryodin.

---

[832]Masih - Iso payg'ambarning laqabi.
[833]. Moya - Mohiyat, asl.
[834].Abrash - Ola-bila ot.
[835].Markab - Ulov,ot.
[836].Tuz - To'g'ri,tik.
[837].Safro - Sariq.
[838].Nun - Arab alifbosidagi xarf.
[839].Tifl - Bola,yosh,go'dak.

## Navro'zi Ajam.

Navoiy g'azali.

Qayu qushkim, qo'nar bu paykari[840] Majnun misol uzra,
Erur tan za'fidin[841] qushdekki, qo'ng'aylar hilol[842] uzra.

Balo toshi ham[843] o'lg'an qaddim ustidan yiroq ketmas,
Biaynih[844] nuqta yanglig'kim, tushar yozganlar zol[845] uzra.

Agar maygunlug'idin[846] rang aylar bo'lsa mashshota,[847]
Ko'zimning mardumin[848] yoqsun uyib ul turfa xol uzra.

Qoshingning toki ustida emasdur anbarin xoling,
Zuhal[849] go'yo ochibdur orazi[850] mushkin hilol uzra.

Netong nozikligin gar ko'rayshiy bo'rk[851] og'ir keldi,
Ham aylar chun qirov ko'rkam yog'ar nozik nihol uzra.

Sohibi[852] hat bila ham orazing xurshidi ravshandur,
Safoda[853] ne tafovut[854] soya tushkandin zulol uzra.

---

840.Paykar - Jang,urush.
841.Za'f - Hastalik,bemorlik,madorsizlik.
842.Hilol - Yangi oyning o'rog'i, yangi oy.
843.Xam - Egik, egri, bukik.
844.Biaynih - Aynan, xuddi,naq.
845.Zol - Arab alifbosidagi xarf.
846.Maygun - Mayrang,qizil,albon
847.Mashshota - Qiz va kelinlarni bezantiruvchi pardozchi.
848.Mardum - Bu erda ko'z qorachig'i.
849.Zuhal - Saturn sayyorasi.
850.Oraz - Yuz, chehra.
851.Bo'rk - Qalpoq, bosh kiyim.
852.Sohib - Egasi.
853.Safo - YorugLik,ravshanlik

Belingga to soching chirmashdi, rashkidin aning har tun,
Dimog'imda tong otkuncha xayol ermish, xayol uzra.

Navoiy yor la'lida uchuqdur, yo'qsa yopishdi,
Chibinning parridin bir pora[855] ko'ng'on choqda bol uzra.

**Tarona.**

Nishotiy g'azali.

Ey parivash, boshingga men xastai zor o'rgulay.
Notovon[856] bo'lsa ko'zing, men zori bemor o'rgulay.

Gar jafou javr ko'rguz, gar vafou mehri qil,
Sadqai lutfing[857] bo'lay yo etsa ozor o'rgulay.

Yo'q davoi dardim, illo boshinga aylanmag'im,
Boshing uchun qo'y gulandomim[858] meni zor o'rgulay.

Umrlardurkim erur jonimg' a la'lingdin[859] umid
Aylagil gohi Nishotiy birla guftor[860] o'rgulay.

---

[854].Tafovut - Ayirma, farq.
[855].Pora - Parcha, bo'lak.
[856].Notovon - Kuchsiz, bo'sh, zaif.
[857].Lutf - muloyimlik, yaxshi muomala.
[858].Gulandom - Gulbadan, gulmonand,xushbichim.
[859].La'l - Maj:Qizil lab.
[860].Guftor - So'z so'zlash. Gapirish.

**Navro'zi Sabo.**

Ogahiy g'azali.

Ul oy ruxsorikim andin hama olam munavvardur.
Latofat osmon i avjida xurshidi anvardur.[861]

O'rilgan ikki zulfi jon ko'nglim qasdin etmoqda,
Sarosar[862] jismi pechu tob[863] topg'an ikki ajdardur.

Musaffo tishlari kulgu chog'i la'li labi ichra,
Duraxshon[864] huqqai[865] yoqut aro pokiza gavhardur.

Yuzu zulfig'a to qildi nazar devonalig' aylab,
Guli axmar[866] yoqo choki parishon sunbuli[867] tardur.

Xiromon[868] qomatig'a gulshan ichra ko'rguzur ta'zim,
Dema el birla moyil har taraf sarvu sanavbardur.[869]

Agarchi Yusuf ahli husn sultoni Azizidur,[870]
Nigorim ollida lekin g'ulomu xoru qaytardur.

---

[861] Anvar - Eng nurli,eng porloq.
[862].Sarosar - Boshdan oyoq, sidirg'a.
[863].Pechu tob - Soch halqasi burami.
[864].Duraxshon - Porloq, yarqiragan.
[865].Huqqa - Qimmatbaho toshlar solinadigan quticha.
[866].Ahmar - Qizil, ol rang.
[867].Sumbuli tar - Ma'shuqaning xo'l sochi.
[868].Xiromon - Yayov yoki otda chiroyli yurish.
[869]Sanavbar - Archasimon xushqomat daraxt.
[870].Aziz - Yusuf payg'ambar yashagan davrdagi Misr sultoni

Ul oy vasfida har kun Ogahiy she'ri topar rif'at,[871]
Quyoshdek bos i andin charx avjig'a barobardur.

**Navro'zi Sabo Talqini.**

Munis g'azali.

Nigori g'aming ichra holimg'a rahm et.
Firoqingda[872] etgan malolimga[873] rahm et.

Tilab iltifotingni[874] qon yig'laram ko'p,
Qilib iltifot ashki[875] olimg'a[876] rahm et.

Hilol[877] o'ldi qaddim firoqing g'amidin,
Yuzu oftobim, hilolimga rahm et.

Firoqingda yolg'uz chekarmen fig'on ko'p,
Bo'lub Munisim bo'yla holimg'a rahm et.

---

[871]Rif'at - Yuksaklik, martaba.
[872]Firoq - Ayriliq, judolik.
[873].Malol - Ko'ngilga etgan og'irchilik.
[874].Iltifot - muloyimlik, yaxshi muomala.
[875].Ashk - ko'z yoshi.
[876].Ol - Qizil.
[877].Hilol - O'n to'rtlik egik oy.

**Navro'zi Sabo Talqinchasi.**

Munis g'azali.

Ko'nglim erur shikastavu[878] jonim nisor[879] ham.
Oshuftadur[880] zamirimu jismim fig'or[881] ham.

Bekasman[882] d alam zadavu[883] zor mustamand,[884]
Ey yor bu g'amim aro ne g'amgusor [885] ham.

G'am birla gul kabi jigarim pora-poradur,[886]
Dard ichra hardoq badanim asir, xor[887]ham.

Ag'yor[888] ta'nasi birla majruh[889] xotirim,
Qilmay nazzora[890] holima bir lahza yor ham.

Munis g'amimni kimga deyin qilmasa kam,
Dasturi[891] azimu[892] shox i volotabor[893] ham.

---

[878].Shikasta - Siniq, jarohatlangan.
[879].Nisor - Sochqi, sochish.
[880].Oshufta - Maftun,mahliyo, shaydo.
[881].Figor - Jarohat, yara.
[882].Bekas - Kimsasiz,yolg'iz.
[883].Zada - Ezilgan, urilgan.
[884].Mustamand - Ojiz,muhtoj,bechora,sho'rliq.
[885].G'amgusor - Mehribon, g'amni yozuvchi.
[886].Pora-pora - Parcha,bo'lak,burda.
[887]Xor - Xo'rlangan,xor-zor.
[888].Ag'yor - Begonalar,uotlar,boshqalar.
[889].Majruh - Yaralangan,yarali,alamli.
[890].Nazzora - Qarash, ko'z solish.
[891].Dastur - 1.Qo'llanma.2.Vazir.
[892].Azim - Ulug', katta.
[893]Volotobor. – Baland, yuqori. -

**Ushshoq Uforisi.**

Kamiy g'azali.

Men sari ohista-ohista xirom aylab keling.
Bilmasun ag'yor jono vaqti shom aylab keling.

Vah o'lub qolmay kamoli shodlikdin ey pari,
Bexabar qo'ymay meni avval payom[894] aylab keling.

Murg'i[895] jonimni agar sayd[896] aylamak maqsad esa,
Xalqa-xalqa mor[897] kokillarni dom[898] aylab keling.

Noz birlan xo'blara[899] oziq farahnok [900] beibo,
G'amzangiz[901] tig'iga ko'ksimni poyon aylab keling.

Betakalluf [902] bir kuni kulbamga qasd aylab keling,
Sho'hlik birlan kulib-o'ynab salom aylab keling.

Yo'l-yo'la sochib damo-dam, shakkaru, qandu nabot,
Ya'ni jonparvar[903] labingizdin kalom aylab keling.

---

[894].Payom - Payg'om, xabar, darak.
[895].Murg' - 1.Tovuq,2.Qush.
[896].Sayd - Ov,shikor
[897].Mor - Ilon.
[898].Dom - Tuzoq,to'r,ov qilish asbobi.
[899].Xo'b - Yaxshi,suluv go'zal,juda.
[900].Farahnok - Shodiyona, yuyrash, quvonish.
[901].G'amza - Ishva-noz bilan qarash,ko'z suzish.
[902].Betakalluf - Takallufsiz,ortiqcha maqtamay.
[903].Jonparvar - Jonlantiruvchi,quvvat beruvchi.

Kecha yo kunduz demak, jono Kamiy haddi emas,

Xo'blikning fursati yodin davom aylab keli

**Nimcho'poni.**

Navoiy g'azali.

Muhabbat Shamaeva ijrosi.

Zulfiga[904] mayl,[905] e nasimi[906] anbarafshon[907] aylama.

Tarqatib yuz pora ko'nglumni parishon[908] aylama.

Olam ahli jonig'a rahm ayla ey chobuksuvor,[909]

Otlanib usruk[910] yana ohangi maydon[911] aylama.

Azmi gasht[912] aylab tun oqshom oy kabi aylab tulo',[913]

Charxning yuz ming ko'zin husningg'a hayron aylama.

Zaxmliq[914] bag'rimni yuz ming pora aylab tig' ila,

Zulmdin[915] har porasin bir qatrai qon aylama.

Gar desang ko'nglumni gardun[916] tax-batax[917] qon etmagay,

Xurga maylin g'unchadek ko'nglunda pinhon aylama.

---

904.Zulf - Gajak,soch gajagi, soch.
905.Mayl - Moyillik,xoxish,istak.
906.Nasimi - Yel,shabada,shamol,epkin.
907.Anbarafshon - Anbar sochuvchi.
908.Parishon - Tarqoq, sochilgan,yoyilgan.
909.Chobuksuvor - Usta suvoriy,mohir chavandoz.
910.Usruk - Mast,xumor,suzukko'z.
911Maydon - Janggoh,kurash va urush usuli.
912.Gasht - Aylanish,kezish, sayr etish.
913.Tulo' - balqimoq, porlamoq.
914.Zaxm - Yara, jarohat.
915.Zulm - Zulm etkazmoq.
916.Gardun - Falak,osmon,ko'k,olam.
917.Tax-batax - Qat-qavat.

Ey Navoiy bazmi tuzgan ermish ul gul bog' aro,

To parishon bo'lmasun bulbuldek afg'on[918] aylama.

**Guluzorim.**

Navoiy g'azaliga muxammas.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi.

Do'stlarim, bir nozanin ishqi bu hol etmish meni:

Zulfi savdosi alif[919] qaddimni dol[920] etmish meni,

Lola gul ruxsori hajr ashkimni[921] ol etmish meni,

Bir pari paykar g'ami oshufta[922] hol etmish meni,

Elga ahvolim demakka gungu lol etmish meni.

Ishq etkurmish meningdek telbani bu ergakim,

Teshilur ko'ksim malomat[923] o'qidin ne ergakim.

Yo'q majolim,[924] bo'yla holimdin o'zingga dergakim,

Men havoiyni,[925] ne tong, ko'rguzsalar bir-birgakim,

Egma qoshi fikri andog'kim hilol etmish meni.

Gohi Majnun elga, goh men sog' ila teng bo'lmisham,

Xasratingdin[926] lola yanglig' dog' ila teng bo'lmisham

Kim, xazon faslidagi yafrog' ila teng bo'lmisham,

Yor ko'yi ichrakim, tufrog' ila teng bo'lmisham,

---

[918].Afg'on - Fig'on,nola.
[919].Alif - Arab alifbosi xarfi.
[920].Dol - Arab alifbosi xarfi.
[921].Ashk - Ko'z yoshi.
[922].Oshufta - Maftun, magliyo. Shaydo.
[923].Malomat - Ayb to'qish, yomonlash.
[924].Majol - Quvvat,kuch, iqtidor.
[925].Havoyi - Beqaror,o'yinqaroq.
[926].Hasrat - Afsus,nadomat,g'am-g'ussa.

Ishq g'avg'osi bu yanglig' poymol[927] etmish meni.

**Girya I**

Zavqiy g'azali.

G'.Hojiqulov ijrosi.

Yuzingni ko'rsatib avval, o'zingga bandalar[928] qilding,
Yana ko'nglim olib yuz noz birlan xandalar qilding.
Jamoling partavin[929] sochib ajoyib jilvalar[930] qilding,
Masihdek[931] bir boqishda murda jismim zindalar[932] qilding,
"Senga men to qiyomat oshno", deb va'dalar qilding.

Deb erding: "Kechayu kunduz sening yoring bo'lurman,-deb,
Tikandek suhbatingda bir guli noring bo'lurman,-deb.
Jafoni senga oz aylab, vafodoring bo'lurman"-deb,
Umidim ko'p edi yolg'iz xaridoring bo'lurman deb,
Ajabkim, xalq ichinda bul xavas deb shikvalar[933] qilding.

Kima aytib, kima yig'lay bu zolim yor jafosini,
Haqiqat qilmasa ma'shuq degan oshiq xatosini,
Hamisha furqating tortsam, raqib ko'rsa vafosini,
Qayu Laylisifat mundoq qilur Majnun gadosini?
"Yuzungni bir ko'ray"- desam, qo'lingni pardalar[934] qilding.

---

[927].Poymol - Ezilgan,oyoq osti bo'lgan.
[928].Banda - Qul,ixtiyorsiz kishi.
[929]Partav - Yolqin,shulaning tushishi.
[930].Jilva - Noz va g'amza ko'rsatish.
[931].Masih - Iso payg'ambar.
[932].Zinda - Tirik, jonli.
[933].Shikva - Shikoyat,zorlanish,arz-dod.
[934].Parda - To'siq.

## Girya II

G'ayratiy

O. Alimahsumov ijrosi.

Qo'shilsin bu muxammas bazm ichra savti [935] gulyora,
Kuying yoq bermangiz ulfatlar ichra bo'lsa ag'yora,
O'zim ham yozmisham arzi dilim yorimg'a ming bora,
Sabo tezdan salomimni eturgil ko'yi[936] dildora,
Parishon xotirimni arzon qil nozanin yora.

Unutmish man o'zim ham shoxlik nomu nishonimni,
Junundek[937] darbadar man hech kishi bilmas makonimni,
Muhabbat ko'chasida tashladim tig'i sinonimni,[938]
Bayon et ishtiyoqi vasli chun qilg'on fig'onimni,
Etar shoyad[939] kelib, bul ko'xkan[940] holig'a nazzora.

Tabassumlar bilan ul mahvashim[941] shirin maqol etsa,
Jahon ehzonidin bilmoq uchun gar qilu qol[942] etsa,
Meni hamdard qatori qullaridan ehtimol etsa,
Nigorim lab ochib sandin agar asli savol etsa,
Degin chin shoxdur bu ishq sahrosida avvora.

---

[935].Savt - Tovush,ovoz,ohang,kuy,maqom.
[936].Ko'y -Yorning manzili.
[937].Junun - Jinnilik,telbalik,aqldan ozganlik.
[938].Sinon - Nayza uchi, o'tkir nayza.
[939].Shoyad - Zora, extimol, koshki.
[940].Ko'xkan - Tog' qazuvchi, Farhod.
[941].Mahvash - Oyga o'xshagan,oyday go'zal.
[942].Qol - Gap-so'z,shovqin-suron.

## Girya III

Hurshid g'azali.

Doim seni g'aming bilan holim xarobdur.
Topmay visoling ey sanam qonim sharobdur.
Xajring o'tida o'rtanib bag'rim kabobdur.
Rahm etmasang bu jonima qattiq azobdur.
Qilg'il nazzora[943] holima mendek xitobdur.[944]

Gul ochilur chamandagi bulbul navosidin.
G'amdin ko'ngul farg'[945] topar to'ti sadosidin.
Husning kamoli etgusi oshiq duosidin.
Oshiqlaring umid etar va'dang vafosidin.
Kelgil dilim xush aylag'il ayni savobdur.[946]

Avvalda va'dalar qilib oxir sitam[947] nadur.
Kelay qoshimg'a bir yo'li menga bu g'am nadur.
Dog'i g'amingda jismima mundog' olam nadur.
Qari parimga vaslini qilsam karam nadur.
Arzu dilimni sharxidin[948] bu bir kitobdur.

---

943.Nazzora - Nazar solish,maftun bo'lish.
944.Xitob - So'z bilan murojat qilish.
945.Farg' - Tinchlik,xotirjamlik.
946.Savob - Yaxshilik badaliga olinadigan mukofot.
947.Sitam - Azob,jabr.
948.Sharx - Izoh, xabar,tushuntirish.

# Rost Maqomi.

“ROST”. Bu maqom o’tmish musiqa risolalarida o’n ikki maqomlardan biri sanalgan.[949]O’rta asr musiqa risolalarida “Rost”ning eng qadimiy maqom ekani to’g’risida so’z yuritiladi va haqda afsona keltiriladi. Unga ko’ra “Rost” maqomi Odam Atodan qolgan ekan.Go’yo Odam Ato Momo Havo ishqida sarson-sargardon bo’lib, uni axtarib yurganida chekkan nolasi, ohu-vohi “Rost” maqomi pardalaridagi kuylardan iborat edi.Shuning uchun musiqiy risolalar mualliflari “Rost” maqomini “Ummul-advor”, ya’ni “barcha maqomlarning onasi” deb hisoblashgan.Ushbu afsonani keltirish bilan o’tmish musiqa olimlari “Rost” maqomini eng qadimiy va ilk maqom ekanini isbotlamoqchi bo’lganlar.

“Rost” so’zi “to’g’ri”, “haq”, “mos tushadigan” ma’nolarini anglatadi. Musiqiy risolalarda aytilishicha, bu maqomning pardalariga juda ko’p kuy va ashulalar “mos kelgani” uchun “Rost” deb nomlangan.O’zbek musiqa merosida xozirda ham bu maqom ladiga mos musiqiy asarlar juda ko’p.Bundan tashqari ushbu maqomning cholg’u va ashula yo’llari asosida turli musiqiy asarlar ham vujudga kelgan.”Rost” maqomining birinchi gurux sho’’balari juda ham mashxur ashula yo’llari bo’lib, ular asosida O’rta Osiyoning turli voxalarida savtlar, ularning shoxobchalari, “Ushshoq”ning to’rtta shakli, “Gulyori Shahnoz” va uning shoxobchalari, surnayda chalinadigan qator musiqiy asarlarni keltirish mumkin.

“ROST” maqomining asosiy yo’llari boshlanadigan parda, ya’ni tonikasi “DO” tovushi bo’lib, O’n ikki maqom tarkibida “Miksolidiy” ladiga yaqin bo’lgan. “Rost” maqomi ham cholg’u va ashula bo’limlaridan iborat. Dastlab uning cholg’u qismlari yaxlit holda birin – ketin ijro etiladi.Bu cholg’u qismlari “Tasnifi Rost”, “Garduni Rost”, “Muxammasi Rost”, “Muxammasi Ushshoq”, “Muxammasi Panjgoh”, “Saqili Vazmin”, “Saqili Rag-Rag” deb nomlangan.

“Rost” maqomi ashula bo’limining bosh mavzusi bo’lgan “Saraxbori Rost”o’zining kuy tuzilishi jihatdan betakror ashula yo’llaridan bo’lib, juda murakkab qiyofaga ega.”Saraxbori Rost” cholg’u, muqaddima va daromad qismi bilan boshlanadi.So’ngra she’r matnsiz ijro etiladigan ohanglar orqali o’rta pardalarda ijro etiladigan miyonhat qismiga o’tiladi.”Saraxbori Rost”ni tinglash jarayonida kishi hissiyotida jiddiy holat yuzaga keladi.Bunday holat tarona

[949] . “Maqom asoslari” - Toshkent sh. 1992- yil. I. Rajabov

qismlariga o'tilishi bilan engillashadi va tinglovchida yangi xis – tuyg'ular paydo bo'ladi Kuy harakatida ohanglar ravon yangraydi.

**Saraxbori Rost.**

Munis g'azali.

Qildi ko'zum qaro meni g'am tiyra[950] hol etib,
Xursheddek yorut ani arzi jamol etib.

Mardumlarim[951] yuziga yopishtimu yo magar,[952]
Mashshota[953] zeb berdi munga oni hol etib.

Jismim g'aming toshi bila ko'yingda bo'ldi gard,
Qil sarfaroz[954] gohi ani poymol[955] etib.

Ishqimni ayla tark deding, maqsading nedur?
Mundog' meni mukallafi amri mahol[956] etib.

Ber fayzi shomi iyd qoshing aksidin manga,
Yoqut rang may shafaqida hilol etib.

Topdim muhabbat ahli aro surx ro'ylig',
Qonlig' sirishk chehrai zardimni[957] ol etib.

---

[950]Tiyra - Qorong'u,qora.
[951].Mardum - Odamlar,kishilar.
[952].Magar - Balki,ammo,lekin,aftidan.
[953].Mashshota - Pardozchi.
[954].Sarfaroz - Kimsaning xizmatiga musharraf bo'lmoq.
[955].Poymol - Ezilgan, oyoq osti bo'lgan.
[956].Mahol - Mumkin bo'lmaydigan ish.
[957].Chehrai zard - Sariq yuzlik, sariqlik.

Munisg'a har necha g'ami hajring hujum etar,
Daf' aylar oni yodi nishoti visol etib.

## Tarona I

Furqat g'azali.

Yuzi zulfing furqatidan[958] ey diloromim mening.
Yig'lamoqlig' birla kechgay subh[959] ila shomim mening.

Yo'q erur osoyishim[960] holing g'amidin kechalar,
Naylayin talx[961] o'lsa bu taryokdin[962] komim[963] mening?

Aylading azmi safar, qoldim agarchi termulib,
Sen bilan ketdi barobar, sabru[964] oromim mening.

El gumon aylarki: no'shim[965] bodai[966] gul rang erur,
Yo'q labing yodida to'lmish qon ila jonim mening.

Nega bulbuldek fig'on,[967] qumridek chekmay navo,
Sendan ayruv Furqat ey, sarvi gulandomim[968] mening.

---

[958].Furqat - Ayriliq, ;udolik.
[959].Subh - Tong,ertalab.
[960].Osoyish - Tinchlik,orom,farog'at,rohat.
[961].Talx - Ashshiq,taxir.
[962].Taryok - Zahar ta'sirini yo'qotadigan dori.
[963].Kom - Maqsad,tilak,orzu.
[964].Sabr - Toqat, chidam.
[965]No'sh - Ichilik ichish.
[966].Boda - May,sharob.
[967].Fig'on - Nola, arz-dod.
[968].Gulandom - Gul yuzli,gulday suluv.

## Tarona II

Bobur g'azali.

G'ofil[969] o'lma ey soqiy gul chog'in g'animat tut.
Vaqti aysh erur boqiy ol chog'ir[970] ketur, bot[971] tut.

Bu nasihatim angla, ne bilur kishi angla,
Ne bo'lur ekin tongla, sen bukun g'animat tut.

Xushdurur visoli yor anga bo'lmasada yor,
Bo'lsa vasl e'tibor davlatu- saodat tut.

## Tarona III

Uvaysiy g'azali.

Jafosin chekmayin bo'lmas muyassar senga jononing.
Yurakka dardi tegmay, ta'sir etmas ohu afg'oning.

Qoshing bir g'amzasi to to'kdiki ushshoq [972] qonini,
Ko'zing maydonida saf-saf tomosho qildi mijgoning.[973]

Uvaysiy yoda ko'rsatmay, hijo[974] bo'lgan taalluqot,[975]

---

969.G'ofil - G'aflatda qolgan,dangasa.
970.Chog'ir - May,musallas.
971.Bot - Tez-shitob, tezlikda.
972.Ushshoq - Oshiqlar.
973.Mujgon - kipriklar, mijalar.
974.Hijo - Xarflarni ayrim-ayrim o'qish.
975.Taalluqot - Aloqa, bog'lanish, munosabat.

Alarni g'arq etar to'fon o'lub bu chashmi giryoning.[976]

**Tarona IV**

Qoshing bilan, ko'zingga
Oshno bo'ldim o'zingga,
Minnat qilsang bo'lmaydi,
Seni shirin so'zingga

Ishq dardiga do'stlar endi,
Davo bo'lmas, davo bo'lmas
Aytaversam qiz dardi,
Ado bo'lmas,ado bo'lmas.

**Suporish**

Jonim chiqadir sarviravonim
xay do'st- xay do'st , bu qissani
Shami shabistonima ayting.
Bu qissani yorima ayting.
Shami shabistonima ayting.

[976].Chashmi giryoning - Yig'lab turuvchi.

# Chorgoh Talqini tarkibiy qismlari bilan.

Chorgoh (forscha -to‘rt joy, o‘rin)

1) O‘n ikki maqom tizimidagi 24 sho’balardan birining nomi[977]. Tovushqatori 2 butun (204 va 180 sent) va yarim ton (114 sent) oralig‘ida joylashgan pardalar tuzilmasiga asoslangan. O‘tmishda bastakorlar Chorgohning pardalari negizida turli shakl va janrlarda asarlar yaratishgan. Chorgoh maqom yo‘llari hozirgi kunga kadar xilmaxil ijod va ijro uslublari orkali bizgacha yetib keldi. Muayyan maqom yoki sho‘’ba tovushqatorining to‘rtinchi pardasi ham Chorgoh deyiladi. Musiqa ijodkorlari tomonidan har xil maqom va sho’balarga tayangan holda Chorgoh nomida kuy va ashulalar bitilgani ma’lum. Macalan "Chorgohi Ajam" (Ajam sho’basining Chorgohi) kabi. Bu asar O‘rta asrlarda 24 murakkabotning biri sanalgan;

2) Shashmaqom hamda Xorazm maqomlari majmuasidagi[978] Dugoh maqomida tarkibiy cholg‘u kuy va ashula yo‘llari: "Muxammasi Chorgoh.", "Talqini Chorgoh.", "Nasri Chorgoh.", "Ufari Chorgoh.", "Savti Chorgoh.", "Talqinchai Savti Chorgoh.", "Qashqarchai Savti Chorgoh.", "Soqiynomai Savti Chorgoh", "Ufari Savti Chorgoh". Ular parda tuzilishining dastlabki to‘rt pog‘onasi O‘n ikki maqom Chorgoh sho’basiga mos keladi. Chorgoh maqom yo‘llari yorqin va yoqimli yangraydi, tinglovchida xush kayfiyat uyg‘otadi. Chorgoh sho’balarining o‘zgacha uslubiy yo‘llari ham yaratilgan. Chunonchi, Toshkent, Farg‘onada mashhur Chorgoh ashula yo‘llari, "Yovvoyi Chorgoh", surnay kuylari, Sodirxon Hofiz (Bobosharifov) yaratgan "Chorgohi Munojot" shular jumlasidan. Mazkur vohalarda mashhur Chorgoh yo‘llari 5 qismli yirik shakldagi ashula turkumidan iborat. "CHorgoh 1" saraxbor, "CHorgoh 2" tarona, "CHorgoh 3" savt, "CHorgoh 4" qashqarcha, "CHorgoh 5" va Chorgoh 6" ufar doyra usullari asosida ishlangan;

---

[977]. O’zbek xalq muzikasi. – Toshkent sh. 1959 y. Yu. Rajabiy.

[978]. Maqomlar. – Toshkent sh .2006y. I. Rajabov.

3) Chorgoh Eron dastgohlari, ozarbayjon mug‘omlari va uyg‘ur muqomlaridan birining nomi. Mazkur Chorgohlarning parda tuzilishi bir biriga yaqin bo‘lsada, kuy ohanglari, usul va uslublari uzbek milliy va mahalliy musiqasiga xosdir.

**Talqincha**.

Talqin doira usuli asosida yaratilgan maqom ashula yo‘li, talqin sho’basiga o‘xshatma, nazira;[979] Shashmaqomning ikkinchi guruh sho’balaridan Mo‘g‘ulcha va Savtlarning muayyan shoxobchasi. Talqinlar Buzruk maqomining Mo‘g‘ulchai Buzruk, Savti Sarvinoz, Iroqi Buxoro, Rostning Savti Ushshoq, Savti Kalon, Savti Sabo, Navro‘zi Sabo, Navoning Savti Navo, Mo‘g‘ulchai Navo, Mustazodi Navo, Segohning Mo‘g‘ulchai Segoh sho’balarida uchraydi va shu sho’balar nomi bilan qo‘shib ataladi (masalan Talqinchai Savti Sarvinoz, Talqinchai Mo‘g‘ulchai Dugoh va hokazo). Iroqning Chanbari Iroq sho’basi, shuningdek, ko‘pgina mumtoz kuy va ashulalar (masalan "Bayot IV", "Bayoti Sheroziy IV"), bastakorlarning asarlari ham Talqin usulida ijro etilgan.

## Chorgoh Talqini .

Uvaysiy g’azali.

Yor bir soat meni husnig’a mehmon aylasa.

Ko’nglimi zindona solg’um yona armon aylasa.

Ey dilo, ko’p chekmag’il mehnat ayog’ida alam,

Shoyad ul dushvorni[980] haq bizga oson aylasa.

Shona[981] ursam g’ayr zulfig’a choqulsin qo’llarim,

Qaysi bir mashshota[982] ham zulfing parishon[983] aylasa.

---

979. Maqomlar. - Toshkent sh .2006y. I. Rajabov.
980.Dushvor - Qiyin,mushkul,ayanchli.
981.Shona - Taroq.
982.Mashshota - Pardozchi.

Yetmayin maqsadga o'zga ishqqa o'lsam suvor,[984]
O'ynatib ishqing samandin[985] kimki tug'yon[986] aylasa.

Mahram[987] o'lsam xalq asrorig'a[988] men mahrum o'lay,
Kim hariming[989] sirrini ag'yora a'yon aylasa.

G'ayrg'a o'lsam g'ulom o'lsun boshim tandin judo,
Bandalig'da kimki tavqingni[990] giribon[991] aylasa.

Tong emas la'ling[992] Masihidin[993] Uvaysiy topsa jon,
Jonini abro'[994] hiloling sori qurbon aylasa.

**Tarona.**

Munis g'azali.

Niqobi abr foming[995] go'shasidin[996] arzi ruxsor et.
Quyoshdek zarra xaylin[997] muztarib[998] qil mahvi[999] dildor et.

Gul o'lmish asru[1000] mag'ruru sanavbarlar[1001] base sarkash,[1002]

---

[983].Parishon - Yoyilgan,sochilgan.
[984].Suvor - Suvoriy, otliq.
[985].Samand - Tezyurar va chiroyli ot.
[986].Tug'yon - Toshish,haddan oshish.
[987].Mahram - Sirdosh,ulfat,hamdam.
[988].Asror - Sir, sirdosh.
[989]Harim - Maxsus joy,o'z yaqinlarigina kira oladigan joy.
[990]Tavq - Bo'yindagi halqa.
[991].Giribon - yoqa,oldi yopiq ko'ylak yoqasi.
[992].La'l - Qizil yarqiroq qimmatbaho tosh.
[993].Masih - Iso payg'ambar.
[994].Abro' - Qosh.
[995].Fom - Rang,tus,kabi,singari.
[996].Go'sha - 1.Burchak,makon,joy.2.Uzlat,chekka.
[997].Xayl - 1.To'da,gurux.2.Lashkar,otlar uyuri.
[998].Muztarib - Mustar,intizor.
[999].Mahv - Yo'qolish,bitish,maydondan ko'tarilish.

Yuzingni gul-gun ochib, jilva[1003] birla sayri gulzor et.

**Nasri Chorgox.**

Navoiy g'azali.

Yo'lida tufroq o'ldum, ey sabo, yetsang g'uborimg'a.
Quyun[1004] bo'l, dag'i eltib sadqa[1005] qilg'il gul uzorimg'a.

Gar o'lsam ul malak siymo[1006] pari hajrinda aylanay,
Pari birla malak parvonadek sham'i[1007] mazorimg'a.

Firoqi[1008] tiyr boroniki[1009] chekdim, qushg' a o'xshatg'ay,
Ki, yulmushlar yungin boqqan kishi jismi figorimg'a.[1010]

Quyosh yanglig' [1011] yuzing hajrinda bo'lmas yorumoq[1012] mumkin,
Gar o'lsam yuz quyosh tole' qarorgan[1013] ro'zg'orimg'a.

Yigitlar ishqini gar ixtiyor etmay desam qo'ymas,
Yigitlik birla oshiq shevalik[1014] o'z ixtiyorimg'a.

---

[1000].Asru - Juda,rosa,g'oyat.
[1001].Sanavbar - Archasimon xushqomat daraxt.
[1002].Sarkash - Bosh tortuvchi,qaysar,o'jar.
[1003].Jilva - Jilolanmoq,hilpiramoq.
[1004].Quyun - Bo'ron,dovul.
[1005].Sadqa - Sadaqa,qurbon.
[1006].Siymo - Yuz,bet,chehra,aft.
[1007].Sham' - Uyni yorituvchi sham.
[1008].Firoq - Ayriliq, judolik.
[1009].Boron - Yomg'ir,bulutdan yog'iladigan suv tomchilari.
[1010].Figor - Jarohat,yara.
[1011].Yanglig' - Kabi,singari.
[1012].Yorumoq - Yorishmoq.
[1013].Qarorgan - Qoraygan

Junun[1015] vodiysida qolur sabo yuz dasht po'yamdin,[1016]
Yana etmon ne ildam sayr ekan chobuksuvorimg'a.[1017]

Seni ey mug'bacha[1018] mahbublikdan[1019] asrasin tangri,
Agar bir jomi may birla iloj etsang xumorimg'a.[1020]

Fano mayxonasining mayfurushga[1021] fido jonim,
Ki may ehson qilur holatda boqmas yo'qu borimg'a.

Vafo o'tiga men kuydum, vale topqay Navoiydek,
Muhabbat rishtasi[1022] toqqan kishi har bir sharorimg'a.[1023]

**Tarona I**

Ogahiy g'azali.

Ey go'zal bahor o'lmish azmi[1024] sayri sahro qil.
Har sori gulistonlar gullarin tomosho qil.

Uyda o'lturub tab'ing [1025] gar muqarrar o'lmishdir,
Sayri sayqalidin[1026] ul ko'zguni mujallo[1027] qil.

---

[1014].Sheva -Odat,ravish,tarz,uslub.
[1015].Junun - Majnunlik,telbalik.
[1016].Po'ya - Yugurish,yo'rtish.
[1017].Chobuksuvor - Usta suvoriy,mohir otliq,chavandoz.
[1018].Mug'bacha - Mayxonaning yugurdak xodimi.
[1019].Mahbub - Sevimli,aziz,yoqimtoy.
[1020].Xumor - Ichkilikdan keyingi bosh og'rig'i.
[1021].Maufurush - May sotuvchi, ichkilikfurush.
[1022].Rishta - Ip,chilvir.
[1023].Sharor - Uchqun,alanga,toblanish.
[1024].Azm - Niyat,qaror,bel bog'lamoq.
[1025].Ta'b - Xarakter,xulq,mijoz.
[1026].Sayqal - Pardozlash,yaltiratish.
[1027].Mujallo - Jilolangan,yaltiragan.

Sensizin gulistonda andalib[1028] erur xomush,
Gul yuzing ochib oni subhi shom go'yo qil.

Xandai labing istab tangdil[1029] erur g'uncha,
Ochg'ali oning ko'nglin bir tabassum afsho[1030] qil.

**Tarona II**

Xuvaydo g'azali.

Arzimni aytdim bodi sabog'a,
Etkursa xolim ul dilrabog'a.

Dedi raqiblar yorg'a yomonlab,
Soldi judolig', naylay arog'a.

Yorsiz kishini parvosi yo'qtur,
Suydim sanamni qoldim balog'a.

Do'stini yorim ranju alamda
Qo'ydi el ichra javru jafog'a.

**Tarona III**

Jahondin telba ko'nglimning bor erdi ul tabarrosi.[1031]
Uzun andishaga[1032] soldi netay zulfning tamannosi.[1033]
Agar uchmoq[1034] bog'inda muyassar bo'lmasa vasling,

---

[1028].Andalib - Bulbul.
[1029].Tangdil - Diltang,yuragi siqilgan.
[1030].Afsho - Sochmoq.
[1031].Tabarro - Chetlashish,yuz o'girish.
[1032].Andisha - Fikr,o'ylov,xavf.
[1033].Tamanno - Istak,orzu,tilak,umid.

Manga do'zah erur valloh, aning firdavsi[1035] a'losi.

**Tarona IV Xusayniy.**

Ogahiy g'azali.

Yuzing ochkim quyosh sidqing[1036] bo'lib boshingdin aylansun.
Yangi oy yuz tavozu[1037] ko'rguzib qoshingdin aylansun.

Agarchi la'li,[1038] yoqut[1039] el zamirig'a mufarraxdur,[1040]
Hayot afzo[1041] ikki la'li guxar[1042] poshingdin[1043] aylansun.

Tani jonim hadaf [1044] aylab o'qu tosh otsang, ey chobun,[1045]
Biri o'qungdin evrulsun[1046] biri boshingdin aylansun.

Raqibing gar erur hayolim oni yo'ldosh etib kelsang,
Sadqa jon sadqa bo'lsun jismi yo'ldoshing aylansun.

Boqib ko'z ichidin pinhonu fosh[1047] etdin tag'ofullar,[1048]

---

[1034].Uchmoq - Jannat,bihisht.
[1035].Firdavs - Jannat bog'i.
[1036].Sidq - Chin,rostlik,to'g'rilik,haqiqat.
[1037].Tavozi - Odoblilik,o'zini past tutmoqlik.
[1038].La'l - Qimmatbaho qizil tosh.
[1039].Yoqut - Har xil rangli qimmatbaho tosh.
[1040].Mufarrax - Shodlantiruvchi, kayflantiruvchi.
[1041].Afzo - Orttiruvchi,uzaytiruvchi,quvontiruvchi.
[1042].Guxar - Gavhar,inju.
[1043].Posh - Sepuvchi,sochuvchi.
[1044].Hadaf - Nishon, nishon joyi.
[1045].Chobun - Parda, pardalamoq,to'smoq.
[1046]Evrulsin - Aylansin, o'girilsin.
[1047].Fosh - Ochiq,oshkor.

Yo'qu borim pinhon ila qoshingdin aylansun.

Ul oy ko'ngulga qildi Ogahiy ohu yoning ta'sir,
Bori joni jononim oh ila yoshindin aylansun.

**Oraz.**

Munis g'azali.

Kel ey maxvash[1049] qamar[1050] yanglig' xirom ichra shitob aylab.
Yuzingdin tiyra[1051] shomimni yorut rafi'[1052] niqob aylab.

Sahovat nuridin yetkur yorug'lik ro'zg'orimg'a,
Ayon qil zarra parvarlik yuzingni oftob aylab.

Ravo[1053] ko'rma manga mahrumlikni sarfaroz[1054] etgil,
Vafo kuyida itlardin meni ham bir xisob aylab.

Sujud[1055] etmas qoshing mehrobig'a[1056] yo'q aybikim ulyon,
Jahon ahli qo'yarlar boshin, ummidi savob aylab.

Inoyat[1057] ko'rguzib kulbam sari kel to ayog'ingg'a,
Nisor[1058] aylay ko'zumning yoshlarin durri xushob[1059] aylab.

---

[1048].Tag'ofillar - Bilib bilmaslikka olish.
[1049].Mahvash - Oyga o'xshagan,oyday go'zal.
[1050].Qamar - Oy.
[1051].Tiyra - Qorong'u,qora.
[1052].Rafi' - Yuksak,baland.
[1053].Ravo - Mumkin,munosib,o'rinli.
[1054]Sarfaroz - Yuksalgan,yuksak,ulug'vor.
[1055].Sujud - Sajda qilmoq,topinmoq.
[1056].Mehrob - 1.Tokcha.2.Imom sajda qiladigan joy.
[1057].Inoyat - Mehribonchilik,uordam,marhamat.

Kelib ushshoq,[1060] aro Munisg'a sen dildorlig' qil kim,
Ko'ngul bermish seni mahbublardin intixob[1061] aylab.

**Tarona I.**

Atoyi g'azali.

Boqar ohulayin har yon o'shal ikki qaro ko'zlar.
Xadangi[1062] g'amzasin[1063] otmog' uchun go'yo qaro ko'zlar.

Dilu jon saydi[1064] qilmoqda kishi ko'rmay turib xargiz,
Munungtek nozanin qoshlar, oningdek dilrabo ko'zlar.

Bu husnu[1065] shevau shaklu malohatni tilab topmas,
Nechakim nozaninlar ichra ushbu mubtalo[1066] ko'zlar.

Atoiyning xayoloti maholin[1067] ko'rki xo'blarning,[1068]
Vafosizliklarin bilgach yana mehru vafo ko'zlar.

---

[1058].Nisor - Sochqi,sochish.
[1059].Xushob - Toza,tiniq,yaltiroq.
[1060].Ushshoq - Oshiqlar.
[1061].Intixob - Saylash,tanlash.
[1062]Xadang - O'q,kamon o'qi.
[1063].G'amza - Ko'z ishorasi, ko'z suzib qarash.
[1064].Sayd - Ov, shikor.
[1065].Hush - Sezgi,es.
[1066].Mubtalo - Giriftor,duchir bo'lgan.
[1067].Mahol - bajarilishi qiyin,
[1068].Xo'b - Yaxshi,suluv,eng yaxshisi.

**Ufori Chorgoh.**

Bilsang, meni jononimi dexqoni muhabbat.
Muflislarig'a[1069] aylag'an ehsoni[1070] muhabbat.

Mashshota[1071] olib ilkiga[1072] gar aylasa xaydar,
Majnun bo'lib ul zulfi parishon[1073] muhabbat.

Nogoh nazar solsa g'ariblar sari yorim,
Shahlo ko'zining davrida mujgoni [1074] muhabbat.

Ilkimni bu olam elidin yuvmagin ultur,
Ul pok zamirimniki domoni[1075] muhabbat.

Bir mash'ali bazm ichra tabassumdin o'lubdur,
La'li labi ichra duri dandoni[1076] muhabbat.

---

[1069].Muflis - Qashshoq, yo'qsil, pulsiz.
[1070].Ehson - Hayr, sadag'a.
[1071].Mashshota - Ayollar pardozchisi.
[1072].Ilk - Qo'l.
[1073].Parishon - Yoyilgan,sochilgan.
[1074].Mujgon - Kipriklar,mijalar.
[1075].Domon - Etak.
[1076].Dandon - Tish,og'izdagi tish.

Bir nuqta takallumdin[1077] agar tashlasa ma’shuq,
Oshiq eliga ul labi xandoni muhabbat.

**Savti Chorgox**.

Yusuf Saryomiy g’azali

Meni, g’am muncha ham taklifi sahroyi junun[1078] etma.
Firoqu hajr[1079] afg’onimni kun-kundan fuzun[1080] etma.

Falakdek dog’i xasrat jomi ayshim sarnagun[1081] etma,
Hazin[1082] ko’nglumni vayron aylama holim zabun[1083] etma.

Ezib bag’rimni mehnat ilkida diydamni[1084] xun[1085] etma,
Xayolimni menga juz ko’y i jonon rahnamun[1086] etma.

Menga, ey nosixo,[1087] ko’p “tarki yor et”,- deb fusun[1088] etma
Parishon xotirim, ey aql, holim, ozmun[1089] etma.

Malomat toshin urma boshima ko’b ta’ni dun[1090] etma.

---

[1077].Takallum - So’zlash,gapirish.
[1078].Junun - Majnun, telba.
[1079].Hajr - Ayriliq, judolik.
[1080].Fuzun - Ortiq,mo’l,ziyoda,ko’p.
[1081].Sarnagun - Boshi quyi, to’ntarilgan.
[1082].Hazin - Qayguli,mungli,g’amgin.
[1083].Zabun - Mushtipar, ojiz,notovon.
[1084].Diyda - Ko’z.
[1085].Xun - Qon.
[1086].Rahnamun - Yo’l ko’rsatuvchi,rahnamo.
[1087].Nosiho - Nasihat qiluvchi.
[1088].Fusun - Afsun, avrash, xiylakorlik.
[1089].Ozmun - Sinash, imtixon.

Muridi[1091] ishq o'lubman, o'zga ta'limi funun[1092] etma.

Ko'zimg'a jilvagardur husn, nohbudimni[1093] bud[1094] etma,
Nafas kuydirmangizlar manga emdi xarfi sud[1095] etma.

**Savti Chorgoh Talqini.**

Zavqiy g'azali.

Ey nigohboni[1096] tag'ofil[1097] muncha zor aylar ko'zing.
Boqmay oshiq sorig'a,[1098] ag'yori[1099] yor aylar ko'zing.

Nargisingiz, voykim, hijron[1100] zimistonidaman,[1101]
Kimga boqsang daf'atan fasli bahor ayl ar ko'zing.

Men na tanxo so'rmisham o't soldi olam ahlig'a
Bu ajab kuydurguchidur nuri nor aylar ko'zing.

Ro'zgorim sham'i ro'yingdin munavvar qilmasang,
Manga bu olamni go'yo tangu[1102] tor aylar ko'zing.

Bu na shahlo chashmlig'durkim[1103] qiyo boqmay xamon,

---

[1090]Dun - Tuban,past,yaramas,razil.
[1091].Murid - Diniy izdosh,shogird.
[1092].Funun - Fan, xunar.
[1093].Behbud - Yaxshilik,sog'lomlik.
[1094].Bud - Bor,mavjud,borliq.
[1095].Sud - Foyda,naf,daromad.
[1096].Nigohbon - Qarovchi,kuzatuvchi,qorovul.
[1097].Tag'ofil - Bilib bilmaslikka olish.
[1098].Sori - Taraf, tomon.
[1099].Ag'yor - Begona,raqib.
[1100].Hijron - Ayriliq, firoq.
[1101].Zimiston - 1.Qish.2.Qorong'u,zulmat.
[1102]Tang - Tor,zich,siqiq.
[1103].Chashm - Ko'z.

Betavaqquf [1104]dilni dardidin guzor[1105] aylar ko'zing.

Vasl, men Zavqini etkurgil Muqimiy ko'yig'a,
Pechu tobi[1106] Furqating xummori yor aylar ko'zing.

**Savti Chorgoh Qashqarchasi.**

Uvaysiy g'azali.

Telmurib qon yig'layub men oshiqona ko'z tutay.
Yuzi gul la'li labi mul[1107] jonajona ko'z tutay.

O'ynatib kelgay samandin, ey ulus man' ayla ko'z,
Intizorida qolon shox i zamona ko'z tutay.

Kimsa badgo'[1108] yonidin topdi ko'ngul har dam vafot,
Har so'zidur bir Masih[1109] shirin zabona ko'z tutay.

Siflayi[1110] dundin[1111] bu kun ashkim[1112] bo'lubdur lolagun,
Ham o'zi sarrof [1113] ham boimtixona ko'z tutay.

Paykari[1114] badhola[1115] ravzan[1116] zoxir[1117] o'lmish beshumor.[1118]

---

[1104].Betavaqquf - To'xtab turvasdan,to'xtovsiz.
[1105].Guzor - O'tkazuvchi,o'tuvchi,o'tadigan.
[1106].Pechu tob - To'lg'onish,iztirob.
[1107].Mul - May,sharob.
[1108] Badgo' - Yomon so'zlovchi, yomon so'zli..
[1109].Masih - Iso payg'ambar.
[1110].Sifla - Past,pastkash,xasis.
[1111].Dun - Razil,nokas,past.
[1112].Ashk - Ko'z yoshi.
[1113]Sarrof - Pul almashtiruvchi.
[1114].Paykar - Vujud,tan,badan.
[1115].Badhol - Yomon holli, holi yomon.
[1116].Ravzan - Tuynuk,teshik,darcha.
[1117].Zohir - Ravshan,porloq.

Jumlai[1119] surohidin[1120] ruxi ravona[1121] ko'z tutay.

Boshima solsa malohat[1122] qushlari koshonae,
Ishqida ashkimni aylab dona-dona ko'z tutay.

Soqiyo[1123] o'ltursa sog'ar[1124] ber Uvaysiy ilkina.[1125]
Chehrai maydinki aksi mehribona ko'z tutay.

**Savti Chorgoh Soqinomasi.**

Avaz O'tar g'azali.

Nigorim moyili ag'yor[1126] o'lubdur.
Alarg'a munisu [1127] g'amxor[1128] o'lubdur.

Raqiblar sori ketmish yo magarkim,[1129]
Meni bechoradin bezor o'lubdur.

Tutub o'zga jafovu javr rasmim,
Ul oy ag'yor elig'a yor o'lubdur.

Xamul mahbub[1130] behamtoyi[1131] olam,
Vafo oyinida ne bor o'lubdur.

---

[1118].Beshumor - Sanoqsiz,sonsiz,ko'p.
[1119].Jumla - Bari, hammasi,barchasi.
[1120].Surohiy - Uzun bo'yli suv va may idishi.
[1121].Ravon - Yuruvchi,ketuvchi.
[1122]Malohat - Go'zallik,suluvlik.
[1123].Soqiy - May quyuvchi, kosagul.
[1124].Sog'ar - May, qadah.
[1125].Ilk - Qo'l.
[1126].Ag'yor - Raqib, begona.
[1127].Munis - Do'st,o'rtoq,mehribon.
[1128].G'amxor - G'am yeguvchi,g'amxo'r.
[1129].Magarkim - Balki,ammo,lekin.
1057.Mahbub - Sevimli,yoqimli
[1131].Behamto - Yakka, ygona, tengi yo'q.

Jamoli yodi birla furqat[1132] ichra,
Ishim chekmak fig'onu[1133] zor o'lubdur.

Manga mehru muhabbat bo'lsa odat,
Anga zulmu sitam[1134] atvor[1135] o'lubdur.

G'aming shamshiridin[1136] ey sho'hi barno,
Avazning siynasi[1137] afgor[1138] o'lubdur.

**Savti Chorgoh Uforisi.**

Muqimiy g'azali.

Rost[1139] qaddingdek jahon bog'ida sarv ozod[1140] kam.
Ham bu qotil ko'zlaringdek qon to'kar jallod kam.

Vah na beparvo falak sho'xi sitamgardurki sen,
Bo'lmagan vayron aningdin xotiri obod kam.

Ofati jon zulfi rayhon anbarin[1141] holu xati, [1142]
Yuzlari gul, sochi sunbul, qomati shamshod[1143] kam.

---

[1132].Furqat - Ayriliq,firoq.
[1133].Fig'on - Nola, afg'on.
[1134].Sitam - Jabr-zulm qiluvchi.
[1135].Atvor - Hulq,harakatlar,qiliq.
[1136].Shamshir - Qilich,xanjar.
[1137].Siyna - Ko'ks, ko'krak, bag'r.
[1138].Afgor - Majruh,jarohatli,ezilgan.
[1139].Rost - Tik,to'ppa-to'g'ri.
[1140].Ozod - Tik.Majozan: yor qaddi.
[1141].Anbarin - Anbar hidli, hushbo'y.
[1142].Xat - Ustki labdagi mayin tuklar.
[1143].Shamshod - Chiroyli xushbichim yashil daraxt.

Fitnajo',[1144] tundu,[1145] tag'ofil[1146] pesha xo'blar ko'p: vale,
Sen kabi beboku[1147] zolim, sangdil,[1148] po'lod[1149] kam.

Odamidin bir o'zingdek navjuvon[1150] bor o'lg'onim,
Ushbu gulshan ichra piri dahr[1151] bermay yod kam.

Xoma sindurdi, chekalmay surating tasvirini,
Singan erdi shuncha suratlar chekib, Behzod kam.

Nargising javrin Muqimiyga ko'rib rahm aylamish,
Charx[1152] aylar necha kundur men dedim bedod[1153] kam.

## Iroqi Buxoro tarkibiy qismlari bilan.

Iroqi Buxoro Shashmaqomga kiradigan VI maqom bo'lmish Iroqning Saraxboriga ohangdosh.[1154] Bunda Saraxbori Iroq butunicha olinib, Buzruk maqomi ladiga moslangan. Ashula boshlanadigan parda Saraxbori Iroqdagiga ko'ra to'rt pag'onaga baland ko'tarilgan hamda avjidagi ba'zi qaytariq jumlalar qisqartirilgan yoki ba'zi o`zgarishlar bilan olingan.Iroqi Buxoro tarkibida Talqincha, Chapandoz, Soqiynoma va Ufar qismlari bo'lib, ularda tonallik o'zgarib turadi, kuy bo'laklari ham ba'zan bir-biri bilan mos kelmaydi. Masalan, Iroqning asosiy yo'lida Zebo pari avji bilan Muxayyari Chorgoh namudi foydalanilgan bo'lsa, uning Talqinchasa va Chapandozida Muxayyari Chorgoh o'rniga Turk avji keladi. Soqiynoma va Ufar qismlarida esa Zebo pari avjining

---

[1144].Fitnajo' - Fitnachi,buzg'unchi,sho'x ma'shuqa.
[1145].Tund - Darg'azab,asov,shiddatli.
[1146].Tag'ofil - Bilib bilmaslikka olish.
[1147].Bebok - Qaytmas,rahmsiz,Hayiqmovchi.
[1148].Sangdil - Toshbag'r, bag'ri tosh.
[1149].Po'lod - Po'lat, baquvvat, qattiq.
[1150].Navjuvon - Yosh yigit, yigitcha.
[1151].Dahr - Dunyo,olam,zamon,davr.
[1152].Charx - 1.G'ildirak,aylanish.2.Falak.
[1153].Bedod - Zulm, jabr, zo'rlik.
[1154].Maqomlar - Toshkent sh. 2006-yil.I. Rajabov.

yolg`iz o`zi foydalanilgan. Bu ashula yo'llarida boshqa pardalarga o'tish kabi kuy harakatlari ko'plab sodir bo'ladi.

Iroqi Buxoroning shahobchalaridan umumiy tushuncha olish uchun uning yengilroq yo'llaridan Soqiynomai Iroqni olib ko'raylik. Bu ashula yo'lining I-xati «Daromad», II-III xatlari O'rta parda jumlalari - Miyonxat, IV-V xat Zebo pari avji, oxirgi VI-xat tushirim qismlaridan iborat. Bu jozibali ashula yo'li kishida nozik lirik kayfiyatlar qo'zg'aydi, ezgu hayollarga cho'mdiradi. O'zining kuy tuzilishi bilan bosh ashula yo'lidan anchagina farq etadi. Zebo pari avjida esa Iroq bilan hamohang bo'lib qoladi. Furovard qismida yana o'zgacha shakl oladi.

Iroq yo'llari asosida ko'pgina xalq ashulalari, cholg'u va surnay yo'llari yaratilgan bo'lib, bu narsa Iroqning musiqa san'atimizda naqadar keng o`rin tutgani va mashhur bo`lib ketganidan dalolat beradi. Iroq yo`llari asosida "Cho`li Iroq", «Suvoriy» kabi mashhur cholg`u asarlari, "Toshkent Iroqi" kabi ashulalar yuzaga kolgan edi. Cho'li Iroq kuyida hatto Muxayyari Chorgoh namudi butunicha saqlangan. Toshkent iroqi esa Iroqi Buxorodagi "Daromad" bilan boshlanib, avj qismi esa Muxayyari Chorgohning ma'lum variantlarining takroridir.

"Soqiynomai Iroq" asosida "Suvora" ashulasi va shu nomli ikki qismdan iborat kuylar yuzaga kelgan. Suvora kuylari Soqiynoma va Ufar usullarida chalinib avjidagi Zebo pari qismi tushirib qoldirilgan. Suvora so'zi - chavandoz, otliq ma'nolarida bo'lib, chavandozning ot ustidagi harakati va atrofdagi go'zal manzaralarni musiqiy vositalar orqali tasvirlaydi va kishini chuqur hayolga cho'mdiradi. Endi Ufari Iroqqa kelsak, u Iroq shaxobchalarining Ufar doira usulidagi variantidir. Ufari Iroq Farg'onada xotin-qizlar tomonidan juda ko'p aytiladigan «Farg'onacha» ashula yo'lini eslatadi. Bu jozibali, rohatbaxsh ashula yo'lida aynan bir vaqtda xotin-qizlarning ichki his-tuyg'ulari, orzu-umidlari va istaklari, intilishlari ham o'z ifodasini topgan.

**Iroqi Buxoro.**

Navoiy g'azali.

Na bo'ldi, dardima, ey bevafo, davo qilsang,

Vafoga va'da qilib, va'daga vafo qilsang?

Tanimni qurb[1155] fazosida[1156] xokiroh[1157] etding,
Boshimni vasl eshikiga oshno qilsang.

Sunub[1158] qo'lumni yuzingga, murod etib xosil,
Ochib yuzingni ko'zim xojatin ravo qilsang .

Visol avji biyik,[1159] ey ko'ngul qushi, sen past,
Yetishmak anda ne mumkin, agar havo qilsang.

Jahon g'amin chu olur ber qadahni, ey soqiy,
Olurmen, ikki jahon mulkiga baho qilsang.

Zamona ahli jafosin tag'oful[1160] aylarsen,
Alar tag'oful etib, kosh, sen javo qilsang.

Agarchi ahli navodur, vale ul oy boqmas,
Navoiyo, necha bulbul kibi navo qilsang.

**Talqini Iroq.**

Hofiz g'azali.

Baxtim nedurki, yor labidan bermagay nishon,
Sirri nodur xabar demagay toleim hamon.

Jonim nisor etay labining bo'sasi uchun,

---

[1155].Qurb - Yaqinlik.
[1156].Fazo - Ochiq yer,maydon,kenglik.
[1157].Xokiroh - Yo'l tuprog'i.
[1158] Sunub - Surib.
[1159].Biyik - Yuqori,yuksak,baland.
[1160].Tag'oful - Bilib bilmaslikka solish.

Yo bo'sa bermadiyu va yo olmadi u jon.

Sabr aylagan kishi etar oxir murodia ,
Ammo zamona fitnasi [1161]bermas menga omon.

Pargor[1162] singari yuraman chetda aylanib
Bir nuqtadek bu o'rtaga yo'l bermadi zamon.

Dermanki uxlasam ko'raman yor jamolini
Uxlatmagay meni sira Xofizdagi fig'on.

**Chapandozi Iroq.**

Gulshani ummid abri[1163] sabrdin serob o'lur.
Sabr qilsang ob[1164] gavha r, sang[1165] lali[1166] nob[1167] o'lur.

Tiyra[1168] o'lma e kasbi zulmat aylayub har xona kim,
Jilvagohi partavi[1169] xurshedi[1170] olam tob[1171] o'lur.

Aqlu xushing-la nazar qil bir nizapi olama,
Necha kun zulmat[1172] o'lursa necha kun maktab o'lur.

---

[1161].Fitna - Buzg'unchilik,iayon,jang.
[1162].Pargor - Aylana chizadigan uskuna,tsirkul.
[1163]Abr - Bulut.
[1164]Ob - Suv.
[1165].Sang - Tosh.
[1166].La'li - Qimmatbaho tosh.
[1167].Nob - Toza,tiniq,sof.
[1168].Tiyra - Qora,qorong'u.
[1169].Partav - Yolqin shu'laning tushishi.
[1170]Hurshed - Quyosh.
[1171].Tob - To'lg'anish,toblanish.
[1172].Zulmat - Qorong'ulik.

Gar muazzam[1173] o'lmoq istarsan qanoat[1174] pesha qil,
Chun sadaf ichra yagona tomchi durri nob[1175] o'lur.

Kecha kulfatda haqidir notavon[1176] bir oila,
Tongla in'omi[1177] farovonla yana shodob[1178] o'lur.

**Soqinomai Iroq.**

Munis g'azali.

Yuzingkim xusn burji uzra xurshidi duraxshondur,[1179]
Anga boqqon kishi oyinadek albatt hayrondur.

Ayon qilsam agar ohi chekib o'rtar jahon ahlin,
Yuzing hijronidinkim[1180] shu'lalar[1181] jonimda pinhondur.

Jamol ahlig'a yo'q hadkim,[1182] qoshingda jilva qilg'aylar,
Quyosh oldida anjum[1183] marzu[1184] xusn etmak na imkondur.

Visoling shahdidin[1185] ko'nglumga shirin komlig'[1186] yetkur,
Ki ul g'am sog'aridin[1187] talx[1188] komi zahri [1189] xijrondur.

---

[1173].Muazzam - Buyuk,ulkan,hurmatli.
[1174].Qanoat - Sabr.
[1175].Nob - Toza, tiniq, sof.
[1176].Notovon - Kuchsiz,bo'sh,zaif,epsiz.
[1177]In'om - Hadya, sovg'a.
[1178].Shodob - Serob,to'ygan.
[1179].Duraxshon - Yaltiroq,porloq.
[1180].Hijron - Ayriliq,yordan ayrilib qolganlik.
[1181].Shu'la - Yolqin.
[1182]Had - Haq,huquq,imkon.
[1183].Anjum - Yuldyzlar.
[1184].Marz - Yer. chegaradagi yer.
[1185].Shahd - Asal,bol.
[1186].Kom - Luqma,rizq, ovqat.
[1187].Sog'ar - 1.May.2.Qadah.
[1188].Talx - Achchiq, taxir.
[1189] Zahr - Zahar, og'u.

Xavoyi zavqi ishqing toki Munis boshiga tushdi.
Junun dashtida Majnuni aloxonu alomandur.[1190]

**Ufori Iroq.**

Munis g'azali.

Ohi dil so'zim g'a ne bois tilarsiz yorlar?
Kim urarlar ko'ngluma hijron o'tin dildorlar.

Ishq sahrosida bir sargashtamenkim,[1191] topmag'ay,
Necha yuz yil har sori gom[1192] ursalar sayyorlar.

Demangiz, ey do'stlar jonu ko'ngulni naylading?
Oldilar afsun[1193] bila men zordin makkorlar.[1194]

Joni sargashtim agar aylansa tong yo'q og'zidin,
Evrular albatta girdi[1195] nuqtadin pargorlar.[1196]

Ul labi maygun uza xatdurmu bo'lmish oshkor,
Yo magar gul bargi uzra bosh chiqarmish xorlar.[1197]

---

[1190].Aloxonu aloman - Uy joyidan judo bo'lgan,xonavayron.
[1191].Sargashta - Sarson, sargadon.
[1192].Gom - Qadam, odim, oyoq.
[1193].Afsun - Sehr, avrash, nayrang.
[1194].Makkor - Makr qiluvchi,xiylagar.
[1195].Gird - Atrof, tevarak, aylana.
[1196].Pargor - Aylana chizish dastgohi.
[1197].Xor - Tikan.

Etsa bir g'am barcha el g'amxor[1198] o'lur erdi manga,
Emdikim, yuz g'am etar, Munis, qani g'amxorlar?

**Safti Navo Uforisi.**

Avaz O'tar g'azali

Bazmi dilbar xushdurur oshiqg'a ag'yor[1199] o'lmasa
O'ylakim bulbulga gul atrofig'a xo r o'lmasa.

Yor nomus etmasinkim, kasarti[1200] ushshoqidin,[1201]
Har matoe kambaho bo'lg'ay xaridor o'lmasa.

Kim vafovu mehr rasmi tutgay erdi ishq aro,
Nozaninlarga jafovu javr atvor[1202] o'lmasa.

Har kishikim oshiqi sodiq emasdur borho,[1203]
Chekmak ishi mehnatu anduhu[1204] ozor o'lmasa.

Jon qachon topg'ay o'luk jismin visoli yor aro,
Oshkoro la'lidin jonbaxsh guftor[1205] o'lmasa.

---

[1198].G'amxor - Mehribon, g'amxo'r.
[1199]Ag'yor - Begona, raqib.
[1200].Kasarti - Ko'plik, mo'llik.
[1201]Ushshoq - Oshiqlar.
[1202].Atvor - Hulq, harakat.
[1203].Borho - Necha marta, takror-takror.
[1204].Anduh - G'am, qayg'u, alam.
[1205].Guftor - So'z, so'zlash, gapirish.

Ohkim mahzun[1206] ko'ngul nokom[1207] bo'lg'aymu edi,

Yor hajri domig'a[1208] bo'yla giriftor [1209] o'lmasa.

Nolau ohi Avazning ko'k sari chiqg'ay qachon,

Bir chamanruhsor ishqig'a sazovor o'lmasa.

## Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridagi va bastakorlar yaratgan mumtoz ashulalar.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari — Toshkent maqom yo'llarilarining shakllanish ildizlari o'rta asrlarda mashhur bo'lgan O'n ikki maqom tizimi va undan ham oldinroq mavjud turkumli asarlarga borib taqaladi.[1210] «Yo'llari» atamasi ham shunga ishora etadi. Zero «maqom» atamasidan avvalroq musiqa ilmi amaliyotida «yo'l» ma'nosidagi «roh», «tariqa», «ravashin» kabi tushunchalar keng qo'llanib kelingan. Shashmaqomdan farkli ravishda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda ham mudom ijro etilgan. Masalan, surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur, g'ijjak ijrolari hamda ashula yo'llari uy sharoitlarida o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'lgan. Ayni paytda, bu maqomlarda Farg'ona—Toshkent musiqa uslubiga xos yalla, ashula, katta ashula janrlarining xususiyatlari o'z aksini topgan. Bu holat ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo'lishi sabablaridan biridir.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ijrochilari mazkur an'anani odatda mashhur ustozlardan o'rganishgan. Shu tarzda bu maqomlarni bizga yetkazib bergan taniqli talqinchilar qatorida Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnay, A. Yusupov (surnay), Shobarot tanburchi, A. Abdullayev (tanbur), M. Najmiddinov (dutor,tanbur), K. Jabborov (g'ijjak, dutor), S. Kalonov (nay), Fahriddin Sodiqov (chang, dutor), G'. Toshmatov (g'ijjak), T. Alimatov (tanbur, dutor), hofizlar - Sh. Shoumarov, To'ychi hofiz, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz,

---

[1206]Mahzun - G'amli, qayg'uli, xafa.
[1207]Nokom - 1.Mahrum,bebahra.2.Nochor,noiloj.
[1208].Dom - Qopqon.
[1209]Giriftor - Mubtalo, band, asir.
[1210].Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari - Toshkent sh. 2006 – yil. O. Ibrohimov.

Sodirxon hofiz, Rajabiylar, Rasulqori Mamadaliyev kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlari katta. Bastakorlardan T. Jalilov, O. Hotamov, F. Mamadaliyev, so'nggi yillarda A. Ismoilovlar Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari —T. m. y. an'analarida turkumli va alohida ijro etiluvchi asarlar yaratishgan.

**Bo'lmish.**

A. Navoiy g'azali.

O. Xotamov musiqasi.

Bizning shaydo ko'ngul bechora bo'lmish,

Malomat dashtida ovora bo'lmish.

Anga baskim, yog'ar tosh ustiga tosh,

Tanida yora uzra yora bo'lmish.

Urarda dam-badam xorog'a[1211] boshin,

So'ngaklar[1212] anga pora-pora[1213] bo'lmish.

Balo tog'i aro yotqanda bemor,

Xirad[1214] sinjobi[1215] xoru xora bo'lmish.

Qaro qildi nechukkim ro'zg'orim,

---

[1211].Xoro - Qattiq tosh.
[1212].So'ngak - Suyak.
[1213].Pora - Parcha-parcha.
[1214].Xirad - Aql, fikr, zehn.
[1215].Sinjob - Silovsin terisidan po'stin.

Oning ham ro'zg'ori qora bo'lmish.

Qadah xurshidi[1216] qonikim, g'amidin
Sirishkim[1217] kavkabi[1218] sayyora bo'lmish.

Navoiy, choradin ko'p dema so'zkim,
G'amingg'a chorasizliq chora bo'lmish.

**Jonim mening.**

Navoiy g'azali

Xastadur jonim mening, to bordi jononim mening.
Bo'lmasun gar borsa jononim, mening jonim mening.

Gul to'kilmish suvga bormish, sarv[1219] izidin go'iyo,
Chehra ochmish bog' aro sarvi xiromonim mening.

Daf'a-daf'a[1220] qon aro jismimdadur bir-bir tugan,[1221]
Loladur go'iyo har dog' ila qonim mening.

Tilga olmish telba ko'nglumni yana xayli[1222] raqib,
Qolmish itlar og'zida majnuni uryonim[1223] mening.

Xalqdin pinxon[1224] meni mast ayla shoyad [1225] ey rafiq,

---

[1216]Xurshid - Quyosh.
[1217]Sirishk - Ko'z yoshi.
[1218].Kavkab - Yulduz.
[1219].Sarv - To'g'ri o'sadigan daraxt.
[1220]Daf'a-daf'a - Qayta-qayta.
[1221] Tugan - Dog', belgi.
[1222].Xayl - To'da, gurux, lashkar.
[1223].Uryon - Yalang'och.

Sokin o'lg'ay shammae[1226] bu dardi pinxonim mening.

Ey Navoiy bo'lmasa bir piri komil[1227] ximmati,[1228]
Ul yigit bedodidin[1229] yo'q maxlas[1230] imkonim mening.

**Istadim.**

Navoiy g'azali.

Qon yutub umre jahon ahlida bir yor istadim.
Lekin ul kamrak topildi garchi bisyor[1231] istadim.

Kimgakim jonim fido aylab sog'indim yor erur,
Ermas erdi yorlig'da chun vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo'qturur mutlaq vafo,
Vahki umre ulcha yo'qtur sog'inib bor istadim.

Ulki topilmas bashar[1232] jinsida vah g'aflat ko'ring
Kim pari xaylida men devonai zor istadim.

Sirri ishqimni ko'ngul ko'z birla fosh etmak ne tong,
Qalbi tar[1233] domanni[1234] chun men sohibasror[1235] istadim.

---

[1224].Pinhon - Yashirin.
[1225].Shoyad - Zora,koshki.
[1226]Shamma - Bir oz, bir qadar.
[1227].Komil - Yetuk,to'liq,mukammal.
[1228].Himmat - Bag'rikenglik,qo'li ochiqlik.
[1229].Bedod - Jabr,zulm,adolatsizlik.
[1230].Maxlas - Qutulish,xalos bo'lish.
[1231].Bisyor - Ko'p, mo'l.
[1232].Bashar - Odam, kishi, inson.
[1233].Tar - Xush, shod.
[1234].Doman - Etak.

Shayx birla xonaqaxdin[1236] chun yorug'luq topmadim,

Dayr[1237] piri xizmatig'a kuyi xammor[1238] istadim.

Ey Navoiy chun rafiqe[1239] topmadim bu g'ussadin,

O'zni bekaslik[1240] balosig'a giriftor[1241] istadim.

**Gul'uzorim qani?**

Jo'raxon Sultonov musiqasi.

Qadim Turonzaminda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan hofizlik san'ati azaldan muqaddas sanalgan.[1242] Islom olamida muqaddas kitobimiz bo'lmish "QUR'ON" oyatlarini dilga jo qilib, zeru zabarlari bilan, yoddan makammal ijro etgan allomalarni "Hofizi QUR'ON" deb yuritganlar. "Hofiz" arabcha so'z bo'lib, yodda saqlamoq ma'nosini anglatadi. "Hofiz" OLLOHhning 99 ismlaridan biri deb ham ta'riflanadi.Payg'ambarimiz Rasululloh SAVning "Qur'onni OLLOHning ismini zikr etgan holda ohang bilan o'qinglar" degan so'zlarini muborak hadislarda ham yozilganligi fikrimiz dalilidir.

Farg'ona vodiysi hofizlik maktabi haqida so'z ketganda birinchilardan bo'lib Jo'raxon Sultonovning muborak nomi tilga olinadi.Bu bejiz emas albatta.Chunki u kishi yaratib ketgan ijro maktabi buungi kunda ham daryodan qalqib chiqqan javohirlar singari o'zini namoyon qilmoqda.Yuzlab, minglab hofizu sozandalar Jo'raxon akaning hofizlik va bastakorlik uslubidan bahramand bo'lib, ustozning ikkinchi umrini davom ettirmoqdalar.Komiljon Otaniyozov, Orifhoji Alimahsumov, Orifxon Xotamov, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyev, Eson Lutfullayev, Tavakkal Qodirov, Rasulqori Mamadaliyev, Faxriddin Umarov, Bertaxonim Davidova, Kommuna Ismoilova singari xalqimiz ardog'iga sazovor bo'lgan o'nlab hofiz va hofizalar ana shu yangi davrning haqiqiy yulduzlariga aylandilar.

## KATTA ASHULA.

---

[1235] Sohibasror - Sirlar egasi, yashirinlarni biluvchi.
[1236]Xonaqox - Shayxlar zikr qiladigan joy.
[1237].Dayr - 1.Butxona.2.Mayxona.
[1238].Xammor - May tayyorlovchi, mayfurush.
[1239].Rafiq - O'rtoq, jo'ra, do'st, ulfat.
[1240]Bekaslik - Yolg'izlik, kimsasizlik.
[1241].Giriftor - Yo'liqqan, uchragan, asir bo'lgan.
[1242]."Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani" - Toshkent. sh. Mannopov, N.Soliev. 2019-uil.

Katta ashula Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula yo'li.[1243] Odatda, 2—5 hamnafas ashulachi hofiz tomonidan cholg'u jo'rligisiz qo'llariga likopcha ushlagan holda aytiladi.Ko'pincha yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilib, o'ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, ayolg'u qo'shiqlari aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy o'qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Katta ashula, odatda, кatta yig'in, sayil va to'y-tomoshalarda aytilgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatomuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, rasavvuf yo'nalishidagi she'rla ham kuylangan.Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlarning g'azallari Katta ashula janridan alohida o'rin olgan.Xalq orasida "Do'stlar" (Navoiy), "Ko'p erdi", "Yolg'iz", "Adashganman" (Muqimiy), "Oh kim, rahm aylamas" (Furqat), "Bir kelsun", "Ey, dilbari jononim" (Miskin) kabi Katta ashulalar keng tarqalgan. Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po'lat, Vosit Sa'dulla, Nasimiy, Erkin Vohidov, O'tkir Rashid va boshqalarning she'rlari ham Katta ashulada sevib ijro etiladi.

Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi.[1244] Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir-biriga mukammal va uzviy bog'lanishini ta'minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi,turli avjlar qo'llanishiga olib keladi.Katta ashula ijrochisi an'anaviy "ustoz-shogird" maktabini o'tagan, she'riyat qonunlari va ijrochilik an'analariga tayangan, keng diapozonli, baland ovozga va mahoratga ega bo'lishi lozim.Hofizlar, odatda, she'r bandidagi boshlang'ich misralarni har birini galma-gal, so'nggi misralarni jo'r bo'lib ijro etadilar.XX asrning 2- yarmida Katta ashulaning yangi ashula-cholg'u yo'llari, yakkaxon hofizga mo'ljallangan turlari yuzaga keldi.Mazkur namunalarda cholg'u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan.

Katta ashulaning bu uslubi Jo'raxon Sultonov tomonidan yaratilgan("Ey,dilbari jononim", "Ohkim", "Topmadim", "Guluzorim qani?", "Mehnat ahli", "O'zbekiston" ) va boshqalar.Ayrim maqo m sho' balari("Bayot", "Chorgoh", "Ushshoq") ham Katta ashula ("yovvoyi maqom") uslubida aytilgan; (masalan: "Yovvoyi Ushshoq", "Patnisaki Chorgoh","Likobi Bayot" va boshqalar).Mohir sozandalar Katta ashulaning cholg'u (nay, surnay, g'ijjak) yollarini yaratdilar.Rivojlanish mobaynida Katta ashula ijrochilik(Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent, Namangan-Andijon) maktablari shakllangan.Erkaqori Karimov, Sherqo'zi Boyqo'ziyev, Haydarali Hikmatov, Meliqo'zi Yusupov,

[1243].Katta ashula -. Toshkent . sh. R.Abdullayev 2014-uil.
[1244]. Katta ashula -. Toshkent . sh. R.Abdullayev 2014-uil.

O’timboy Sarimsoqov, Turdiali Ergashev, Otamirza Abdurahmonov (Qo’qon), Mamatbuva Sattorov, Jo’raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Boltaboy Rajabov, Ibrohim Isxoqov, Musajon Orifjonov(Marg’ilon), Orif Alimahsumov, Ortiqxo’ja Imomxo’jaev, Akbar Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov(Toshkent), Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Jo’raxon Yusupov(Andijon), Hamroqulqori To’raqulov(Beshariq), Rasulqori Mamadaliyev(Buvayda), Solijon Hoshimov(Quvasoy) va boshqalar Katta ashula ijrochiligida shuxrat qozongan.

Halima Nosirova, Munojot Yo’lchiyeva, Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar, Mahmudjon Tojiboyev, Mahmudjon Yo’ldoshevlar ham Katta ashulani mahorat bilan ijro etganlar.1984 - yildan O’zbekiston Respublikasida Katta ashula ijrochilarining ko’rik-tanlovlari(Marg’ilon, 1984; Toshkent,1987; Qo’qon, 1991; Shahrisabz, 1994; Marg’ilon, 2004-yillar)o’tkazilmoqda. Katta ashula ijrochilik yo’llari an’anaviy mahorat maktablari (Baliqchi, Buvayda)da va musiqa o’quv yurtlari(Farg’ona san’at bilim yurti, O’zbekiston davlat kontservatoriyas i)da o’zlashtirib kelingan.2001 yil Andijonda 1- Respublika professional Katta ashula ijrochilari tanlovi va ilmiy-amaliy konferensiyalari o’tkazildi.Katta ashula yo’li bastakorlarning ijodlariga ozuqa bo’lib kelayapdi. F.Sodiqovning “O’zbekiston”, “To’y muborak” asarlari, M.Murtazoyevning “Sog’inish” va V. Uspenskiyning “Lirik poema”, M.Tojiyevning 3- simfoniyasi, M.Bafoyevning Xalq cholg’ulari orkestri uchun kontserti, B. Umidjonovning a kapella uchun asar("Chorgoh” maqomi yo’lida)lari bunga misol bo’la oladi.

Mamatbuva hofiz(asli Muhammad Sattorov[1245] ; 1885-yil, 14-yanvar kuni Marg’ilon shahrida tug’ilgan. 1969-yil 4-martda vafot etgan.)O’zbekiston xalq hofizi(1941) Xalq xonanda va sozandalari (Boltaboy hofiz va boshqalar )dan xalq ashula yo’llarini o’rgangan. Hamza boshchiligidagi agitbrigada, O’zbek etnografik truppasida (1925—26), Hamza teatrida (1926—30) honanda sifatida faoliyat yuritgan.Urush yillarida Yangiyo’l misiqali drama va komediya teatri studiyasida yosh san’atkorlarga ashula yo’llarini o’rgatgan.Gavhar Rahimova rahbarligidagi front kontsert brigadasida xizmat qilgan.Hofiz Mamatbu “Ko’p erdi hasratim", "Bir kelsun", "Aylading", "Kuling", "Fig’onkim", "Sayding qo’yaber, sayyod" kabi katta ashulalarni mahorat bilan ijro etgan.U “Ushshoq” , “Chorgoh”, "Munojot", "Segoh" ashula yo’llarini, ayrim zamonaviy qo’shiqlar ("O’zbekistondir", "Shodlik etsangchi, yoshlar", "Dilrabolar" kabi) ni katta ashula uslubida aytgan.Jo’raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov singari o’nlab zalq san’atkorlarining ustozi bo’lgan.

[1245] Mamatbuva hofiz - Ruxsora Mahmudjon qizi.

**Gul'uzorim qani?**

Lutfiy g'azali.

Ko'kardi chaman, gul'uzorim qani?
Zihi[1246] sarvi bo'yluq nigorim qani?

Turibdur bu kun vasli[1247] gul andalib,[1248]
Darig'o,[1249] mening navbaxorim qani?

Eshikingda tuproq bo'ldum, vale,
Demadingkim, (ul) xokisorim[1250] qani?

Sening ahdi xusnungda yo'q menda sabr,
Mening ul burunqi[1251] qarorim qani?

Erishur debon qilma Lutfiyg'a qahr,[1252]

---

[1246].Zihi - Yaxshi, joyida, go'zal.
[1247].Vasl - Visol, diydor.
[1248].Andalib - Bulbul.
[1249].Darig' - Hayf, afsus,attang.
[1250].Xokisorim - Tuban, past, xor-zor.
[1251].Burungi - Avvalgi.

Bu ishda, begim, ixtiyorim[1253] qani?

**Yakka bu Farg'onada .**

Muqimiy she' ri. M. Mirzaev musiqasi.

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg'onada,
Zoxid[1254] istar ka'balarda, barxaman[1255] butxonada.[1256]

Kimga dod aylay bu bedodingni[1257] man, ey sangdil,[1258]
Oshno bo'ldum desam, ko'nglun g seni begonada.

Sham'i ruxsoring[1259] yonar mahfilda[1260] gul-gul kechalar,
Bormidi qasding magar kuydurgali parvonada?[1261]

Man' etib, ey muhtasib,[1262] har dam boshimg'a kelmag'il,
Mast bo'lmay, naylayin men maskanim mayxonada!?

---

[1252].Qahr - Achchiqlanish, g'azab.
[1253].Ixtiyor - Tanlash, saylash.
[1254].Zohid - Dunyoviy ishlardan kechib,ibodat qiladigan.
[1255].Barhaman - Barahman.
[1256].Butxona - Cherkov, xristianlar ibodatxonasi.
[1257]Bedod - Jabr, zilm, adolatsizlik.
[1258].Sangdil - Toshko'ngil, marhamatsiz.
[1259].Ruxsor - Yuz, chehra.
[1260].Mahfil - 1.Joy, manzil.2.To'planish.
[1261]Parvona - Chiroq atrofida aylanadigan kapalak.
[1262].Muhtasib - Shariatga hilof ishlarni tekshiruvchi.

Manzilimni so'rma, ey mag'ruri mulki[1263] dastgoh,[1264]
Dasht sahroyi junun[1265] uy bo'lmagay devonada.[1266]

Bulbul aylar nolalar yolg'iz dema, ey gul'uzor,
Chug'zdek[1267] qilg'ay Muqimiy ham navo vayronada.

**Surating.**

Furqat g'azali. M. Mirzaev musiqasi.

Ne balolig' erdi, ey sho'xi diloro, surating,
Aqlimi lol etti, qilg'uncha tamosho surating.

Ketti, bir ko'rgach ani, sabru qarorim shevasi,[1268]
Ayladi toqat nechuk chekkanda tarso,[1269] surating?

Yoki Gulandom erursan, boz[1270] kelding dar vujud,[1271]
Ayladi Bahromdek bizlarn i shaydo surating.

Sarv qadlar suratin chekkanda naqqoshi azal,
Bir alif[1272] shaklida yozmish qaddi zebo surating.

Kecha-kunduz jur'at[1273] aylab, mohu mehr oynasi,

---

[1263].Mulk - Mamlakat,vatan,davlat,podshohlik.
[1264].Dastgoh - Asbob-uskuna, yarog'.
[1265].Junun - Majnun, telba.
[1266].Devona - Xushdan ajralgan, aqldan ozgan.
[1267].Chug'z - Boyqush, boyo'g'li.
[1268].Sheva - Odat, ravish, tarz, yo'sin.
[1269].Tarso - Xristian, nasroniy.
[1270].Boz - Yana, tag'in.
[1271].Vujud - Mavjudlik, borliq.
[1272].Alif - Arab alifbosining 1-xarfi.

Bo'lmadi ko'rmoq ila mustag'ni[1274] aslo surating.

Furqatiy qoshu ko'zing ayni tasavvur aylagach,
Soldi g'orat[1275] ko'ngliga, jonig'a yag'mo[1276] surating.

**Tortadur.**

Furqat g'azali.

I. Ikromov musiqasi.

Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo[1277] tortadur,
Balki andin dahr[1278] eli ortuqcha g'avg'o[1279] tortadur.

Qoshlari ostida g'o'yo ikki fatton [1280] ko'zlari,
Ikki hundu[1281] bachchadurkim,[1282] yondashib yo[1283] tortadur.

Kokulungdin bo'y[1284] olgan bog'ning tuprog'idur,
Bog'bon sotmoqqa doim mushki soro[1285] tortadur.

Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo, ey ko'ngul,
Mushk[1286] pinhon bo'lsa bo'yi oshkoro[1287] tortadur.

---

[1273]Jur'at - Bir ishga botinish,jasorat.
[1274].Mustag'ni - Extiyojsiz, tortinuvchi.
[1275].G'orat - Tolon-toroj.
[1276].Yag'mo - Tolonga uchramoq.
[1277].Bejo - O'rinsiz, bexuda.
[1278]Dahr - Dunyo, olam, zamon, davr.
[1279].G'avg'o - Janjal, qiy-chuv.
[1280]Fatton - Fitna qiluvchi, maftun etuvchi.
[1281]Xindu - Hind, hindlik, qora tanli.
[1282]Bachch - Bola.
[1283].Yo - Yoy, kamon, kamalak.
[1284]Bo'y - 1.Hid, is.2.Qad,qomat.
[1285].Soro - Toza, sof,asl.

Charxi kajraftorning[1288] bir shevasidin[1289] dog'man,
Ayshni[1290] nodon surub, kulfatni dono tortadur.

Bul xavaslar torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatiydek bekasu[1291] sho'rida,[1292] rasvo tortadur.

**Ne bo'ldi?**

Bobur g'azali.

Ul ahd ila paymon[1293] qani, ey yor, ne bo'ldi?
Ul lutf ila ehson qani, ey yor, ne bo'ldi?

Kettim meni hayron eshigingdin, demading hech:
"Ul telbai hayron qani?" Ey yor, ne bo'ldi?

Yuz ko'rsatibon el ichida lutf etar erding,
Ul lutf namoyon qani, ey yor, ne bo'ldi?

Sening sari bordi ko'ngul, istab topa olmon,
Sening sari borg'on qani, ey yor, ne bo'ldi?

Jonimg'a davo so'zung edi, so'zlamading, oh,
Jon dardig'a darmon qani, ey yor, ne bo'ldi?

---

[1286]Mushk - Qora tusli va xush isli narsa.
[1287].Oshkor - Ayon, ko'rinib turgan.
[1288].Kajraftor - Teskqri aylanuvchi falak.
[1289].Sheva - Odat, ravish,tarz,yo'sin.
[1290]Aysh - Turmush, yaxshi turmush.
[1291].Bekas - Yolg'iz, kimsasiz.
[1292].Sho'rida - Parishon, tentiragan.
[1293].Paymon - Ahd, va'da.

Mundoqmu edi ahdki, Boburni unuttung,

Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo'ldi?

**Saydin qo'yober sayyod.**

Furqat she'ri.

Hamza musiqasi.

Sayding[1294] qo'yober, sayyod,[1295] sayyora[1296] ekan mendek.

Ol domini[1297] bo'ynidin, bechora ekan mendek.

O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,

Iqboli nigun,[1298] baxti ham qora ekan mendek,

Hijron[1299] o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek.

Kuygan jigari bag'ri sadpora[1300] ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l-bo'ynini bog'labsan,

Har sori[1301] chekib-sudrab, o'ldurgali chog'labsan,

Ko'ksini jafo birlan lola kabi dog'labsan,

Sot menga, agar qasding olg'uvchi so'rog'labsan,

---

[1294]Sayd - Ov,shikor.
[1295]Sayyod - Ovchi.
[1296]Sayyora - Bir joyda turmaydigan.
[1297].Dom - Tuzoq, to'r.
[1298].Nigun - Egilgan, bukilgan, tuban.
[1299]Hijron - Ayriliq, firoq.
[1300].Sadpora - Yuz bo'lak.
[1301].Sori - Tomon, taraf,sari.

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek.
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

**Fasli navbahor**.

Furqat she'ri.

T. Qodirov musiqasi.

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar.[1302]
Do'stlar g'animatdur[1303] sayr eting gulistonlar.

Subhidam[1304] tushub shabnam, bo'ldi sabzalar xurram.[1305]
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar.[1306]

Nastaran[1307] yuvib yuzni yusuman[1308] tuzib o'zni,
Nargis[1309] ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Qumrilar qilib ku-ku bulbul aylabon chax-chax,
Sarvu gul uza doim tortar ohu afg'onlar.

---

[1302].Zimiston - 1.Qish.2.Qorong'u, zulmat.
[1303].G'animat - Vaqtinchalik.
[1304].Subhidam - Tong chog'i.
[1305].Nayson - Yomg'ir, bahor yomg'iri.
[1306].Xurram - Shod, xursand, quvonchli.
[1307]Nastaron - Oq ochiladigan gul.
[1308].Yosuman - Xush isli oq va sariq tusli gul.
[1309].Nargis - Gulning bir turi, bo'tako'z.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,[1310]
Kiydi ko'k qilib sunbul[1311] zulfini parishonlar.[1312]

**Bir kelib ketsun**.

Hamza she'ri.

M Mirzaev musiqasi.

Sabo,[1313] arzimni etkur, mohi tobon[1314] bir kelib ketsun,
Tamomi husn elini shoxi - sulton bir kelib ketsun.

Tutarga bir dame suhbat asiru notavon[1315] birlan,
Darig'[1316] tutmay nigorim, bo'lsa imkon, bir kelib ketsun.

Necha kundin beri ko'rsatmayin vaslin, sog'inturdi,
Tarahhum[1317] aylasun ul sho'hi jonon – bir kelib ketsun.

Nihoniyga necha ahdi vafolar bog'lag'on erdi,
Degil, ko'p qilmasun ahdini yolg'on, bir kelib ketsun.

---

[1310].Savsan - Gulsapsar.
[1311].Sunbul - Qoramtir xushbo'y gul.
[1312].Parishon - Yoyilgan, sochilgan.
[1313].Sabo - Tongotar chog'da esgan mauin yel.
[1314] Mohi tobon - Oy yuzli, go'zal, chiroyli.
[1315].Notovon - Kuchsiz, bo'sh, zaif, bo'sh.
[1316].Darig' - Hayf, afsus, attang.
[1317].Tarahhum - Rahm qilish, mehribonlik.

**Sog'inib.**

Katta ashula yo'llari asosida cholg'ulashtirilgan.

Ey dilrabo ishqing bilan devona bo'ldum sog'inib,
Bulbul kabi tun kechalar giryona[1318] bo'ldum sog'inib.

Necha kundur kelmading hardamda ahvolim so'rab,
Turlik balo ming g'am bila hamxona bo'ldum sog'inib.

Xech kim maningdek kuymagan hajring o'tida ey sanam,
Tanho tutashdim man o'zim so'zona[1319] bo'ldim sog'inib.

Kelgay eding ey pari har dam ahvolim so'rab,
Necha kundur kelmading xayrona bo'ldum sog'inib.

Kim desa jononing kelur shu xaftani oxirida,
Atrofida giryona aylanib giryona bo'ldim sog'inib.

---

[1318]Giryona - Yig'lovchi, yig'lab turgan.
[1319].So'zona - Yonayotgan,kuyayotgan,yonib turgan.

**O’xshaydi-ku.**

Hamza she’ri.

T. Qodirov ijrosi.

O’ylasam, ul dilbarim makkorga o’xshaydi-ku,
Rahmi yo’q bir bevafo dildorga o’xshaydi-ku.

Ul kuni gulgun niqobin ochubon, man xastani,
Ishqidin bo’ynimga solgan dorga o’xshaydi-ku.

To bu dam olmas xabar, bo’ldi yuraklar chok-chok,[1320]
Sho’xi zolim xiyla[1321] dilozorga o’xshaydi-ku.

Nargisi aylay muruvvat[1322] desa, qo’ymas ko’zlari,
Xanjari mujgonlari[1323] xunxorga[1324] o’xshaydi-ku.

---

[1320].Chok-cho - Yirtiq,yoriq,tilingan.
[1321].Xiyla - Oz-moz,ozroq,ozgina, picha.
[1322].Muruvvat - Mardlik,odamgarchilik,sahiylik.
[1323]Mujgon - Kipriklar.
[1324].Xunxor - Qonxo’r.

O’zicha qilmas manga muncha jafou jabrni,
Anga o’rgangan magar ag’yorga o’xshaydi-ku.

Ey Nihon, qilding tavallo[1325] necha yillar - kelmadi,
San kabi bechoradin bezorga o’xshaydi-ku.

**Yor istab.**

Furqat she’ri.

Ko’ngul dardig’a topmay boraman xargiz davo istab,
Ani umri kiromi,[1326] xasrato, bo’lg’ay ado istab.

Necha yurdim, adoshib to’g’ri yo’ldin, besaru[1327] somon,
Tutub ilgimni, yo’lg’a solsa, deb bir rahnamo[1328] istab.

Necha erga surib yuz, yaxshilar yo’lida o’ltirdim,
G’ubori[1329] domanidin[1330] jon ko’ziga to’tiyo istab.

Judo bo’lgan meningdek bormikin bir xastayu ma’yus,
Jahonda hojatig’a topmagan xargiz ravo[1331] istab?

---

[1325].Tavallo - Yolvorish, umidlanish.
[1326].Kirom - Karamli,sahovatli.
[1327].Besaru - Tinim bilmay,doim yugurik.
[1328]Rahnamo - Yo’l ko’rsatuvchi,yo’lboshchi.
[1329].G’ubor - Gard, chang, to’gzon.
[1330].Doman - Etak, o’ngur.
[1331].Ravo - Mumkin, munasib, o’rinli.

**Mustaxzod.**

Chokar she'ri.

Husning guli to bo'ldi jahon mulkida paydo, ey sho'xi parizod,
Soldi ani ishqi boshima kulfati savdo, qilg'il manga imdod,[1332]

Bilmam, na sifat odam eding noz fanida, ey ko'zlari shahlo,
Qilding mani bir boqish ila husninga shaydo, jilva qilib ijod.
Layli bila Shirin chu emas yorima monand , bir zarra ham obod,
Men birla qachon teng bo'lur ishq ichra jahonda Majnun ilaFarxod.

Siynamda[1333] chu etdi bu ko'ngul mulkini vayron, yondirg'ali jonim,
Endi anga rahm aylabon, ey dilbari barno, qilg'il mani obod.

Chokar g'ami ishqingga qachon bo'lsa giriftor, ishq ichra, biloshak,
Dardiga oning shahdi labing qildimu davo, ey qomati shamshod?

**Mustaxzod.**

Ey pari yuzli begim, jonlar fido bo'lsin senga,
Dunyada husn oti bor erkan, baqo[1334] bo'lsin senga!

Haddi[1335] mahluqotdindir nori ul husnu jamol,
Ulki yo'qdir – rahm erur?, bu ham ato bo'lsin senga.

Iymanib hosid[1336] tilindan, dast bermas chun salom,

---

[1332].Imdod - Madad, yordam, ko'mak.
[1333].Siyna - Ko'ks,ko'krak, bag'ir.
[1334]Baqo - Boqiylik,abadiylik, borliq.
[1335]Had - Daraja, martaba.

Ko’z uchi birlan yiroqdan Marhabo! bo’lsin senga.

Chun vafosizlarga bermishdir azalda ko’rkni,
Bu kamoli xusn ila qaydan vafo bo’lsin senga?!

Bir qiyo boqsang zakot i[1337] xusn uchun, ey ko’rkaboy,[1338]
Lutfiyi miskindin[1339] o’lguncha duo bo’lsin senga!

**Bo’ylaringga.**

Maxtumquli she’ri.
R. Tursunov musiqasi.

Yursang yorim quvonaman,
Sarvi qomat bo’ylaringga.
Guldan libos yarashibdur,
Sog’-salomat bo’ylaringga.

Men bulbulga aylab ozor,
Shirin jonim olding nisor.[1340]
Zulayhodan qolgan zunnor[1341]
Bo’lsin xojat[1342] bo’ylaringga.

Ko’rsam xusning yoo’q armonim,
Sensiz xazon bo’lsin jonim.

---

[1336].Hosid - Hasadchi,birovning borligini ko’rolmovchi.
[1337].Zakot -1.Soliq, 2.ozgina husn ko’rsatish.
[1338].Ko’rkabo - Juda chiroyli, husnli.
[1339].Miskin - Faqir, bechora, yo’qsil.
[1340].Nisor - Sochish, sochqi.
[1341].Zunnor - Xristianlar beliga bog’laydigan chilvir.
[1342].Hojat - Extiyoj.

Iqbolim baxtim-imonim,
Qilsam hurmat bo'ylaringga.

Ko'rgan oshiq fido bo'lur,
El-yurtidan judo bo'lur.
Maxtumquli gado bo'lar,
Ul karomat[1343] bo'ylaringa.

**Ko'zi Qaroni.**

Lutfiy g'azali.
U. Atoev ijrosi.

Qaydin dog'i ko'rdum men o'shal ko'zi qaroni,
Kuch birla keturdi bu ko'ngul boshga baloni.

Bu xomtama ko'nglum agar bo'lmasa majnun,
Sen siymbadandanmu[1344] tilar erdi vafoni?

Bir qil uchini ming yorayin so'zi qoshinda,
Kasb etsam agar kun yuzidain zarra safo[1345]ni.

Dardimg'a qilur chora tabassum bila la'ling,[1346]
Iso[1347] qani o'rgansa bu "Qonun"i shifoni.

---

[1343].Karomat - Mo'jiza.
[1344]Siymbadan - Kumushbadan, oq badan.
[1345].Safo - Yorug'lik,ravshanlik, porloqlik.
[1346].La'l - Qip-qizil lab,sevgilisining labi.
[1347].Iso - Iso payg'ambar.

Bo'lg'ay asari baxt, dag'i tole'i mas'ud,[1348]
Gar xaftada bir ko'rsam o'shal moxliqoni.

Gar bo'lsa edi zarra vujud og'zida mavjud,
Lutfiy qachon andisha[1349] qilur erdi fanoni?[1350]

**Qaro zulfing.**

Bobur g'azali.

G'anijon Toshmatov musiqasi.

Qaro zulfung, firoqida parishon[1351] ro'zg'orim[1352] bor,
Yuzingning ishtiyoqida[1353] ne sabru ne qarorim bor.

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon[1354] qildi,
Nega xolim yamon qildi, men ondin bir so'rorim bor.

Jahondin manga g'am bo'lsa, ulusdin[1355] gar alam bo'lsa,
Ne g'am, yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim[1356] bor.

Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,

---

[1348].Mas'ud - Saodatli, baxtli.
[1349].Andisha - G'am, g'amginlik, xafalik.
[1350]Fano - Yo'q bo'lish, tugalish.
[1351].Parishon - Yoyilgan, sochilgan.
[1352].Ro'zg'or - Hayot, turmush, tirikchilik.
[1353]Ishtiyoq - Mushtoqlik, dil xohishi, ko'ngil istagi.
[1354].Ravon - Yuruvchi, o'tuvchi.
[1355].Ulus - El, xalq.
[1356]G'amgusor - G'amxo'r, mehribon.

Base, Bobur, o’shal guldin ko’ngulda xor-xorim bor.

**Gul jamol.**

Bobur g’azali.

G’anijon Toshmatov musiqasi.

Gul jamolin yopqon, ul gulning iki rayxonidur,
G’uncha sirrin ochqon ul iki labi xandonidur.

Ul musalsal[1357] ikki zulfi gul yuzining davrida,
Gul uza og’nar, magar ul ikkining davronidur.

Sel emasdur yer yuzin tutqon, ko’zumning yoshudur,
Ra’d[1358] emasdur ko’kka chirmashqon - ko’ngul afg’onidur!

Lojaram,[1359] bo’lg’ay parishon[1360] u havoyi[1361] men kibi –

---

[1357].Musalsal - Zanjirga o’xshash ulangan.
[1358].Ra’d - Momoqaldiroq.
[1359].Lojaram - Chorasiz, noiloj.
[1360]Parishon - Yoyilgan, sochilgan.
[1361].Havoyi - Beqaror, o’yinqaroq.

Zarra yanglig'[1362] kimki bir xurshid sargardonidur.[1363]

Ul pari ishqida, Bobur, ko'nglum andoq telbadur,[1364]
Kim, sochi – zanjiridur, chohi zaqan [1365]– zindonidur.

**Qomati.**

Navoiy g'azali.

S.Aminov ijrosi.

Gulshan ichra jilvayi[1366] noz etsa jonon qomati.
Tuproq o'lg'ay soyadek sarvi xiromon[1367] qomati.

Nozanin qadding tiriklik gulshanining naxlidur,[1368]
Sarvi to'bi[1369] sendek o'lmakni na imkon qomati.

Vasl shomi[1370] ravshan o'ldi partavi[1371] ruxsoridin,
Yo'q ajab desam erur shami shabiston[1372] qomati.

Ey Navoiy, xo'blar[1373] qaddida[1374] yo'qdir e'tibor,

---

[1362]Yanglig' - Kabi, singari.
[1363]Sargardon - Sarson, ovora.
[1364].Telba - Aqldan ozgan, esini yo'qotgan.
[1365].Chohi zaqan - Bag'baqa chuqurchasi.
[1366].Jilva - O'zni go'zal ko'rsatish, nozlanish.
[1367]Sarvi xiromon - Go'zal yurishli sevgili.
[1368].Naxl - Ko'chat, uosh daraxt.
[1369].To'bi - 1.Jannat daraxti.2.Go'zal qomat.
[1370]Vasl shomi - Visol oqshomi.
[1371].Partav - Yorug'lik asari, nur.
[1372].Shabiston - 1.Kechki yotoqxona.2.Qorong'u kecha.
[1373]Xo'b - Yaxshi, chiroyli, go'zal, durust.

Nega o'xshar sarvidek unduroq[1375] inson qomati.

**Xoh inon.**

Lutfiy g'azali.

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron[1376] kechasi charxi[1377] falakka etar, ey moh,[1378]
Ohi saharim,[1379] xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki,[1380] qilich kelsa boshimga, eshikingdin,
Yo'qtur guzarim[1381], xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzungga ko'z solg'ali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

---

[1374].Qad - Bo'y, qomat.
[1375].Unduroq - Balandroq, yuksakroq.
[1376]Hijron - Ayriliq, firoq.
[1377].Charx - Taqdir, tole'.
[1378].Moh - Oy, to'lin oy.
[1379]Sahar - Tong chog'i.
[1380].Haqqo - Haqiqatda.
[1381]Guzar - O'tish, o'tish joyi.

Ishq o'tig'a Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim,[1382] xoh inon, xoh inonma.

**Xech kima ma'lum emas.**

Mashrab g'azali.

Hech kima ma'lum emas holi parishonim mening,
Osmonni pora[1383] qildi ohu afg'onim[1384] mening.

Men nechun shod etmayinkim, hasta ko'nglum bir dame,
Keldi holimni so'rab jon ichra jononim mening.

Ey sitamgar,[1385] kelgilu, emdi shahid etgil meni,
Mavj ursun Karbalo[1386] dashtida bul qonim maning.

Nozu istig'no[1387] bila kelib, meni holimni so'r,
Termulub doim yo'lungda chashmi[1388] giryonim[1389] maning.

---

[1382]Siymbar - Kumushbadan, oq badan.
[1383].Pora - Parcha, bo'lak.
[1384].Afg'on - Fig'on, nola.
[1385].Sitamgar - Zolim, ezuvchi.
[1386].Karbalo - Arab mamlakatlaridagi cho'l.
[1387].Istig'no - Muxtoj bo'lmaslik, extiyojsizlik.
[1388]Chashm - Ko'z.
[1389].Giryon - Yig'lovchi, yig'lab turgan.

Tobakay [1390] jabru sitam aylab yurursan, ey rafiq,[1391]
Chiqti, Mashrab, ushbu g'amdin bu aziz jonim maning.

**Bilib bo'lmas.**

Mashrab g'azali.

X. To'xtasinov musiqasi.

Malaksan yo bashar [1392] yo huru[1393] g'ilmonsan[1394]- bilib bo'lmas,
Bu lutfu[1395] bu nazokat birla sandin ayrilib bo'lmas.

Ajab berahm dilbarsan, ajab sho'xi sitamgarsan,[1396]
Charog'i husni ro'yingdin[1397] ko'ngulni ham uzib bo'lmas.

Yuzungni oftobini ko'rib, xayron bo'lib qoldim,
Falakka qo'l uzotib, shamsi anvarni[1398] olib bo'lmas.

---

[1390].Tobakay - Qachongacha, tokaygacha.
[1391].Rafiq - O'rtoq, jo'ra, do'st, ulfat.
[1392].Bashar - Odam, kishi, inson.
[1393].Hur - 1.Go'zal husndor qizlar.2.Jannatdagi go'zal qizlar.
[1394].G'ilmon - Maj: jannatdagi xizmatkor.
[1395].Lutf - Mehribonlik,muloyimlik.
[1396]Sitamgar - Zolim, ezuvchi, azoblovchi.
[1397].Ro'y - Yuz, bet.
[1398].Shamsi anvar - Eng nurli quyosh, oftob.

Yuzung misli qizil guldur, ko'ngul - chun bulbuli shaydo,
Bu gulni ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo'lmas.

Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo'libsan, bo'lmag'il g'ofil,[1399]
Bu g'aflat uyqisidin, ey yoronlar, uyg'onib bo'lmas.

**Chorzarb**.

Farg'ona mumtoz yo'llaridan**.**

Amiriy g'azali.

Qoshingga teguzmag'il qalamni,
Bir xat birla buzmag'il raqamni.

Butxonalar[1400] ichra hech tarso,[1401]
Bir ko'rmadi sen kibi sanamni.

Yo'lingda g'ubor oh bo'ldim,
Boshimga eturmading qadamni.

Ko'ngul qushi toyiri[1402]xarimning[1403],
Sayd etma kabutari xaramni?

---

[1399].G'ofil - G'aflatda qolgan, bilmay qolgan.
[1400].Butxona - Cherkov,Xristianlar ibodatxonasi.
[1401]Tarso - Xristian, nasroniy.
[1402].Toyir - 1.Qush.2.Uchuvchi.
[1403].Harim - Haram, nomahramlar kirmaydigan joy.

Bir kosa sharobi ar g'uvoniy,[1404]

Pomol[1405] qilur xujumi g'amni.

Iqlimi vafo Amiridursen,

Ey shax, bu gadog'a qil karamni.

**Ra'nolanmasun.**

Yu. Rajabiy musiqasi

Bog' aro yuzlanki to gulchehra ra'nolanmasun.[1406]

Sabzasin paymoli[1407] qil ra'nosi zebolanmasun.

Yuz etib zulfingdag'i sunbul mutarrolanmasun.[1408]

Orazing [1409] ko'rsat ko'ngul gulshan tamannolanmasun.[1410]

Qomatingga jilvayi tubi[1411] tamosholanmasun.

Ey kiyik ko'zli , shakar so'zli, quyos h yuzli nigor.[1412]

Bo'lsa yuz jonim mening qilsam tasadduq jon nisor.[1413]

Yoshirib lutfing [1414] g'azab rasmini aylar oshkor,

Maqsading gar qatlim ersa ayla pinhon zinxor,

Zoxir[1415] etma bu karam[1416] to xalqi g'avg'olanmasun.

---

[1404]Arg'uvoniy - Bahorda ochiladigan qizil gulli daraxt.
[1405].Pomol - Paymol, oyoq ostida qolgan.
[1406].Ra'nolanmasun - Chiroyini ko'z-ko'z qilmasin.
[1407].Poymol - Oyoq osti qilmoq.
[1408].Mutarro - Toza, yangi, bezalgan, tiniq.
[1409].Oraz - Yuz,chegra.
[1410].Tamanno - Tilak, istak, orzu.
[1411].Tubi - Jannat daraxti, go'zal daraxt.
[1412].Nigor - Go'zal ma'shuqa.
[1413]Nisor - Sochqi, sochish.
[1414].Lutf - Muloyimlik, rahmdillik.

**Dardi dilim.**

Ogahiy g'azali.

Fattahxon Mamadaliev ijrosi.

Dardi dilim ango dedim, "Dema ani mango!" - dedi,
"Kim manga oshiq o'lsa, ul lozim erur ango", - dedi.

"Yuz uza ikki nargising, [1417] vah ne balo qaro?!" - dedi,
"Ko'ngulu joning olg'uchi ikki qaro balo" - dedi.

"Xusnungga aylayin nazar? man sari bir qaro!" - dedim,
Yoshurubon yuzin: "Ket, e masxara,[1418] bexayo!" dedi.

"Bo'sa labi savob uchun ayla manga ato!" - dedim,
Qoshu qapog'ini chetib: "Qo'y, bu so'zing xato" - dedi.

---

[1415]Zohir - Ravshan, porloq.
[1416].Karam - Yaxshilik,olijanoblik,ehson.
[1417].Nargis - Gulning bir turi, bo'tako'z.
[1418].Masxara - Surati o'zgargan, xunuk qiyofa.

“Ogahiy komini[1419] nedin aylamagung ravo?”[1420] - dedim,
“Kom toparmu, jonin ul qilmog’uncha fido!” - dedi.

**Fosh o’lsin.**

Navoiy g’azali.

F. Mamadaliev ijrosi.

Agar ishqing havosida yog’ar har jola[1421] tosh o’lsun,
Nishona har biriga, dermen, ushbu hasta[1422] bosh o’lsun.

Quyoshni bo’lmas, ey gardun,[1423] ul oyg’a aylamak tashbeh,[1424]
Og’iz gar zarra, cho’lpon[1425]-ko’z, yangi oy anga qosh o’lsun.

Agar paykonlarin[1426] ko’z istabon topti ko’ngul, g’am yo’q,
Kelib yig’lar mahal ul qatra suvlar ko’zga yosh o’lsun.

Ko’ngulda sirri ishqin asray-asray o’ldim, ey soqiy,[1427]

---

[1419].Kom - Og’iz.
[1420].Ravo - Mumkin, munosib.
[1421]Jola - Jala, do’l, shudring, shabnam.
[1422].Hasta - Dardga chalingan.
[1423].Gardun - Falak, osmon, ko’k.
[1424].Tashbeh - O’xshatish, o’xshatmoq.
[1425]Cho’lpon - Venera yulduzi.
[1426].Paykon - Kamon o’qining uchi.Maj:kiprik.
[1427].Soqiy - May quyuvchi, kosagul.

Qadah tutkim, xarobot[1428] ahlig'a fosh o'lsa , fosh o'lsun.

Navoiy ashk[1429] durridek[1430] tilarkim ko'zda yer bergay,
Agar ishqing xavosida yog'ar har jola tosh o'lsun.

**Buxoro To'lqini**.

Segoh maqomidan. Navoiy g'azali.

Ko'nglum olg'ach ul pari, majnunu shaydo qildilo,
Aqlu xushumni junun dashtida yag'mo [1431] qildilo.

O'zgacha zulmu taaddiylar[1432] bilan qonim to'kar,
Turfa[1433] erdi, turfa ishlar dog'i paydo qildilo.

Xurmati taqvo[1434] tutar erdi, vale mast otlanib,
Boshima chopmoq bila olamg'a rasvo qildilo.

Ohkim chektim, ko'rub javlonini beixtiyor,
Yoshurun ishqim ulusqa[1435] oshkoro qildilo.

Dayr[1436] aro jomi labolabkim[1437] ichurdi, xolima

---

[1428]Xarobot - 1.Vayrona.2.Mayxona.
[1429].Ashk - Ko'z yoshi.
[1430].Durr - Inju, marvarid.
[1431]Yag'mo - Tolon-toroj, buzg'unlik.
[1432]Taaddi - Zilm qilish, tajovuz.
[1433].Turfa - Yangi, yangilik.
[1434]Taqvo - Taqvodor, saqlanuvchi.
[1435].Ulus - Xalq, el.

Xonaqax  axli kelib bir-bir, tamosho qildilo.

Behud[1438]  o'lg'ach, zulfi zunnorig'a[1439] din naqdin berib,
Ishq  bozorida  ko'nglum  turfa  savdo qildilo.

Menmen emdi-yu fano[1440] dayrida  bo'lmoq mayparast,
Mug'bacha[1441] ishqi ulusqa  sirrim ifsho qildilo.

Gar vatan dayr  ichra  toptim, kimsaga  yo'q  xech ayb,
Dayr  piridin[1442] Navoiy  bu tamanno qildilo.

**Qo'shchinor.**

Navoiy g'azali.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi.

Tun oqshom keldi-yu, kelmas mening  sham'i shabistonim,
Bu anduh  o'tidin  har dam  kuyar  parvonadek  jonim.

Ne g'am, ko'rguzsa  ko'ksim  porasin choki  giribonim,[1443]
Ko'runmas  bo'lsa  ko'ksum  yorasidin dog'i  pinxonim.

G'amidin durri[1444] maknundek  sirishkim[1445] oqti  Jayhundek,[1446]

---

[1436].Dayr - Butxona.Maj:Mayxona.
[1437].Labolab - Labigacha to'la, liq to'la.
[1438].Behud - Xushsiz, devona.
[1439].Zunnor - Xristianlar beliga bog'laydigan chilvir.
[1440].Fano - Baqosizlik, yo'q bo'lish.
[1441].Mug'bacha - May tashuvchi bola.
[1442].Pir - 1.Qari,keksa.2.eshon, shayx.
[1443].Giribon - Kiyim yoqasi.
[1444].Durri maknun - Yashirin dur.
[1445].Sirishk - Ko'z yoshi.
[1446] Jayhun - Amudaryoning yana bir nomi.

Muzayyan[1447] qildi gardundek[1448] jahonni ashki g'altonim.[1449]

Navoiy kibi hijrondin bu oqshom o'ldum afg'ondin,[1450]
G'amim yo'q bo'yla yuz jondin, etib gar kelsa jononim.

**Boshdin yana.**

Bobur g'azali.

F. Umarov ijrosi.

Sochining savdosi tushd i boshima boshdin yana,
Tiyra[1451] bo'ldi ro'zg'orim ul qaro qoshdin yana.

Men xud[1452] ul tifli[1453] parivashg'a ko'ngul berdim, vale
Xonumonim[1454] nogahon[1455] buzulmag'ay boshdin yana.

Yuz yamonlig' ko'rib ondin, telba[1456] bo'ldung, ey ko'ngul,
Yaxshilig'ni ko'z tutarsen ul parivashdin yana.

Tosh urar atfol[1457] meni, uyida forig'[1458] ul pari,

---

[1447]Muzayyan - Ziynatlangan, bezangan.
[1448].Gardun - Falak. Osmon, ko'k.
[1449]G'alton - Yumanlanuvchi, yumaloq.
[1450].Afg'on - Nola, fig'on.
[1451].Tiyra - Qora, qorong'u.
[1452]Xud - 1.Ham.2.Haqiqatdan.
[1453].Tifli - Go'dak, yosh bola.
[1454].Xonumon - Uy-joy va uy-joy jihozlari.
[1455].Nogahon - To'satdan, qo'qqisdan.
[1456].Telba - Jinni, aqldan ozgan.
[1457].Atfol - Go'daklar, yosh bolalar.
[1458].Forig' - Qutulgan, ozod.

Telbalardek qichqirurmen har zamon toshdin yana.

Oyog'im etgancha Boburdek ketar erdim, netay,
Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana.

**Sharob. Taronai Nasri segoh**.

Bobur g'azali.

Nazira Ahmedova ijrosi.

Kim ko'rar xurshidni,[1459] ul moxsiymo[1460] bo'lmasa?!
Kim so'rar shakkarni, ul la'li shakarxo [1461] bo'lmasa?!

Gul tikandur ko'zlarimga, ul yuzi guldin yiroq,
Sarv [1462] o'qdur bag'rima, ul sarvi bolo[1463] bo'lmasa.

Jannatul-ma'voni,[1464] ey zohid,[1465] netay men zorkim,
Istaram, ko'yidin o'zga manga ma'vo bo'lmasa.

Tiymag'il devona[1466] ko'nglumniki, rasvo bo'lma deb,

---

[1459]Hurshid - Quyosh.
[1460].Mohsiymo - Oy yuzli,go'zal.
[1461].Shakarho - Shakar chaynovchi.
[1462].Sarv - Yam-yashil,xushbichim daraxt.
[1463].Bolo - Baland, yuqori.
[1464]Ma'vo - Boshpana, turar joy, makon.
[1465].Zohid - Dunyoviy ishlarda kechib,ibodat bilan mashg'ul bo'lgan odam.
[1466].Devona - Xushdan ajralgan, aqldan ozgan.

Oshiq o'lg'aymu edi ul telba[1467] rasvo bo'lmasa?!

Gar boshingni kessalar ishqida, ey Bobur, sening,
Yordin ko'nglung, kerakkim, o'zg a qat'o[1468] bo'lmasa.

**Tokay.**

Uvaysiy g'azali. K. Jabborov musiqasi.
S. Qobulova ijrosi.

Boshimg'a yog'durursan, ey falak, boroni[1469] g'am tokay,
Yozarsan past iqbolimni, ey lavhu[1470] qalam, tokay?!

O'zimdinmu, falakdinmu va yo iqboli pastimdin,
Tunu kun do'stdin ozoru, dushmandin sitam[1471] tokay?!

Nechunkim orzu qilmay ani yo'lida o'lmakni,
Jarohatlig' ko'ngulg'a xalq nutqidin alam tokay?!

Falak xonida afgor[1472] o'ldi o'xshar savm[1473] botinkim,[1474]
Visolidin bo'lub mahrum, hijrondin baham tokay?!

---

[1467].Telba - Aqldan ozgan, jinni.
[1468].Qat'o - Qat'iyan, xech qachon, aslo.
[1469].Boron - Yomg'ir.
[1470].Lavh - Yozuv taxtasi
[1471].Sitam - Zulm, jabr.
[1472].Afgor - Yaralangan, jarohatlangan.
[1473].Savm - Ro'za.
[1474].Botin - Ichki tomon, ich.

Qilubon suratin tabdil[1475] ul mal'un[1476] badbaxti,
Dilo, bir pushtipo[1477] ur, bo'lg'usi jismingg'a rom tokay?!

Muhabbat bo'lsa sanda, tangri bilmas yo'qdu hech kori,
Qilursan nazmdin tab'ingg'a[1478] to xayu hasham[1479] tokay?!

Ayog'ing ostig'a boq, chohi [1480]zulmati qozilmishdur,
Qo'yarsan bexabarcha ustina ushbu qadam tokay?!

Qilib mehnat, duri maqsad olib daryoi ishqidin,
Yitursang boz ilkingdin, qilur Tangri karam[1481] tokay?!

Uvaysiy, qolg'on umring ol yuzungga qiblai maqsud,
Xirad[1482] bozorida qilg'ungdu savdoi sanam[1483] tokay?!

**Na qildim?**

Huvaydo she'ri. M Bahodirov ijrosi.

Na qildim sanga man, yorim jamolingdin judo qilding,
Boshimda gardi g'amni chun charog'i osiyo qilding.

Hamisha kuydurub sham'i firoqing birla jonimni,
Mani parvonani xokistarini[1484] zeri po[1485] qilding.

---

[1475].Tadbil - Olmoshtirish, o'zgartish.
[1476].Mal'un - La'natlangan, la'nati.
[1477].Pushtipo - Tark etmoq, vaz kechmoq.
[1478].Tab' - Tabiat, xarakter.
[1479]Hasham - Yaqin kishi.
[1480].Choh - Chuqur, quduq.
[1481].Karam - Mehribonlik.
[1482].Xirad - Aql, xush, zehn.
[1483].Sanam - 1.But.2. Sevgili, go'zal.

Judo aylar ekansan, ey pari-laylivashi  shirin,
Na deb avval o’zungga man g’aribni oshno qilding?!

Nigoro, bori g’am birlan faqiri notavon aylab,
“Alif”dek qomatimni  “lom-alif” yanglig’ duto qilding.

Firoqing osmonidin solib bir barqi olamso’z,
Vujudim xirmanim o’rtab, ado qilding, ado qilding!

Ayo dilbar, Xuvaydodek balokashni eshiklarda,
Solib ko’zdin, asiru benavo, zoru gado qilding.



**DOG’MAN**

Maxmur g’azaliga Noqis muxammasi

Komiljon Otaniyozov musiqasi

---

[1484].Xokistar - Kul, kulrang.
[1485].Zeri po - Oyoq osti.

O`zbek she’riyatida nomi ko’pchilikka tanish bo`lmagan, yoki uning hayoti va ijodi haqida eng faol kitobxonlar ham ma’lumotlarga ega bo’lmagan ijodkorlar ko’p.[1486] Shulardan biri shoir Maxmur va yana biri shoir Noqis. Maxmur - shoirning taxallusi, asl ismi sharifi - Mahmud Mulla Shermuhammad o`g’li. Tug’ilgan yili noma’lum. 1844 – yilda Qo`qon shahrida vafot etgan.Akmal Xo’qandiyning o’g’li.Maxmur Qo`qon shahridagi Madrasai Mirda tahsil olgan. Qo’qon xoni Amir Umarxon qo’shinida sarbozlik va sipohiylik qilgan.Bolaligidan oilasidagi adabiy muhitda Sa’diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini o’rgangan.Mashxur “Hapalak” satirik asarini yozgan.

Noqis asl ismi Abdulqodir Muhammadshokir o`g’li.[1487] 1860- yilda Kattaqo’rg’on shahrida tug’ilgan.Milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo`shgan o`zbek shoiri.Buxoro madrasalarida o`qigan. 1895 - yili Kattaqo`rg’onga qaytib kelib, madrasada mudarrislik qilgan.Sa’diy, Jomiy, Navoiy g’azallariga muxammaslar yozgan. Muqimiy ijodiga ehtirom bilan qaragan. O`zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog’iston Respublikalari xalq artisti, o`zbek ashulachilik san’ati iftixori Komiljon Otaniyozov o`zining betakror ashula va qo`shiqlari qatorida “Dog’man” ashulasini ham Xorazm milliy ohanglariga mos tarzda yaratgan va ijro etgan.

Komiljon Otaniyozov 1917 – yilda Shovot tumani, Bo`yrachi qishlog’ida tug’ilgan.[1488]1975 – yil 5 – noyabrda Toshkent shahrida vafot etgan va o`z qishlog’iga dafn etilgan. Xonanda, sozanda (tor), aktyor va bastakor.1949 - yilda O`zbekiston xalq artisti, 1964 - yilda Turkmaniston xalq artisti, 1968 - yilda Qoraqalpog’iston xalq artisti unvonlariga sazovor bo`lgan. Nihoyatda jozibali va kuchli ovoz sohibi bo`lib, har bir asar talqinida badiiy etuklikka erishgan. Doston yo`llarini Bola baxshi Abdullaevdan, Xorazm maqom ashula yo`llarini Matpano Xudoyberganovdan o`rgangan.1955 - yilda Toshkentdagi Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tugatgan, 1955 - 56 yilda Toshkent konservatoriyasida ta’lim olgan.

Komiljon Otaniyozov 1936 – 52 yillarda Xorazm teatrlarida xonanda va aktyor sifatida ishlab, Farhod («Farhod va Shirin»), Tohir, Parfi hofiz («Tohir va Zuhra»), Qodir («Gulsara»), Davron Ota («Davron Ota») kabi obrazlar yaratgan. Komiljon Otaniyozov 30-yillardan murakkab xalq ashulalarini, dostonlardan qo`shiqlar ayta boshlagan. Xorazm suvora va maqomlari Komiljon Otaniyozov ijrochilik faoliyatining yuqori bosqichi bo`ldi. Komiljon Otaniyozov Xorazm doston qo`shiq(noma)lari asosida yangicha uslub yaratgan. Bastakor sifatida bu uslubda ijod qilgan «Salom, sizga Xorazmdan», «Muborak», «Vatan», «Olqish»,

---

[1486]. Qo‘qon adabiy muhiti. - Toshkent sh, 1961.A Qayumov .A Abdug‘afurov.

[1487]. Abduqodir Noqis, XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixiga doyr materiallar. - Samarqand, 1985 Orzibekov R.,

[1488]“So’z va soz sohibi” - Toshkent sh. 2014 y S. Xudoyberganov. .

«Temir yo`l», «O`zbekiston», «Xorazm» kabi qo`shiqlari o`zining ommabopligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi.

Komiljon Otaniyozov A. Stepanov bilan hamkorlikda «Aziz va Sanam», «Oshiq G'arib», Sulton Hayitboev bilan «So`nggi xon» kabi musiqali dramalar yaratdi. "Dog'man" ashulasi shunchalar ommabop bo`lib ketdiki, Xorazmdan minglab kilometr olisda Farg'onada O`zbekiston xalq artisti Tavakkal Qodirov ham bu ashulaning ikkinchi ijrochisi bo`ldi. El orasida ustoz Komiljon Otaniyozov Tavakkal Qodirov ijrosida "Dog'man" ashulasini eshitgandan so`ng, bu ashulani Tavakkal Qodirovga "hadya" qilgan ekan degan gaplar ham bor.Nazarimda xalqimizga Tavakkal Qodirovning ijrosi ko`proq yaqinday, bunga sabab, bu ijroning ommaviylashib ketganidir. Lekin O`zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston Respublikalari xalq artisti Komiljon Otaniyozov "Dog'man" ashulasini yaratgan va birinchi ijrochisidir.

**Dog'man.**

Noqis g'azaliga Maxm ur muhammasi.

Komiljon Otaniyozov musiqasi.

Ishqingda zor bo'ldim-u, g'amgin dumog'ma[1489]n,
Bemori furqatingman-u, zoxirda[1490] sog'man,
Aqlu xushum saning bila – o'zdin yirog'man,
Ko'rsat yuzingni, tolibi[1491] nuri charog'man,
Xajringda dardu g'am bila xasratda dog'man.

O'ldim jamoling shavqida, darding ololmadim,
Boshingdin, ey sanam, nega men o'rgulolmadim?
Bir laxza ishrat uyida majlis qurolmadim,
La'li labingni qandini bir dam so'rolmadim,
Xajringda dardu g'am bila xasratda dog'man.

[1489].Dimog' - 1.Burun.2.miya.
[1490]Zohir - Ochiq, oshkor.
[1491]Tolib - Talab qiluvchi, xohlovchi.

Zolim falak firoqingga soldi meni, netay,
Qandog' g'amingni siynada eldin nihon tutay?!
Sabru qaror qolmadi, ey jon, nechuk etay,
Majnuni benavo kibi yo bosh olib ketay?
Xajringda dardu g'am bila xasratda dog'man.

Sensan parivash ahlini sho'hi zamonasi,
Menman sening g'aming bila olam fasonasi.[1492]
Ko'ngul qushini boisi changu taronasi –
Zulfungni domiyu[1493] yana xolingni donasi,
Xajringda dardu g'am bila xasratda dog'man.

O'lsam edi visolinga parvonadek kuyub,
Jon bersam erdi, boshimi ostonanga qo'yub,
Maxmurlikda bodai[1494] vasling bila to'yub,
Noqisligimda ko'ksimi tig'i mijang[1495] o'yub,
Xajringda dardu g'am bila xasratda dog'man.

**Dog'men.**

Muqimiy g'azali.

Oxkim, begonaga oshnolig'ingdin dog'men,
Oshnog'a ya'ni beparvolig'ingdin dog'men.

Oshiqa aylab itobu[1496] nozu istig'no[1497] mudom,

---

[1492]Fasona - Afsona, ertak, doston.
[1493]Dom - Tuzoq.
[1494].Boda - Sharob.
[1495].Mija - Kiprik.

So’rmagan bir yo’l ko’ngul, xorolig’ingdin[1498] dog’men.

Zulm xarfidin bo’lakni bitmagan az ro’yi lutf,
Xat chiqorib, yaxshi xush imlolig’ingdin[1499] dog’men.

Xo’bro’lar ko’pdur, ammo vajhida[1500] badginalig’,
Misli kam, Farg’onada tanholig’ingdin dog’men.

O’rtanurmen tushsa yodimg’a xayoli orazing
Xusn bog’ida ko’rib ra’nolig’ingdin dog’men.

Nolau ohingni gulruhlar eshitmas, garchikim,
Ey Muqimiy, bulbuli go’yolig’ingdin dog’men

**Dog’man.**

Ey pari paykar,[1501] jamolingni ko’rolmay dog’man,
Kimsadin nomu nishoningni so’rolmay dog’man.

Furqatingda[1502] toq o’lub toqat, ketib beixtiyor,
Bir makoneda[1503] qaror aylab turolmay dog’man.

Chexrayi zardim[1504] bila so’rma sirishchkim[1505] olini,

---

[1496].Itob - Qahr, g’azab, qiynoq.
[1497]Istig’no - Extiyojsiz.
[1498].Xoro - Qimmatbaho ipak to’qima.
[1499].Imlo - To’dirish, to’la ifodalash.
[1500].Vajh - Yuz, bet, chexra.
[1501].Paykar - Xaykal, jussa, gavda.
[1502].Furqat - Ayriliq, firoq.
[1503].Makon - Joy, turar joy.

Ko'zlarimni ostonangga surolmay dog'man.

Chun muhabbat sirri ifsho[1506] bo'lmasin deb, ey pari,
Zor yig'lab, nola aylab, oh urolmay dog'man.

**Dilxiroj (Siynaxaroj).**

Fuzuliy g'azali.

Xosilim barqi[1507] havodisdan[1508] malomat[1509] dog'idir,
Masnadim[1510] ko'yi[1511] malomatda fano[1512] tuprog'idir,
Zor ko'nglum tanda zindoni balo dutsog'idir,[1513]
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat[1514] chog'idir.

Davr javrindan tanu jonimda rohat qolmadi,
Surati xolimda osori[1515] farog'at qolmadi,
Mehnatu g'am chekmaga minba'd[1516] toqat qolmadi,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idir.

---

[1504] Zard - Sariq, sariq yuzli.
[1505].Sirishk - Ko'z yoshi.
[1506].Ifsho - Fosh etish, ochish, oshkor etish.
[1507].Barq - Chaqmoq, chaqin, yashin.
[1508].Havodis - Hodisalar, voqealar.
[1509].Malomat - Ayb taqash, yomonlash.
[1510].Masnad - Suyanchiq.
[1511].Ko'y - Ko'cha, mahalla.
[1512].Fano - Yo'q bo'lish, baqosizlik.
[1513].Dutsog' - asirlik, tutqunlik, bandi.
[1514].Muruvvat - Mardlik, sahiylik.
[1515].Osor - Asarlar, nishona, belgi.
[1516].Minba'd - Bundan keyin.

Ko’r Fuzuliyning ruxi zardinda[1517] ashki[1518] olini,
Pardai idbora[1519] dutmish surati iqbolini,
Dardmandingdur,[1520] inoyatlar[1521] etub so’r xolini,
Rahm qil davlatlni sultonim, muruvvat chog’idir.

**Dildor o’zing.**

Habibiy g’azali.
F. Sodiqov musiqasi.

Bir ko’rsatib g’amza[1522] bilan diydor o’zing.
Lutfu karam[1523] qilding, kulib izhor o’zing.

Shaydo qilding, ming dil qushin bir noz ila,
Nozaninlar ichra ajab xushyor o’zing.

Rasta-rasta[1524] gullar ko’rib ta’zim etar,
Gulshan ichra qilganingda raftor[1525] o’zing.

Qo’l ushlashib asta-asta yursam agar,
Sayrim uchun bo’ston ozing, gulzor o’zing.

---

[1517].Zard - Sariqlik, sariq.
[1518].Ashk - Ko’z yoshi.
[1519].Idbor - Baxtsizlik, ishi oldiga bormaslik.
[1520].Dardmand - Dardli, kasal, qayg’uli.
[1521].Inoyat - Mehribonchilik, yordam, marhamat.
[1522].G’amza - Noz bilan qarash, ko’z solish.
[1523].Karam - Marhamat, sahovat.
[1524].Rasta-rasta - Qator, tizilgan.
[1525].Raftor - Yurish.

Ko'kka boshim yetib ko'nglum tog'dek o'sar,
Kulbam sari qo'ysang qadam bir bor o'zing.

Har kim ko'rsa Habibiydek tahsin[1526] o'qur,
Dilrabolik xo'b[1527] yarashgan dildor o'zing.

**O'rtar.**

Mashrab g'azali.

H . Jo'raev musiqasi.

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar,[1528]
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi[1529] ul xonumon[1530] o'rtar.

Kishiga ishq o'tidin zarrai yetsa, bo'lur giryon,
Bo'lub besabru betoqat, yurak-bag'ri chunon[1531] o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, seni vasfing[1532] bayon aylay,
Tilim lolu ko'zum giryon,[1533] so'ngaklarni nihon[1534] o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,
G'aming boshqa, alam boshqa, yurakimni fig'on[1535] o'rtar.

---

[1526].Tahsin - Taqdirlash, mukofotlash.
[1527].Xo'b - Yaxshi, go'zal, chiroyli.
[1528].O'rt - Kuyish, yonish, o'rtanmoq.
[1529].Taqi - Tag'in, yana.
[1530].Xonumon - Uy jihozlari.
[1531].Chunon - Shu qadar, shunchalar.
[1532].Vasf - Ta'riflash, maqtash.
[1533].Giryon - Yig'lab turgan, yig'lagan.
[1534].Nihon - yashirin, berkitilgan.

Bu Mashrab dardini, yo Rab, ki xech kim boshig'a solma,

Agar Mahsharda[1536] oh ursam, bihishti[1537] jovidon[1538] o'rtar.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Mirziyoev Sh.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi).

2.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 17 -noyabrdagi "O`zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to`g'risida"gi qarori. "Xalq so`zi" gazetasi 2017 - yil 18 - noyabr soni.

3.Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustaxkam poydevoridir. G'G' "Xalq so'zi" gazetasi 2017 yil 4 avgust soni.

4.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. "Xalq so`zi" gazetasi 2020 - yil 30 - dekabr soni.

5. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. - Toshkent sh – 1992- yil.

6. "Musiqa merosimizga bir nazar". - Toshkent sh.1978 - yil. Yu.Rajabiy.

7. "Maqom asoslari". - Toshkent sh – 1992- yil. I. Rajabov.

8. "Maqomlar". - Toshkent sh - 2006 - yil. I. Rajabov.

9."O`zbek xalq musiqasi". - Toshkent sh - 1959 - yil. Yu. Rajabiy.

10. "Shashmaqom". - Toshkent sh - 1959 - yil. Yu. Rajabiy.


---

[1535].Fig'on - Nola, oh, nolish.
[1536].Mahshar - To'planadigan joy.
[1537].Bihisht - Jannat.
[1538] Jovidon - Abadiy, doimiy, mangu.

11. “Farg’ona – Toshkent maqomi”. - Toshkent sh. - 2006 - yil. O. Ibroximov.
12.“Navobaxsh ohanglar”. - Toshkent sh - 2018 - yil. S.Mannopov.
13.“Musiqa lug’ati”. - Toshkent sh - 1987 – yil T. G’ofurbekov.
14. “An’anaviy xonandalik”. - Toshkent sh – 2003 - yil. M. Ermatov.
15.“O`zbek mumtoz musiqasi”. - Toshkent sh - 2008 - yil . R.S. Abdullaev.
16. “Navoiy she’riyatidan”. - Toshkent sh -1977 – yil. Sh. Shomuhamedov.
17. “Lutfiy she’riyatidan”. - Toshkent sh -1985 – yil. Sh. Shomuhamedov.
18. “Mashrab she’riyatidan”. - Toshkent sh -1979 - yil. A. Abdug’ofurov.
19. “Furqat she’riyatidan”. - Toshkent sh -1980 – yil. Holid Rasul.
20. “Uvaysiy she’riyatidan”. - Toshkent sh -1980 – yil. Mahbuba Qodirova.
21. “Ogahiy she’riyatidan”. - Toshkent sh - 1983 – yil. F. G’anixo`jaev.
22.”Muqimiy she’riyatidan”. - Toshkent sh - 1980 – yil. A. Qayumov.
23. “Nodira she’riyatidan”. - Toshkent sh - 1980 – yil. J. Jabborov.
24. “Hamid Olimjon she’riyatidan”. - Toshkent sh 1986 – yil.Mahbuba Qodirova.
25.“Faxriddin Sodiqov”. - Toshkent sh - 2005 - yil. R. Yunusov.
26. “Navoiy asarlari lug’ati”. - Toshkent sh- 1972 - yil. P.Shamsiyev.
27.”Mumtoz asarlar lug’ati”. - Toshkent sh - 2019 – yil V. Rahmonov.
28. “Maqomot” - Toshkent sh - 2004 – yil . O. Matyoqubov.
29. “Muxtorjon Murtazoev”. - Toshkent sh -2006 - yil.S.Begmatov. A.Zokirov.
30. “Jo’raxon Sultonov”. - Toshkent sh - 2019-yil. S.Mannopov. N.Soliyev.
31. “Ma’murjon Uzoqov”. - Toshkent sh - 2015-yil.N.Soliyev.M.Kimsanboyev.
32 “Ansambl sinfi”. - Toshkent sh - 2018 – yil. K. Bo’rieva.
33. “An’anaviy yakka xonandalik”. - Toshkent sh - 2018 – yil. M.Karimova.
34. “An’anaviy yakka xonandalik”. - Toshkent sh - 2017 – yil. M. Yo’lchiyeva.
35. “So’z va soz sohibi”. - Toshkent sh - 2014 – yil. S. Xudoyberganov.

M U N D A R I J A

1. So’z boshi----------3
2. Maqom san’atiga beqiyos e’tibor----------4
3. Maqom ansambllari haqida----------8
4. Shashmaqom. Nasr bo’limi----------13
5. Dugoh maqomi----------14
6. Saraxbori Dugoh taronalari bilan----------16
7. Mo’g’ulchai Dugoh----------21
8. Mo’g’ulchai Dugoh talqinchasi----------23
9. Mo’g’ulchai Dugoh qashqarchasi----------24
10. Mo’g’ulchai Dugoh soqiunomasi----------25
11. Mo’g’ulchai Dugoh uforisi----------26
12. Dugoh qalandari----------27
13. Dugoh samandari----------29
14. Saraxbori Oramijon----------30
15. Oramijon----------31
16. Oramijon Ufori----------32
17. Navo maqomi----------33
18. Saraxbori Navo taronalari bilan ----------34
19. Bayot talqini----------36
20. Bayot Nasri----------39

21.Bayot Ufori----------40
22.Navo Mo'g'lchasi----------41
23.Mustaxzodi Navo talqinchasi----------42
24.Mustaxzodi Navo qashqarchasi----------43
25.Mustaxzodi Navo soqiynomasi----------44
26.Nasrulloyi taronalari bilan----------45
27.Uzzol Nasri----------48
28.Xorazm maqomlari----------50
29.Savti Suvora----------51
30.Savti Suvora----------52
31.Savti Suvora----------53
32.Buzruk maqomi----------54
33.Saraxbori Buzruk . M.Tojiboyev sharxi----------56
34.Saraxbori Buzruk taronalari bilan ----------58
35.Uzzol talqini----------62
36.Iroq maqomi----------64
37.Saraxbori Iroq- taronalari bilan ----------65
38.Savti Ushshoq tarkibiy qismlari bilan----------69
39.Savti Ushshoq talqinchasi----------71
40.Savti Ushshoq chapandozi----------72
41.Savti Ushshoq qashqarchasi----------74
42.Savti Ushshoq soqiynomasi----------75
43.Savti Ushshoq uforisi----------76
44.Samarqand Ushshog'i----------77
45.Qo'qon Ushshog'i----------81
46.Sodirxon Ushshoq----------83
47.Sodirxon Hofiz Bobosharipov----------85
48.Qadimgi Ushshoq----------88
49.Ushshoqi Xoliy----------89
50.Ushshoq----------90
51.Mulla To'ychi Toshmuhammedov----------91
52.Savti Navo tarkibiy qismlari bilan----------94
53.Savti Navo talqinchasi ----------95
54.Savti Navo qashqarchasi----------96
55.Savti Navo soqiynomasi----------97
56.Savti Navo uforisi----------98
57.Xorazm maqomlaridan turkum.----------99
58.Savti Suvora----------101
59.Feruz haqida----------103

60.Feruz -1----------104
61.Feruz -2----------105
62.Savti Feruz----------106
63.Segoh Suvoriy----------107
64.Savti Suvora Mustaxzodi ----------108
65.Bo'lmas ----------110
66.Bo'lmisham----------112
67.Farg'ona maqom yo'llari ----------113
68.Fig'on -1 ----------114
69.Fig'on -2 ----------115
70.Toshkent Iroqi----------116
71.Segoh maqomi----------117
72.Saraxbori Segoh----------118
73.Savti Sarvinoz----------123
74.Savti Sarvinoz talqinchasi----------125
75.Savti Sarvinoz qashqarchasi----------126
76.Savti Sarvinoz soqiynomasi----------127
77.Savti Sarvinoz uforisi----------128
78.Navro'zi Xoro tarkibiy qismlari bilan----------129
79.Navro'zi Xoro----------131
80.Navro'zi Ajam----------134
81.Navo'zi Sabo----------136
82.Navo'zi Sabo talqini----------137
83.Navo'zi Sabo talqinchasi----------138
84.Ushshoq uforisi----------139
85.Nimcho'poni----------140
86.Guluzorim----------141
87.Girya – 1----------142
88.Girya – 2----------143
89.Girya – 3----------144
90.Rost maqomi----------145
91.Saraxbori Rost taronalari bilan----------146
92.Chorgoh Talqini tarkibiy qismlari bilan----------150
93.Chorgoh talqini----------151
94.Nasri Chorgoh----------153
95.Oraz----------157
96.Ufori Chorgoh----------159
97.Savti Chorgoh----------160
98.Savti Chorgoh talqinchasi----------161

99.Savti Chorgoh qashqarchasi----------162
100. Savti Chorgoh soqiynomasi----------163
101. Savti Chorgoh uforisi----------164
102. Iroqi Buxoro tarkibiy qismlari bilan----------165
103. Iroqi Buxoro----------166
100.Talqini Iroq----------167
101.Chapandozi Iroq----------168
102.Soqiynomai Iroq----------169
103.Ufori Iroq----------170
104.Savti Navo uforisi----------171
105.Farg'ona –Toshkent maqom yo'llari----------172
106.Bo'lmish----------173
107.Jonim mening----------174
108.Istadim----------175
109.Guluzorim qani?----------176
110.Yakka bu Farg'onada----------180
111.Surating----------181
112.Tortadur----------182
113.Ne bo'ldi?----------183
114.Sayding qo'yober sayyod----------184
115.Fasli navbahor o'ldi----------185
116.Bir kelib ketsun----------186
117.Sog'inib----------187
118.O'xshaydiku----------188
119.Yor istab----------189
120.Mustaxzod----------190
121.Mustaxzod----------190
122.Bo'ylaingga----------191

123.Qo’zi qaroni----------192
124.Qaro  zulfing----------193
125.Guljamol----------194
126.Qomati----------195
127.Xoh inon xoh inonma----------196
128.Xech kima ma’lum emas----------197
129.Bilib bo’lmas----------198
130.Chorzarb----------199
131.Ra’nolanmasun----------200
132.Dardi dilim anga----------201
133. Fosh o’lsin ----------202
134. Buxoro  to’lqini ----------203
135. Qo’chinor ----------204
136. Boshdin yana ----------205
137.Sharob- 1----------206
138.Tokay----------207
139. Na qildim----------208
139. Dog’man----------209
140.Dog’man----------210
141.Dog’man----------211
142.Dilxiroj----------214
143.Dildor o’zing----------215
144.O’rtar----------216
145.Foydalanilgan adabiyotlar----------217
146. Mundarija----------219